NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON
MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

M. B. RADJABOVA

UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARIDA TARIXIY TAHLIL KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Monografiya

«GRAND KONDOR PRINT»
TOSHKENT – 2026

UO`K: 161.11.09
KBK: 89.494
B 29

Radjabova M.B.
Umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi. Matn: // [Monografiya]. // Radjabova M.B.. **– Toshkent: “GRAND KONDOR PRINT”, 2026 y., 120 b.**

Ushbu monografiyada umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari, umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish pedagogik muammo ekanligi hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning diagnostik monitoringi bayon etilgan. Umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning mazmuni o‘rganilgan. Shuningdek, umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik asoslarini takomillashtirish vazifalari, pedagogik shart-sharoitlari, metodologik yondashuvlari ishlab chiqilgan, umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasi tahlil etilgan.

Monografiya akademik litsey o‘qituvchilari, oliy o‘quv yurtlari tarix ta’lim yo‘nalishi talabalari va tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

tarix fanlari doktori, professor D.N.Abdullayev

Taqrizchilar:

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor R.Yarmatov

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor N.Ruzikulova

Monografiya O‘zMPUning Ilmiy texnik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2026-yil 24-aprel 4-sonli ilmiy texnik kengashi qarori).

ISBN 978-9910-9143-0-0

© Radjabova M.B. 2026
© «GRAND KONDOR PRINT» 2026

KIRISH

Jahonda o‘quvchilarining tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarining tarixiy tahlil ko‘nikmalarini takomillashtirish, o‘quvchilarda analitik tafakkur, muammolarni tahlil qilish va tarixiy voqealarga mustaqil baho bera olish ko‘nikmalarini shakllantirishning kreativ modulli texnologiyalari ta’lim jarayoniga tadbiq etilmoqda. “UNESCOning Global Citizenship Education” konsepsiyasi[1] asosida ta’lim oluvchilarda umumiy insoniyatga mansublik hissi, inson huquqlariga hurmat, xilma-xillikni qadrlash, tanqidiy fikrlash va mas’uliyatli fuqarolik fazilatlarini shakllantirish, tarix ta’limida o‘quvchilarning tarixiy hodisalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida baholash, turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilish va tarixiy xulosalarni zamonaviy ijtimoiy hayot bilan bog‘lash ko‘nikmalarini rivojlantirishga tarixni o‘rganish, yosh avlodning siyosiy va ijtimoiy identitetini shakllantirish, inson huquqlari, madaniyatlararo muloqot va demokratik qadriyatlarni rivojlantirish bo‘yicha AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya va Germaniya kabi davlatlarda tarix ta’limi o‘quvchilarning tarixiy manbalarni tahlil qilish, tarixiy dalillarni solishtirish hamda tarixiy voqealarni turli nuqtayi nazardan baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida akademik litsey o‘quvchilarining umuminsoniy qadriyatlar asosida tarixiy ko‘nikmalarini rivojlantirishni kompleks, tizimli jarayon sifatida tahlil qilish, ushbu yondashuv orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlay oladigan, tanqidiy tafakkurga ega, tarixiy jarayonlarni chuqur tahlil qila oladigan hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalash, tarixiy tafakkur va tarixiy bilimlarga ilmiy yondashuvlar asosida tarixiy tahlil ko‘nikmalarining ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, akademik litsey o‘quvchilarining tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishda raqamli manbalar bilan ishlash, tarixiy manbalarni

[1] UNESCO Global Citizenship Education/ “Incheon Declaration: Education 2030 – Towards Inclusive and Equitable Quality Education and Lifelong Learning for All” hujjati. 2015-yil 21-may kuni Janubiy Koreyaning Incheon shahrida o‘tkazilgan Butunjahon ta’lim forumi

tahlil qilishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarning o‘z faoliyatlarini baholay olishi va tarixiy tafakkur va tarixiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, Yangi Renessans sharoitida muqobil ta’lim shakllarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga qodir, kompleks tarixiy tahlil ko‘nikmalari, analitik fikrlashga ega o‘quvchilarni tayyorlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy yondashuvlar, tarixiylik va xolislik tamoyillari asosida, umumjahon va mintaqaviy tarixiy jarayonlar bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq holda mintaqa tarixini, mintaqaning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan ko‘p tomonlama hissasini eng qadimgi davrlardan to hozirgi davrgacha chuqur o‘rganish[2] muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu bois, tarix fanini o‘qitishning pedagogik shart-sharoitlari va didaktik mexanizmlarini takomillashtirish, o‘quvchilarda tarixiy tahlil ko‘nikmalarining rivojlanganlik darajasini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini aniqlashni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi [11]farmonlari, 2020-yil 5-oktabrdagi PQ-6079-son “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[12], 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi,[13] 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [14] qarorlari hamda boshqa me’yoriy- huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 18-iyuldagi PQ-2562-sonli “O‘zbekiston tarixi sohasidagi tadqiqotlarni tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qonuni

I.BOB. UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARIDA TARIXIY TAHLIL KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1 §. Akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida

Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa uning tanqidiy fikrlash, tarixiy tafakkur va tahliliy ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida yosh avlodni nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Hozirgi globallashuv davrida yosh avlodni faqat bilim bilan emas, balki mustaqil fikrlash, tarixiy voqealarni chuqur tahlil qilish va ularga adolatli baho berish ko‘nikmalari bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bu jarayonda umuminsoniy qadriyatlar: tinchlik, bag‘rikenglik, adolat, insonparvarlik kabi tushunchalar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Akademik litsey o‘quvchilari o‘z fikrini mustaqil shakllantira oladigan, tarixiy jarayonlarga baho bera oladigan yoshlar bo‘lishi zarur. Biroq hozirgi kunda tarixiy bilimlar ko‘pincha faktologik darajada qolib, o‘quvchilarda tarixiy tahlil qilish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmayapti va umuminsoniy qadriyatlar bilan integratsiyasi yetarli emas.Shu sababli umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sanalib, tarixiy tahlil ko‘nikmalarini umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda shaxsning ma’naviy taraqqiyoti va bu boradagi ehtiyojlarini ta’minlash, ayniqsa, yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish, ma’naviy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, yoshlarning ijtimoiy faolligini ta’minlash, tashabbuskorligini yuksaltirish, intizomlilik, irodaviylik,

shaxsiy javobgarlik tuyg‘ularini shakllantirishning zarur huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi: “...yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish, ularni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash...”[3] ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. Bu esa yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi ishtirokini kuchaytirish, ta’lim olish tartibi, ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi[27]da yosh-avlod kadrlarini tayyorlash masalasiga to‘xtalar ekan: “yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlarni voyaga yetkazamiz” deb ta’kidlashida ham bugungi islohotlar jarayonida akademik litsey o‘quvchilarini umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda ularning intellektual salohiyati, yetuk kadr bo‘lib tarbiyalanishi davlat ahamiyati doirasida ekanligini bunga asos bo‘ladi[27].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib chiqqan holatda, pedagogik oliy-axloqiy qadriyatlar tizimini bo‘yicha pedagogik ijodni o‘rganish asosida, badiiy-ma'rifiy ishlarni ishlab chiqarish dasturlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini ta’minlash uchun zarur.

Ma’lumki, tarix faqat o‘tmishdagi voqea va xotiralardan iborat emas. Uning asosiy qudrati va tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u o‘tmishni o‘rganish va tahlil qilish orqali bugungi kunni baholash, hozirgi voqealarni tushunish, odamlarning xulq-atvorini anglash va ularni to‘g‘ri yo‘naltirish imkoniyatini beradi. Shu jihatlari bilan tarix inson tafakkurida fikrlar va g‘oyalarni mujassam etadi. Agar biz tarixga ana shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, uning butun ko‘lamini, insoniyat va jamiyat

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi 0 ‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni/ https://lex.uz/uz/docs/5793261

taraqqiyotidagi roʻlini chuqurroq anglaymiz.

N. Jurayevning fikricha, Tarix-bu oʻtgan ajdodlarimizning turmush tarzi, maʼnaviy-ruhiy kechinmalari, sodir etgan voqealari, maqsad va intilishlari haqida ilmiy fan [76]. Tarix faqat oʻtgan voqea va xotiralardan iborat emas. Uning haqiqiy qudrati va tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u oʻtgan hodisalarni oʻrganish va tahlil qilish orqali bugunni baholash, hozirgi voqealarni tushunish, insonlarni toʻgʻri yoʻnaltirish imkonini beradi. Tarixiy bilimlar orqali biz nafaqat oʻtmishning mohiyatini anglaymiz, balki insoniyat va jamiyat taraqqiyotidagi tarixning rolini chuqurroq tushunamiz.[76, 24-b.]. Demak, tarix fanining vazifasi oʻquvchilarga shunchaki faktlar va sanalarni yodlatish yoki roʻyxat qilishni oʻrgatishdan iborat emas. Aksincha, uning mazmunini egallash orqali oʻquvchilarni ijtimoiy hodisalarni mustaqil anglashga, mamlakatimiz rivojining barcha sohalarida faol va ijodiy ishtirok etishga tayyorlash zarur.

Mazkur vazifa tabiati boʻyicha oʻquvchilarning fikrlashini rivojlantirish, ular oʻrganayotgan voqea va zamonaviy jamiyat hodisalarini mustaqil tahlil qila olishini talab qiladi. Bunday boʻlmagan holatda, ularni toʻgʻri baholay olish va munosabatlarini zarur harakatlarga yoʻnaltira olish mumkin emas. Shu sababli, oʻquvchilarda tarixiy ong va dunyoqarashni shakllantirish tarix fanini oʻqitishning asosiy sharti va vositasi hisoblanadi. Tarix darslarida oʻquvchilarni tarixiy voqealarni toʻgʻri tushunishga, ularni anglab fikr yuritishga oʻrgatish ijtimoiy faol va masʼul fuqaroni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Tarixiy tahlil koʻnikmalari natijalari shuni koʻrsatdiki, akademik litseylarda “Oʻzbekiston tarixi” fanini oʻqitish tarixiy ong, tarixiy bilim, tarixiy xotira va tarixiy dunyoqarashning uygʻunligini taʼminlashga xizmat qilishi lozim.

Tarixiy tahlil koʻnikmalari ijtimoiy ongning muhim shakllaridan biri boʻlib, shaxsning anglash jarayoni natijasida namoyon boʻladi. Tarixiy ong tushunchasiga turli taʼriflar berilgan: masalan, “tarixiy ong-bu har qanday bilimda mavjud boʻlgan, hatto maʼnaviy borliq ham boʻlishi mumkin boʻlgan oʻtgan hodisalarni anglash” (Falsafa: qomusiy lugʻat). [156,190-6.]; tarixiy ong «ilgari sodir boʻlgan tarixiy voqealarni oʻzida aks ettirgan turli-tuman manbalar, ashyolar avloddan avlodga

meros sifatida o‘tib, tariximiz, madaniyatimizning uzluksizligini ta’minlaydi [132,7-b.]; tarixiy ong ijtimoiy ong shakli bo‘lib, jamiyat tomonidan o‘zining kelib chiqishi va zamondagi o‘rni, o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagi o‘rtasidagi aloqadorlikning anglanishi hamda tahlil ko‘nikmalarini ijtimoiy voqelikning obyektiv idrok etilishidir [35,83-6.]; ilm-fanda tarixiy ong deganda odatda ijtimoiy guruhlar, sinflar, xalqlar, millatlarda o‘zining kelib chiqishi, o‘z tarixidagi muhim voqealar va o‘tmishdagi buyuk arboblar haqida o‘z tarixining boshqa kishilik jamoalari va umuman bashariyat hamjamiyati tarixi bilan nisbati haqidagi qarashlar, an’analar, udumlar, odatlar, konsepsiyalar mujassami tushuniladi” [36,12-6.]; Tarixiy tahlil ko‘nikmalari-bu o‘tgan voqealarni, uning jamiyatga, xususan turli ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-professional, etnoijtimoiy, etnokonfessional guruhlarga hamda alohida individlarga xos bo‘lgan butun rang-barangligini hisobga olgan holda baholash amaliyotidir.

Tarixiy tahlil ko‘nikmalari jamiyat, uning ijtimoiy guruhlari va individlarning o‘z o‘tganlari, shuningdek, butun insoniyat o‘tganiga oid tasavvurlar yig‘indisidan iboratdir.Tarixiy ongda o‘tgan, bugun va kelajak uyg‘unlikda aks etadi.[138,12-6.].

D.Abdullajonovaning fikricha, tarixiy ong va tarixiy tahlil ko‘nikmalari tushunchasiga berilgan xilma-xil ta’riflardan kelib chiqqan uni umuman jamiyat, xususan, turli ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-professional va etnoijtimoiy guruhlar, shuningdek, alohida kishilarga xos bo‘lgan va o‘tmishni butun turfa xilligida aks ettiruvchi, baholovchi g‘oyalar, qarashlar, tasavvurlar, hissiyotlar, kayfiyatlar majmui sifatida tushunish bahslidir: birinchidan, shaxs tarixiy ongida o‘tmishni aks ettiruvchi g‘oyalar, qarashlar, individ rivojlanishining muayan bosqichi bilan bog‘liqligini, hamma vaqt ham bunday sifatiy holat kasb etmasligini ta’kidlash zarur; ikkinchidan, tarixiy ongda “o‘tmishni turfa xilligida aks ettirish” uchun tarixiy xotiraning muhim unsuri bo‘lgan tarixiy ong va dunyoqarash ishlashi kerak. Shundan keyingina, tarixiy faktlarning bir tizimga solinishi va muayan yaxlit tasavvurning paydo bo‘lishi, tarixiy ong o‘tmishni aks ettiruvchi g‘oyalar, qarashlar bilan boyishi mumkin[37,23-b.].

A.X.Samiyev “Tarixiy tahlil ko‘nikmalari bu inson (ijtimoiy guruh, jamiyat)

tomonidan o‘zining zamondagi o‘rni, o‘tmishning bugungi kun va kelajak bilan aloqadorligining o‘zlashtirilishidir. Bu istiqbol uchun muhim bo‘lgan o‘tmishga qaratilganlikdir”, - degan fikrni bildiradi[121,34-6.]. Demak, tarixiy ong alohida olingan shaxs, ijtimoiy guruh va etnoslarning zamondagi o‘rni, o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagi, tarixiy tahlil ko‘nikmalari o‘rtasidagi aloqadorlikni anglashining in’ikosi hisoblanadi.Tarixiy tahlil tushunchasi tarixiy tasavvurlar asosida yuzaga kelib, mazkur jarayonda tarixiy dalillar muhim o‘rin tutadi. Tarixiy dalil kategoriyasi tarix fani tadqiqotchilari oldidagi eng muhim o‘lchov, ilmiy mezon hisoblanadi. Zotan, tarixiy dalilsiz tarix haqidagi tasavvurlar mavhum va fikrlar isbotsizdir.

E.Karr xulosalariga ko‘ra, har qanday voqea emas, balki tarixiy ahamiyatlilarigina tarixiy dalil bo‘lishi mumkin.Tadqiqotchi o‘zi o‘rganayotgan davr to‘g‘risidagi ma’lumotlarning maksimal miqdorini bilishi va ularga ega bo‘lishi lozim. Ikkovi o‘z hukmiga ega bo‘lmogi kerak. Tarixchi xolislikka, dalil esa voqelikning asosi sifatida isbotlanganlikka ega bo‘lmogi darkor. Ana shunda kuchlar nisbati teng bo‘ladi, bir-birini nazorat qiladi, natijada xolis xulosa vujudga keladi. Karr bunday holatni nazarda tutib, “Tarix - bu tarixchi va dalilning o‘zaro aloqasiga bog‘liq bo‘lgan uzluksiz jarayon bo‘lib, u o‘tmishish va bugun o‘rtasidagi tuganmas mulokotdir”, -deydi[80,204-b.].

O‘quvchi tarixiy voqea-hodisa haqida o‘z fikrini (ijobiy yoki salbiy) bildirar ekan, tarixni tadqiq etuvchi sifatida ma’lum bir dalilga asoslanadi. Tarixiy dalilni bilish unga voqeani tahlil qilish, o‘z xulosasini aytishga imkon beradi. O‘quvchi tarixiy dalilni darslikda berilgan ma’lumotlar, manbalar (qoyatosh yozuvlari, tarixchilarning asarlari, afsona, rivoyatlar)dan keltirilgan parchalardan oladi. Biroq ana shu manbalar ustida ishlash o‘quvchidan alohida tayyorgarlikni, o‘ziga xos qobiliyat va ko‘nikmani taqozo etadi. Shuning uchun, avvalo, ularda manbalarning ahamiyati to‘g‘risidagi tasavvurni hosil qilish zarur, ya’ni har qanday tarixiy manba, qay darajaligidan qat’iy nazar, ulkan tarixiy yodgorlik hisoblanadi va o‘z davrining mohiyatini aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, manba o‘zida tarixiy, ijtimoiy,

siyosiy, ma’naviy voqelikni mujassam etadi. Zotan, har qanday manba o‘z davrining mazmuni va hukmron g‘oyalari mohiyatining ko‘zgusidir.

Shu bilan birga o‘quvchilarda haqiqiy hayot hamisha har qanday dalil, hujjat yoki manbadan ko‘ra kengroq mazmunga ega bo‘lishi haqidagi nuqtayi nazarni qaror toptirish lozim. O‘quvchi manba bilan ishlash jarayonida mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayon, uning oqibatida yuzaga kelgan voqeliklar hamda uning mantig‘i, mazmuni va mohiyati manbadan ko‘ra kengrok ekanligini nazarda tutib, uning qanchalik to‘liq bo‘lmasin, nisbiy ekanligini unutmaslikka o‘rgatilishi lozim. Tarixiy ongni shakllantirishning muhim ko‘rinishi o‘quvchilar tomonidan tarixiy tushunchalarni o‘zlashtirishda namoyon bo‘ladi.

K. Shonazarovning fikricha, tarixiy tushunchalar tarixiy ong va dunyoqarash manbaidir[165,24-6.].

A. Mavrulovning fikricha, tarixni, uning porloq, yorqin kunlari bilan birga zulmat va mustamlakachilik, ayriliq va yo‘qotishlardan iborat davrlarini ham bilishimiz bizni turli balo-qazolardan asraydi, sergaklikka undaydi. Erishilgan yutuqlarni, porloq kunlarni eslash va faqat ulardan g‘ururlanishning o‘zi yetarli emas. Ayni paytda tariximizning qorong‘i kunlarini ham esdan chiqarmaslik tarixiy xotira uchun o‘ta zarurdir[94,56-6.]. Tarixiy ong va xotiraning umumlashgan ko‘rinishi tarixiy bilim tarzida namoyon bo‘ladi.

N. Jurayevning fikricha, tarixni anglash tarixiy bilim manbalariga qiziqishdan, uni o‘rganishdan boshlanadi[80,193-6.]. Olim o‘z fikrini davom ettirib, har qanday anglash jarayoni, tasavvurlar va tafakkur debochasi ekan, ayni paytda tarixiy bilimga ehtiyoj insonning o‘ziga, kelib chiqishiga, insoniyat taqdiri va tarixiga qiziqishning mavjudligidan ekanligiga shubha qolmaydi [80,194-6.], deb ta’kidlab o‘tadi.

A. Erkayevning ta’kidlashicha, dunyoqarash ongga juda yaqin, lekin unga nisbatan ancha tor tushuncha. Dunyoqarash shaxs, ijtimoiy guruh, sinf yoki muayan davr jamiyatining olam, inson, jamiyat, taraqqiyot to‘g‘risidagi eng umumiy va sobit tasavvur, g‘oya va baholari; tushuncha; qarash; nazariya; e’tiqod, ijtimoiy mo‘ljal va ideallaridir. Dunyoqarashga o‘tkinchi va ikkinchi darajali narsalar xos emas.

Umumiyligi va sobitligi bilan dunyoqarash ongdan fark qiladi va ongning yadrosini tashkil etadi. Dunyoqarash murakkab hodisaligi tufayli ko‘p hollarda ziddiyatli bo‘ladi, chunki bir vaqtning o‘zida unga ilmiy, noilmiy, to‘gri yoki xato tushunchalar, e’tiqodlar kirishi mumkin[54,118-6.].

S.Sh. Shermuxammedovning fikricha, insonning bilimlari, e’tiqodi, hayotiy mo‘ljallari, uni o‘rab olgan ijtimoiy muhit uning dunyoqarashi shakllanishiga ta’sir etadi. Dunyoqarash inson faoliyatining maqsad va yo‘nalishlarini, uning jamiyatdagi pozitsiyasi va mavqeini belgilab beradi. Ijtimoiy guruhning o‘ziga xos dunyoqarashi bo‘ladi. Hozir mustaqil O‘zbekistonda shakllanayotgan dunyoqarash xalqimizning tarixi, manfaatlari, istiqbolini bilish bilan bog‘liqdir[162,18-6.].

Sh.S.Shodmonovaning fikricha, dunyoqarash xalqning tarixi, manfaatlari va kelajagini tasavvur qilish, tushunish, o‘tmishni o‘rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash asosida o‘tmish va kelajak haqida xulosalar chiqarish bilan bog‘liq. Mazkur jarayonda ta’lim oluvchilarning refleksiv faoliyatini tashkil etish, ya’ni o‘tmishni o‘rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash muhim ahamiyatga ega[163,139-6]. Tarixiy dunyoqarash esa kishilik o‘tmishi bilan bog‘liq bo‘lgan, uni o‘rganish jarayonida yuzaga kelgan qarashlar tizimidir. Tarixiy dunyoqarash ijtimoiy fikr orqali ijtimoiy hayot va jamiyat tarixiy taraqqiyoti, uning bosqichlari haqidagi tasavvurlar asosida vujudga keladi.[66]

Shu o‘rinda akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish tushunchasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tushuncha o‘quvchilarning tarixiy voqealarni chuqur o‘rganish, ularni turli manbalar asosida tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatlarini shakllantirishni anglatadi. Aynan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda tarixni o‘rganish o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki tarixiy tafakkur, milliy o‘zlikni anglash va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantiradi. Bugungi kunda yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish, ularni tarixiy tafakkurga ega, mustaqil fikrlaydigan shaxslar qilib tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu jarayon samarali kechishi uchun yoshlarning bilimga intilishini kuchaytirish, siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirish, tarbiyaviy tadbirlarni tizimli

tashkil etish, boy madaniy merosdan keng foydalanish hamda ularning kasbiy va amaliy tayyorgarligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy xolislik tarix fanining eng muhim tamoyillaridan biri bo‘lib, u voqea va hodisalarni haqqoniy, adolatli hamda obyektiv tarzda baholashni anglatadi. Bu yondashuv tarixiy jarayonlarni tor milliy manfaatlar yoki subyektiv qarashlar doirasida emas, balki kengroq – insoniyat taraqqiyoti nuqtai nazaridan tahlil qilishni talab etadi. Tarixiy xolislikni ta’minlash uchun tadqiqotchi yoki o‘quvchi turli manbalarni solishtirishi, ularni tanqidiy o‘rganishi va bir tomonlama xulosalardan qochishi zarur. Mazkur tamoyil tarixiy voqealarni baholashda hissiyotga berilmasdan, aniq dalillar va ishonchli manbalarga tayanishni talab qiladi. Chunki tarixiy jarayonlar ko‘pincha murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, ularni bir yoqlama talqin qilish noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Shu bois tarixiy xolislik o‘tmishni to‘g‘ri anglash, undan saboq chiqarish va bugungi kun hamda kelajak taraqqiyoti uchun xolis xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida tarixiy xolislikka alohida e’tibor qaratish lozim. Bu ularda mustaqil fikrlash, voqealarga turli nuqtayi nazardan qaray olish va asosli xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada o‘quvchilar tarixni chuqur anglaydigan, xolis baho bera oladigan va ongli fuqarolar sifatida shakllanadilar.

Akademik litsey o‘quvchilarida qadriyatlar integratsiyasi – bu milliy merosni umuminsoniy axloqiy tamoyillar bilan uyg‘un holda tahlil qilish va baholash jarayonini anglatadi. Ushbu yondashuvda milliy qadriyatlar alohida holda emas, balki butun insoniyat tomonidan tan olingan axloqiy me’yorlar bilan bog‘liq tarzda o‘rganiladi. Natijada milliy an’analar, urf-odatlar va madaniy meros insonparvarlik, adolat, halollik, bag‘rikenglik kabi umumiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda talqin etiladi.

Qadriyatlar integratsiyasi jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi, chunki u milliy o‘zlikni saqlab qolgan holda, global madaniy makon bilan hamohang rivojlanishga xizmat qiladi. Bu jarayon yosh avlodda keng dunyoqarash, boshqalarga

hurmat bilan qarash va turli madaniyatlarni tushunish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, ta’lim jarayonida ushbu yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki ma’naviy-axloqiy kamolotini ham ta’minlaydi. Shuningdek, qadriyatlar integratsiyasi tarixiy voqealarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Chunki har bir tarixiy hodisa o‘z davrining milliy xususiyatlari bilan birga, umumiy insoniy qadriyatlar bilan ham bog‘liq holda rivojlanadi. Shu bois bu yondashuv asosida tahlil qilish o‘quvchilarda tarixiy tafakkur, xolis baholash va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Akademik litsey o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash tarixiy manbalarni o‘rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘quvchining axborotni shunchaki qabul qilish emas, balki uni chuqur tahlil qilish, solishtirish va baholash qobiliyatini anglatadi. Bu jarayonda tarixiy manbalar mazmuni, ularning ishonchliligi, muallifning qarashlari va maqsadi sinchiklab o‘rganiladi. Ayniqsa, manbalarda aks etgan g‘oyalar va hodisalarning insonparvarlik tamoyillariga qanchalik mos kelishi muhim mezon sifatida baholanadi. Tanqidiy fikrlash orqali o‘quvchilar tarixiy voqealarni bir yoqlama emas, balki turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga o‘rganadilar. Ular tarixiy shaxslar faoliyatini baholashda adolat, inson huquqlari, bag‘rikenglik va ijtimoiy tenglik kabi umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadilar. Bu esa ularning xolis va asosli xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, dalillarga tayanish va turli fikrlarni tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi. Natijada ular tarixiy manbalarni ongli ravishda o‘rganadigan, insonparvarlik mezonlariga asoslanib baho beradigan va zamonaviy jamiyat talablariga mos fikrlovchi shaxslar sifatida shakllanadilar.

1.2 §.Akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Akademik litsey o‘quvchilari tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali intellektual salohiyatlarini tezkor ravishda oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, shuningdek, ularning bilimlari chuqur, tizimli va kasb-hunarga yo‘naltirilgan tarzda shakllantiriladi. Litsey o‘quvchilari o‘zlari tanlagan yo‘nalish – gumanitar, texnika,

agrar yoki boshqa sohalar bo‘yicha – bilimlarni yanada samarali egallash va fanlarni chuqur o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, akademik litsey bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan diplom beriladi, bu ularga ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish yoki o‘z ixtisosligi bo‘yicha ish faoliyatini boshlash imkoniyatini yaratadi. [155,168-6.].

Akademik litseylarning faoliyatini ular joylashgan hududning demografik, iktisodiy va boshqa omillarini hamda bitiruvchilarning oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish natijalari nuqtai nazaridan olib borilgan tahlillar bu sohadagi ishlarning qoniqarli emasligini ko‘rsatmoqda. Hozirgi paytga kelib akademik litseylar sonini optimallashtirish [20], ulardagi ta’lim sifatini oshirish va mazmunini yangilash, ularni bitirib chiqayotgan yoshlarning oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish ko‘rsatkichlarini tubdan yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Mazkur sohadagi mavjud muammolarni hal etish hamda akademik litseylarda o‘quv jarayoni sifat va samaradorligini tubdan oshirish, akademik litseylarda umumta’lim maktablarining eng qobiliyatli bitiruvchilarini jamlash, umumta’lim maktablari bitiruvchilarining tanlangan kasblar va mutaxassisliklarni egallab olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori[28] qabul qilindi. Mazkur qarorning 2-bandida akademik litseylarning muhim vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari belgilab berildi: umumta’lim maktablarining eng iste’dodli o‘kuvchilarini tanlash, ularning intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirish va o‘qishni oliy ta’lim muassasalarida davom ettirishga maqsadli chuqur tayyorlash; o‘quvchilarning ijodiy salohiyati namoyon bo‘lishi va faollashishiga ko‘maklashuvchi, individual iste’dodlarni va har bir o‘quvchining qobiliyatlari hamda xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni egallab olish jarayonida mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish; ilg‘or mahalliy va xorijiy ta’lim muassasalarining tajribasini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish va uning

mazmunini doimiy ravishda yangilab borish. Ma’lumki, xorijda tarix ta’limi uch, ya’ni Yevropa, Amerika va Osiyo modellari asosida olib boriladi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar strategiyasi nafaqat milliy qadriyatlar, tajriba va an’analarni, balki ilg‘or xorijiy tajribani ham hisobga olgan holda shakllantirilmoqda. Milliy ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida O‘zbekiston boshqa davlatlarning yutuqlarini o‘rganib, ulardan ijodiy foydalanishga intilmoqda. O‘zbekiston tarixi fani yoshlarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning mohiyati va natijalarini, milliy va huquqiy davlat barpo etish, demokratik va fuqarolik jamiyati qurish, shuningdek, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini rivojlantirish jarayonlarini tushuntiradi. Shu bilan birga, u yoshlarda ilmiy dunyoqarash, siyosiy madaniyatni shakllantirib, jamiyatda o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilashga yordam beradi. Eng muhimi, bu fan orqali davlatning turli sohalardagi islohotlarining mazmuni va mohiyati chuqur anglab yetiladi. Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2015-yil 12-yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi tashkiliy yig‘ilishida yoshlarni tarix saboqlari va tarixiy haqiqat bilan qurollantirish zarurligini ta’kidlab: “Tarixni unutgan xalq va jamiyat o‘z yo‘lini yo‘qotadi. Bunday xalq va jamiyatning kelajagi yo‘q” [100], deb alohida e’tibor qaratgan edi.


Bu masalaga 2016-yil 7-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag‘ishlangan tadbirda so‘zlagan nutqida alohida e’tibor qaratgan. Prezident yoshlar tarbiyasining muhimligini ta’kidlab, ularni “boshqalarning qo‘liga bermasdan, o‘zimiz tarbiyalashimiz kerakligini” bildirgan. Shu maqsadda yoshlar bilan ko‘proq muloqot qilish, ularning fikrini tinglash, dard va muammolarini tushunish hamda ularga amaliy yordam ko‘rsatish zarurligi qayd etilgan. Bu vazifalarni bajarishda esa milliy an’analarimiz va ajdodlarimizning boy tarixidan ilhom olish lozimligi ta’kidlangan. [2,23-b.] va 2016-yil 14-dekabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida ham: «Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech ogishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga kutaramiz.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatiga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etadi”[4,14-b.] - deb, yoshlarga e’tiborni kuchaytirishga qaratilgan da’vatlarini va unga monand ravishda:«Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan farzandlarimizni amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug‘ ajdodlarimiz nima deb yozganlar: «Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota- onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq”[5, 22-6.] - degan fikrlarini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Hozirgi kunda barcha sohalarda kuzatilayotgan globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortib borishi hamda uzluksiz ta’lim tizimining rivojlanishi akademik litsey o‘quvchilarida keng ilmiy dunyoqarashni shakllantirishni talab etmoqda. Shu bilan birga, ularni erkin, tanqidiy va global fikrlashga o‘rgatishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quv fanlari mazmunining yangilanib borishi, ta’limni tashkil etishda zamonaviy shakl, metod va texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, mustaqillikdan oldingi davrda tarix fanini o‘qitishda asosan sinfiylik va mafkuraviy yondashuv ustun bo‘lib, tarixiy voqealar bir tomonlama talqin qilinganini ham alohida qayd etish lozim. [95, 4-b.].

Akademik litseylarda tarix fanini o‘rganishning asosiy vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘quvchilarda tarixiy voqea va hodisalar asosida “Tarix-xalq ma’naviyatining poydevori” ekanligi va tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q ekanligini singdirish; shuningdek, har bir xalq o‘z tarixini turli ta’sir va tajovuzlardan himoya qilishi zarurligini anglatish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash.

Bizning fikrimizcha, umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyat uchun umumiy bo‘lgan axloqiy, ijtimoiy va madaniy me’yorlar majmuasi hisoblanib, tinchlik va hamkorlik, adolat va tenglik, erkinlik va inson huquqlari, bag‘rikenglik, insonparvarlik kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi va akademik litsey o‘quvchilarida quyidagi xususiyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi:




1.2-rasm. Umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish xususiyatlari

Akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishda metodologik yondashuvlar muhim nazariy asos hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar ta’lim jarayonining mazmuni, shakli va usullarini belgilab berib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tarixiy voqealarni chuqur anglash hamda ularni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va tarix ta’limining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi, turli mafkuraviy ta’sirlar kuchayib borayotgan sharoitda yosh avlodni tarixiy ong, mustaqil fikrlash, voqea-hodisalarga xolis va asosli munosabat bildirish ruhida tarbiyalash zarurati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, akademik litsey o‘quvchilarining yosh va intellektual xususiyatlari ularning tarixiy tafakkurini rivojlantirish, tarixiy jarayonlarni sabab-oqibat bog‘liqligida anglash, tarixiy manbalarni tahlil qilish va ulardan xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun qulay pedagogik imkoniyat yaratadi. Shu bois biz tadqiqot ishimizda akademik

litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmlarini rivojlantirish uchun quyidagicha metodologik yondashuvlarni o‘rganishni lozim deb topdik:



1.3-rasm. Umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodologik yondashuvlari

Tarix ta’limida kompetensiyaviy yondashuvni umuminsoniy qadriyatlar asosida tashkil etish o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki ularning ijtimoiy, fuqarolik, axloqiy va tahliliy sifatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy mohiyati shundaki, u ta’lim jarayonini tayyor bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklab qo‘ymaydi, balki o‘quvchini hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan, o‘z fikrini asoslaydigan, o‘rgangan bilimlarini amalda qo‘llay biladigan shaxs sifatida shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Bizningcha, tarixiy tahlil ko‘nikmasi o‘quvchining tarixiy voqea, hodisa, jarayon va shaxslar faoliyatini oddiy tasvirlash bilan cheklanmay, ularni ilmiy mantiq asosida o‘rganishi, ichki bog‘lanishlarini aniqlashi, sabab va oqibatlarini tushuntirishi, tarixiy manbalarga tayanib baholashi hamda mustaqil xulosaga kelish qobiliyatidir.

Tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishda tarixiy manbalar bilan ishlash alohida ahamiyatga ega. Kompetensiyaviy yondashuv manba asosida o‘qitishni kuchaytiradi, chunki tarixiy tafakkur aynan dalil va manba bilan ishlash jarayonida shakllanadi. O‘quvchilarga yozma hujjatlar, tarixiy xotiralar, xaritalar, statistik

jadvallar, fotosuratlar, arxiv materiallari, turli davrga oid qarashlarni ifodalovchi matnlar taqdim etilganda, ular bu materiallarni tahlil qilish, solishtirish, ishonchliligini baholash, muallif nuqtayi nazarini aniqlash, tarixiy haqiqatni anglashga intiladi. Bu jarayon o‘quvchida axborot bilan ishlash kompetensiyasini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, bugungi axborot makonida soxta ma’lumotlar, biryoqlama talqinlar, tarixni siyosiylashtirish holatlari mavjud ekan, akademik litsey o‘quvchilarini tarixiy manbalarga tanqidiy yondashishga o‘rgatish juda muhimdir. Umuminsoniy qadriyatlar asosida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishda dars mazmunini to‘g‘ri tanlash ham katta ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish faqat bilim berish orqali amalga oshmaydi. Bu jarayon uchun ma’lum pedagogik shart-sharoitlar zarur bo‘ladi. Avvalo, darslarda erkin fikr muhitini yaratish kerak. O‘quvchi xato qilishdan qo‘rqmasdan fikr bildira olishi, savol bera olishi, bahsda ishtirok eta olishi kerak. Ikkinchidan, o‘quv materiallari muammoli va tahliliy xarakterga ega bo‘lishi zarur. Uchinchidan, baholash tizimi ham mos ravishda o‘zgarishi kerak, ya’ni faqat tayyor javobni emas, balki fikr yuritish jarayoni, dalillash, mustaqil xulosa, manba bilan ishlash sifati ham inobatga olinishi lozim. To‘rtinchidan, o‘qituvchi o‘zi ham tarixiy tafakkur, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va qadriyatga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarini chuqur egallagan bo‘lishi kerak.

Tarixiy tahlil ko‘nikmalarini umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlantirishning yana bir muhim jihati shundaki, bu yondashuv yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytiradi. Tarixiy voqealarni xolis va daliliy tahlil qila olgan o‘quvchi turli biryoqlama talqinlar, yolg‘on targ‘ibotlar, tarixni buzib ko‘rsatishga qaratilgan qarashlarga tanqidiy yondasha oladi. Ayniqsa, milliy tarixni umuminsoniy taraqqiyot bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish, o‘z xalqining tarixiy tajribasini boshqa xalqlar tajribasi bilan solishtirish, milliy g‘urur bilan birga ochiq fikrlilik va bag‘rikenglikni tarbiyalash bugungi davr uchun nihoyatda muhimdir. Bu holat yoshlarni tor millatchilikdan ham, tarixiy befarqlikdan ham asraydi. Natijada

ular o‘z milliy identitetini saqlagan holda jahon sivilizatsiyasi yutuqlariga hurmat bilan qaraydigan komil shaxslar bo‘lib shakllanadilar.

Umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv muhim metodologik asoslardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy ta’lim paradigmasi o‘quvchini passiv bilim oluvchi emas, balki faol, mustaqil fikrlovchi, o‘z bilimini amaliy faoliyatda qo‘llay oladigan subyekt sifatida shakllantirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv tarix ta’limining mazmuni, metodlari va natijalarini tubdan yangilashga xizmat qiladi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvning mohiyati shundan iboratki, unda bilim o‘zlashtirish jarayoni tayyor ma’lumotlarni qabul qilish orqali emas, balki o‘quvchining faol ishtiroki, amaliy harakatlari, mustaqil izlanishi va tahliliy faoliyati orqali amalga oshiriladi. Bu yondashuvga ko‘ra har qanday bilim faqat faoliyat jarayonida mazmun kasb etadi va mustahkam o‘zlashtiriladi. Tarix fanida bu jarayon tarixiy voqealarni oddiy bayon qilishdan ko‘ra ularni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish, tarixiy manbalar bilan ishlash, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish orqali amalga oshiriladi. Akademik litsey o‘quvchilari uchun faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv, ayniqsa, muhimdir, chunki bu bosqichda o‘quvchilarning abstrakt tafakkuri, mantiqiy fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati faol rivojlanadi. Ular murakkab tarixiy jarayonlarni anglash, sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash, turli tarixiy talqinlarni solishtirish va asosli xulosalar chiqarishga qodir bo‘lib boradi. Faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim aynan shu imkoniyatlardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish tarix ta’limining tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik, adolat, tinchlik, bag‘rikenglik, erkinlik, hamkorlik kabi tushunchalar tarixiy tahlil jarayonida baholash mezoni sifatida xizmat qiladi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv esa bu qadriyatlarni o‘quvchilarga tayyor holda berish emas, balki ularni faol muhokama, tahlil va bahs orqali anglash imkonini yaratadi. Natijada o‘quvchi tarixiy voqealarga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantiradi va ularni qadriyatlar nuqtayi nazaridan baholay boshlaydi. Faoliyatga

yo‘naltirilgan yondashuv tarixiy tahlil ko‘nikmalarining barcha komponentlarini kompleks rivojlantiradi. Kognitiv komponent faol o‘rganish orqali mustahkamlanadi, tahliliy komponent muammoli vaziyatlar orqali rivojlanadi, aksiologik komponent qadriyatlar asosida baholash orqali shakllanadi, refleksiv komponent esa o‘z faoliyatini tahlil qilish va xulosa chiqarish jarayonida yuzaga keladi. Shunday qilib, bu yondashuv tarixiy tafakkurni tizimli ravishda shakllantiradi. Mazkur yondashuv o‘qituvchining pedagogik faoliyatini ham yangi bosqichga olib chiqadi. O‘qituvchi bilim beruvchi emas, balki o‘quv faoliyatini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi shaxsga aylanadi. U darsni shunday tashkil etishi kerakki, o‘quvchi faol fikrlashga, savol berishga, izlanishga majbur bo‘lsin. Bu esa o‘qituvchidan yuqori darajadagi metodik mahorat, kreativlik va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bilishni talab etadi.

Umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishda muammoli ta’lim yondashuvi zamonaviy tarix ta’limining samarali pedagogik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa o‘quvchilarga tayyor bilimlarni berishdan ko‘ra, ularni mustaqil fikrlovchi, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan, tarixiy jarayonlarga ongli va asosli munosabat bildiradigan shaxs sifatida shakllantirishdir. Shu nuqtayi nazardan muammoli ta’lim yondashuvi tarix fanining mazmuni va o‘qitish metodikasiga chuqur singdirilishi zarur.

Muammoli ta’lim yondashuvi o‘quv jarayonini muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish bo‘lib, unda o‘quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilimni izlovchi, tahlil qiluvchi va xulosa chiqaruvchi subyektga aylanadi. Ushbu yondashuvda bilim muammo orqali yuzaga keladi va o‘quvchi uni hal qilish jarayonida faol fikrlaydi, izlanadi, turli variantlarni solishtiradi hamda asosli xulosaga keladi. Tarix fanida bu jarayon ayniqsa muhim, chunki tarixiy voqealar ko‘pincha murakkab, ko‘p omilli va turli talqinlarga ega bo‘ladi. Bizningcha, muammoli ta’lim jarayonida tarixiy manbalar bilan ishlash alohida o‘rin tutadi. O‘quvchilar turli manbalarni o‘rganib, ular asosida muammoni hal qilishga harakat qiladi. Masalan, bir xil tarixiy voqea turli manbalarda turlicha yoritilgan bo‘lsa, o‘quvchi ularni

taqqoslaydi, muallif nuqtayi nazarini aniqlaydi va qaysi manba ishonchliroq ekanini asoslashga harakat qiladi. Bu jarayon tarixiy tafakkur va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Muammoli ta’limning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. O‘qituvchi muammoli vaziyatni to‘g‘ri tanlashi, savollarni aniq va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda qo‘yishi, o‘quvchilar faoliyatini boshqarishi va ularni to‘g‘ri yo‘naltirishi zarur. Shuningdek, darsda erkin fikr muhitini yaratish, o‘quvchilarning tashabbusini qo‘llab-quvvatlash ham muhimdir. Muammoli ta’lim yondashuvi umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, tahliliy qobiliyatini, tarixiy voqealarga ongli va asosli munosabatini rivojlantiradi. Eng muhimi, u tarix ta’limini nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi, ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiruvchi tizimga aylantiradi.

Umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida tizimli yondashuv muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan ta’lim jarayoni murakkab, ko‘p komponentli tizim sifatida qaraladi. Shu sababli tarixiy tafakkurni rivojlantirish ham alohida elementlar orqali emas, balki o‘zaro bog‘liq komponentlar tizimi orqali amalga oshirilishi zarur. Tizimli yondashuv aynan ana shu yaxlitlikni ta’minlaydi. Tizimli yondashuvning mohiyati shundan iboratki, u ta’lim jarayonini maqsad, mazmun, metod, vosita va natijalarning o‘zaro uzviy bog‘liqligida tashkil etishni nazarda tutadi. Bunda tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish tasodifiy yoki epizodik faoliyat emas, balki aniq rejalashtirilgan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan, ichki mantiqqa ega pedagogik tizim sifatida qaraladi. Ayniqsa, akademik litsey bosqichida bu yondashuv muhim, chunki o‘quvchilarning tafakkuri tizimli ravishda shakllanib boradi. Mazkur yondashuvni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish tarix ta’limining nafaqat bilish, balki tarbiyaviy funksiyasini ham kuchaytiradi. Umuminsoniy qadriyatlar, adolat, erkinlik, tinchlik, bag‘rikenglik, inson huquqlari kabi tushunchalar tizimning aksiologik asosini tashkil etadi. Bu qadriyatlar tarixiy materialni tanlashda, uni tahlil qilishda va baholashda asosiy

mezon sifatida xizmat qiladi. Natijada o‘quvchilar tarixiy voqealarni nafaqat faktlar nuqtayi nazaridan, balki qadriyatlar asosida ham anglay boshlaydi. Tizimli yondashuv tarixiy tahlil ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Dastlabki bosqichda o‘quvchilar tarixiy faktlarni tushunadi va tasniflaydi. Keyingi bosqichda ular sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlaydi va voqealarni tahlil qiladi. So‘ngra ular tarixiy hodisalarga baho beradi va turli nuqtayi nazarlarni solishtiradi. Yakuniy bosqichda esa mustaqil xulosa chiqarish va tarixiy bilimni zamonaviy hayot bilan bog‘lash ko‘nikmasi shakllanadi. Tizimli yondashuv o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining uyg‘unligini ham ta’minlaydi. O‘qituvchi darsni tizimli rejalashtiradi, metodlarni to‘g‘ri tanlaydi va o‘quvchilar faoliyatini boshqaradi. O‘quvchi esa faol ishtirok etadi, mustaqil fikrlaydi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Bu o‘zaro hamkorlik ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Umuminsoniy qadriyatlar tizimli yondashuvda barcha komponentlarni birlashtiruvchi asos sifatida namoyon bo‘ladi. Tarixiy materialni tanlashdan tortib, uni tahlil qilish va baholashgacha bo‘lgan barcha jarayonlar ushbu qadriyatlarga tayanadi. Bu esa o‘quvchilarda nafaqat tarixiy tafakkur, balki ma’naviy-axloqiy ongni ham shakllantiradi.

Umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv zamonaviy ta’lim paradigmasining markaziy tamoyillaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonining markaziga o‘quvchining shaxsini qo‘yadi va uni individual xususiyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari hamda intellektual salohiyatini hisobga olgan holda rivojlantirishni nazarda tutadi. Tarix ta’limida bu yondashuv o‘quvchini passiv bilim oluvchi emas, balki faol, mustaqil fikrlovchi va tarixiy jarayonlarga shaxsiy munosabat bildira oladigan subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning mohiyati shundan iboratki, unda ta’lim mazmuni va metodlari o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga moslashtiriladi. Har bir o‘quvchi tarixiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘zining individual tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlariga tayanadi. Shu sababli tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida o‘quvchining shaxsiy

fikri, qarashi va bahosiga alohida e’tibor qaratiladi. Bu esa o‘quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Mazkur yondashuvni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish tarix ta’limining tarbiyaviy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Umuminsoniy qadriyatlar adolat, erkinlik, tinchlik, bag‘rikenglik, inson qadr-qimmati kabi tushunchalar o‘quvchilarning shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvda bu qadriyatlar o‘quvchilarga tayyor holda berilmaydi, balki ular tarixiy voqealarni tahlil qilish jarayonida mustaqil ravishda anglanadi. Natijada o‘quvchi tarixiy materialga nisbatan shaxsiy, ongli va mas’uliyatli munosabat bildiradi. Akademik litsey o‘quvchilari uchun shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ayniqsa muhim, chunki bu davrda ularning shaxsiy identiteti, dunyoqarashi va ijtimoiy pozitsiyasi shakllanadi. Tarix fani esa bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi, chunki u o‘tmish tajribasi orqali bugungi hayotni anglash va kelajakni tasavvur qilish imkonini beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchilarga tarixiy voqealarni faqat bilish emas, balki ularni his etish, tushunish va baholash imkonini yaratadi.

Umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishda integrativ yondashuv zamonaviy ta’limning muhim metodologik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Integrativ yondashuv ta’lim mazmunini turli fanlar, bilim sohalari va qadriyatlar tizimi asosida o‘zaro bog‘liq holda tashkil etishni nazarda tutadi. Integrativ yondashuvning mohiyati shundan iboratki, u bilimlarni parchalangan holda emas, balki yaxlit tizim sifatida shakllantiradi. Tarixiy jarayonlar iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, geografiya va ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli, ularni integratsiya asosida o‘rganish o‘quvchilarda chuqur va tizimli tarixiy tafakkurni rivojlantiradi. Ayniqsa, bu yondashuv umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashganda, tarixiy bilimlar nafaqat intellektual, balki ma’naviy ahamiyat kasb etadi. Akademik litsey o‘quvchilari uchun integrativ yondashuv muhim, chunki bu bosqichda ularning dunyoqarashi kengayadi va ular turli bilim sohalarini o‘zaro bog‘lashga qodir bo‘ladi. Integratsiya orqali tarixiy voqealar turli nuqtayi nazardan

tahlil qilinadi, bu esa o‘quvchilarda kompleks fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Integrativ yondashuv asosida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishda umuminsoniy qadriyatlar markaziy o‘rin tutadi. Adolat, tinchlik, bag‘rikenglik, inson huquqlari, madaniyatlararo muloqot kabi qadriyatlar turli fanlar orqali yoritilib, tarixiy voqealarni baholash mezoniga aylanadi. Natijada o‘quvchi tarixiy jarayonlarni kengroq kontekstda anglaydi. Integrativ yondashuv tarixiy tahlil ko‘nikmalarining barcha komponentlarini rivojlantiradi. Kognitiv komponent turli fanlardan olingan bilimlar orqali boyiydi, tahliliy komponent murakkab muammolarni hal qilish orqali shakllanadi, aksiologik komponent qadriyatlar asosida baholash orqali rivojlanadi, refleksiv komponent esa bilimlarni shaxsiy tajriba bilan bog‘lash orqali mustahkamlanadi. Integrativ yondashuv umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasidir. Ushbu yondashuv tarixiy bilimlarni chuqurlashtiradi, ularni boshqa fanlar bilan bog‘laydi va o‘quvchilarda kompleks, tizimli va qadriyatlarga asoslangan tafakkurni shakllantiradi. Natijada tarix ta’limi shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi, uning intellektual va ma’naviy salohiyatini oshiruvchi muhim vositaga aylanadi.

Mazkur tadqiqot doirasida umuminsoniy qadriyatlar asosida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu jarayon shaxsning kognitiv, aksiologik va refleksiv rivojlanishini ta’minlaydi. Tarixiy tafakkur insonning ijtimoiy ongini shakllantirishda muhim omil bo‘lib, u orqali o‘tmish voqealari anglanadi va zamonaviy jarayonlar tahlil qilinadi. Shu nuqtai nazardan, tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat bilim berish, balki shaxsni shakllantirish jarayoni sifatida ham muhimdir. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyat taraqqiyoti sharoitida shaxsdan faqat bilim emas, balki tahliliy fikrlash, tanqidiy yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish talab etilmoqda. Shu sababli tarix fanini o‘qitishda yangi yondashuvlar zarur. Pedagogik nuqtayi nazardan, tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim mazmuni, metodlari va natijalarining uyg‘unligini talab etadi. Bu

jarayon o‘quvchining nafaqat bilimini, balki uning fikrlash faoliyatini ham rivojlantiradi.

Bizning fikrimizcha, tarixiy tahlil ko‘nikmalari o‘quvchining tarixiy voqealarni anglash, baholash va tahlil qilishga qaratilgan intellektual faoliyati hisoblanib, tarixiy voqealarni anglash, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va xulosa chiqarish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi va u quyidagicha komponentlardan iborat:

Komponent	Mazmuni	Natija
Kognitiv	Bilimlar tizimi	Tushunish
Tahliliy	Sabab-oqibat	Tahlil qilish
Aksiologik	Qadriyatlar	Baholash
Refleksiv	Xulosa	Mustaqil fikr

1.4.-rasm. Tarixiy tahlil ko‘nikmalari komponentlari

Kognitiv komponent o‘quvchining bilim, tushuncha, tasavvur va tafakkur jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan qismi bo‘lib, u tarixiy tahlil ko‘nikmalarining asosiy poydevorini tashkil etadi va tarixiy fakt va ma’lumotlarni bilish, tarixiy tushunchalarni anglash, voqea va hodisalarni eslab qolish, tarixiy jarayonlar haqida tasavvur hosil qilish uchun xizmat qiladi, “nima biladi?” va “qanday tushunadi?” degan savollarga javob beradi. Kognitiv komponent bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil kabi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olib, tarixiy sanalar, voqealar, shaxslar haqidagi bilimlarga tayanadi, voqealarning mazmunini anglab, tarixiy jarayonlarni izohlay oladi, olingan bilimni yangi vaziyatda qo‘llab, sabab-oqibatni aniqlaydi va voqealarni qismlarga ajratadi. Bizning fikrimizcha, kognitiv komponent o‘quvchining tarixiy bilimlarni egallashi, ularni anglash va tizimlashtirish jarayoni bo‘lib, tarixiy tahlil ko‘nikmalarining shakllanishida asosiy tayanch vazifasini bajaradi.

Tahliliy komponent o‘quvchining tarixiy voqealarni chuqur o‘rganish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash, solishtirish va xulosa chiqarish qobiliyatini ifodalab, tarixiy tafakkurning eng muhim va faol bosqichlaridan biri hisoblanadi. Tahliliy komponent sabab-oqibatni aniqlash, taqqoslash, tizimlashtirish, dalillash kabi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, voqealarning kelib chiqish sabablari, natijalar va oqibatlarni o‘rganadi, tarixiy davrlarni qiyoslab, shaxslar faoliyatini solishtiradi, voqealarni

tartibga solib, asosiy va ikkilamchi omillarni ajratadi, fikrni asoslab, tarixiy manbalarga tayangan holda xulosa chiqaradi va **“**Nima uchun bu voqea sodir bo‘ldi?”, “Qanday oqibatlarga olib keldi?”, “Qaysi omillar ta’sir ko‘rsatdi?” kabi savollarga javob beradi. Kognitiv komponent bilish, eslab qolish, tushunish kabi xususiyatlarga ega bo‘lsa, tahliliy komponent tahlil qiladi, sababini tushuntiradi, xulosa chiqaradi.

Bizning fikrimizcha, tahliliy komponent o‘quvchining tarixiy voqealarni sabab-oqibat asosida o‘rganishi, ularni solishtirishi va asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantiruvchi muhim pedagogik omil hisoblanib, o‘quvchining tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, tarixiy jarayonlarga mustaqil baho berishga o‘rgatadi, bilimni faol va ongli o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Aksiologik komponent o‘quvchining tarixiy voqealar, shaxslar va jarayonlarga qadriyatlar asosida baho berish, ya’ni ularni yaxshilik–yomonlik, adolat–adolatsizlik, insonparvarlik–vahshiylik mezonlari orqali anglash qobiliyati hisoblanib, adolat, erkinlik, inson huquqlari, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, halollik kabi qadriyatlarga tayangan holda shakllanadi. Aksiologik komponent qadriyatlarga asoslangan baholash, shaxsiy munosabat bildirish, qadriyatlarni anglash, fuqarolik pozitsiyasi kabi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, tarixiy voqealarga axloqiy baho berib, ijobiy va salbiy tomonlarni ajratadi, o‘z fikrini erkin ifodalab, tarixiy shaxslarga munosabat bildiradi, voqealarda yashirin axloqiy g‘oyalarni tushunib, jamiyatga nisbatan ongli munosabat bildiradi va ijtimoiy mas’uliyat his etadi. Aksiologik komponent qadriyatlar asosida baholash tizimi bo‘lib, “Bu voqea axloqiy jihatdan qanday baholanadi?”, “Qaysi harakat to‘g‘ri, qaysi biri noto‘g‘ri?”, “Bu hodisa qanday qadriyatlarni aks ettiradi?” kabi savollarga javob beradi.

Bizning fikrimizcha, aksiologik komponent o‘quvchining tarixiy voqealarni umuminsoniy qadriyatlar asosida baholashi, ularga shaxsiy munosabat bildirish va axloqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantiruvchi muhim pedagogik omil hisoblanib, o‘quvchilarda axloqiy tafakkurni rivojlantiradi, tarixiy bilimlarni insoniy mazmun bilan boyitadi, fuqarolik ongini shakllantiradi**.**


Refleksiv komponent o‘quvchining o‘z bilimlari, fikrlari va xatti-harakatlarini tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish qobiliyatini ifodalaydi. U tarixiy tahlil ko‘nikmalarining yakuniy va eng yuqori bosqichi hisoblanib, bu komponent o‘quvchining o‘z fikrini anglash va nazorat qilish darajasini ta’minlaydi va **“**Men nimani bildim?”, “Men qanday xulosa chiqardim?”, “Bu bilimni hayotda qanday qo‘llay olaman?” kabi savollarga javob beradi. Refleksiv komponent o‘zini tahlil qilish, xulosa chiqarish, mustaqil fikr shakllantirish, metakognitiv nazorat kabi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, o‘z fikrini baholab, xatolarni aniqlaydi, fikrlarini umumlashtirib, asoslangan yakuniy fikr aytadi, shaxsiy pozitsiyani bildirib,o‘z qarashlarini himoya qiladi, o‘rganish jarayonini anglab, qanday o‘rganayotganini tushunadi. Bizning fikrimizcha, refleksiv komponent o‘quvchining tarixiy bilim va tahlillar asosida o‘z fikrini shakllantirishi, uni baholashi va umumiy xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiruvchi muhim pedagogik omil hisoblanib, o‘quvchida mustaqil fikrlashni shakllantiradi, bilimni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi, o‘rganishni ongli jarayonga aylantiradi.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy talab shaxsni mustaqil fikrlashga, tahliliy yondashuvga va qaror qabul qilishga tayyorlashdan iborat. Ayniqsa, tarix ta’limi bu borada alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki tarixiy ong va tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu yondashuv o‘quvchilardan faqat bilimlarni egallashni emas, balki ularni amaliyotda qo‘llash, tahlil qilish va baholashni talab etadi. Ayniqsa, tarix fanini o‘qitishda tarixiy tafakkur va tahliliy ko‘nikmalarni shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Akademik litsey ta’limi o‘ziga xos bosqich bo‘lib, unda o‘quvchilar yuqori darajadagi abstrakt fikrlashga ega bo‘ladi. Shu sababli tarix fanini o‘qitishda an’anaviy reproduktiv yondashuvdan voz kechib, tahliliy va muammoli yondashuvlarga o‘tish zarur.

Bizning fikrimizcha, akademik litsey ta’limi o‘quvchilarning intellektual rivojlanishida muhim bosqich bo‘lib, aynan shu davrda ularda abstrakt fikrlash, sabab-oqibatni anglash, mustaqil xulosa chiqarish kabi qobiliyatlar faol shakllanadi.

Shu sababli, tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus pedagogik shart-sharoitlar tizimini ishlab chiqish zarur. Pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’limni takomillashtirish masalalari keng o‘rganilgan bo‘lib, biroq akademik litsey sharoitida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning aniq pedagogik shart-sharoitlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Tarixiy tahlil ko‘nikmasi o‘quvchining tarixiy voqealarni chuqur anglash va ularni ilmiy asosda baholash qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu ko‘nikma sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish, voqealarni solishtirish, xulosa chiqarish kabi elementlarni o‘z ichiga oladi. Bu ko‘nikma o‘quvchining tarixiy tafakkurini shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, tarixiy tahlil tarixiy voqealarni tushunish, tahlil qilish, baholash, umumlashtirish jarayoni hisoblanib, sabab-oqibatni aniqlash, tarixiy kontekstni tushunish, manbalarni tanqidiy baholash, tarixiy analogiyalarni aniqlash kabi asosiy belgilarga egadir va akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagicha pedagogik shart-sharoitlar tizimini taklif etdik:



1.5.-rasm. Pedagogik shart-sharoitlar tizimi

Mazmuniy shart-sharoitlar muammoli material, tarixiy manbalar, integrativ yondashuv kabilarni o‘z ichiga olsa, metodik shart-sharoitlar muammoli ta’lim, keys-stadi, debatlar, loyiha metodlarni tavsiya etadi. Akademik litsey o‘quvchilarining psixologik shart-sharoitlarini motivatsiya, qiziqish, individual

yondashuvlar asosida rivojlantirilsa, multimedia vositalari, interaktiv xaritalar, raqamli platformalar orqali texnologik shart-sharoitlar rivojlantiriladi. Akademik litsey o‘quvchilarining tarixiy tahlil ko‘nikmalarini guruhlar bilan ishlash, seminarlar tashkil etish, mustaqil tadqiqotlar olib borish jarayonida ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy ong kabi xususiyatlar rivojlanib, o‘z-o‘zini baholay olish, fikrni qayta tahlil qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun kompleks pedagogik yondashuv zarur. Mazkur paragrafda taklif etilgan fikr-mulohazalar tarix ta’limi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

1.3. Umuminsoniy qadriyatlar akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida

Ma’lumki, qadriyatlarning mohiyati, mazmuni, namoyon bo‘lish shakllari bilan borliq muammolarining tahlili uzoq tarixga ega. Kishilar qadim zamonlardanoq o‘zlarini o‘rab turgan olam, undagi narsa va hodisalar, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarga baho berganlar, ularning qadri va qimmati to‘g‘risida fikr yuritganlar. Zamonlar o‘tishi, jamiyat rivoji davomida bu boradagi muammolar ko‘paygan, ularni hal qilishning ahamiyati ortavergan. Qadriyatlar mavzusi ko‘pgina teologik (ilohiy), ilmiy va siyosiy dunyoqarashlarning asosida yotgan, ularning o‘zagi, markaziy qismini tashkil qilgan, falsafiy oqimlar va buyuk mutafakkirlar ham bu mavzuni chetlab o‘tmaganlar. Har bir xalqning milliy qadriyatlarini uning tarixi, ma’naviyati, madaniyati, o‘ziga xos urf-odatlari, an’analarisiz tasavvur qilish qiyin. «Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim», Qadriyatlar - ma’naviy kamolot asosi «Qadriyatlar - jamiyatda kishilar o‘rtasida obro‘ga, e’tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy va ma’naviy boyliklar majmuasi». «Qadriyat *inson* va

jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha».

«Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha», - degan ta’riflar berilgan. Bu esa, o‘z navbatida, qadriyatlarning ahamiyatini ko‘rsatmoqda. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar - millat uchun ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq xoslik shaklidir. Dunyoda o‘ziga xos qadriyatlari bo‘lmagan millat yo‘q. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati, madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Keyingi vaqtlarda O‘zbekistonda milliy qadriyatlarga e’tibor kuchaydi. Bu ona yurtga ehtirom, avlod-ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Qadriyatlarni faqat moddiy va ma’naviy boyliklar sifatida tushunish, izohlash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Ma’lumki, qadriyatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra xilma-xildir.Yuqoridagi barcha mulohazalar shaxs kamolotida sog‘lom xulq-atvor me’yorlarini tarkib toptirish, shuningdek, shaxsning go‘zal odobli, insonparvar g‘oyalarga ega bo‘lib borishi, irodaviy hamda harakterologiya sifatlarni rivojlantirish, shu jumladan, o‘zini o‘zi to‘laqonli anglash tizimini takomillashtirish asosida ularda milliy qadriyatlar tizimi shakllanishi muhim ekanligini ko‘rsatdi. Zero, allomalarimiz tomonidan qoldirilgan ilmiy merosda ilgari surilgan g‘oyalar bugun yoshlarni nafaqat aqlan, axloqan, balki ularda buzg‘unchi, yot, vayronkor illatlarga qarshi tura olishi uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qilishi ayni haqiqatdir.

O‘quvchilarda umuminsoniy va milliy qadriyatlarni rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik zaruriyatlari to‘g‘risida Z.K. Ismoilova [68], P.S. Abdimuratov [34], B.R. Adizov [43], M. Kahharova [79], Sh.E. Qurbonov [111], Z. Soliyeva [124], B. Xodjayev [143]lar o‘z tadqiqotlarida to‘xtalib o‘tganlar. Ular jamiyatdagi nazariy asoslari, axloqiy-ma’naviy muhit, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida yuksak intellektual, ijtimoiy faol, tashabbuskor, ma’naviy axloqiy

salohiyatga ega bo‘lgan yosh-avlodni yetuk kadrlar etib tayyorlash muammosi to‘g‘risida izlanishlar olib borishgan. A. Redjaboyev [116], D. Ro‘ziyeva [118], M. Mamajonov [92], O. Jamoldinova [72], A. Isimova [65]lar ularda sog‘lom turmush madaniyati va vatanparvarlik, yoshlar faolligini oshirish va ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, ijtimoiy-pedagogik qobiliyatlarini millat rivoji ruhida tarbiyalash kabi muammolarga ahamiyat qaratganlar.

D.N.Adilovaning fikricha, “Qadriyat” falsafiy tushuncha bo‘lib, u obyektiv olamni bilish va idrok etishning diniy, ilmiy, siyosiy, badiiy-estetik, falsafiy va boshqa ko‘rishlaridan farqlangan bir shaklidir. [42, 14-b].

Sh. Taylanova pedagogika tarixini o‘rganish bilan bevosita bog‘liqlikda “Qadriyatlar tizimi asrlar davomida shakllangan tabiat, jamiyat va madaniyatda aks etgan voqelikka ongli munosabat natijasida yuzaga keluvchi qarashlar yig‘indisidir”[128, 3-b.], deya ta’rif bergan.

Qadriyatlar mavzusining tarixi, ildizlari va insoniyatga xos qadrlash tamoyillari shakllanishi uzoq o‘tmishga ega. G‘arb olimlari bu borada, asosan, Yevropa madaniy merosi va g‘oyalariga tayanadilar, ko‘plab allomalarning nomlarini tilga oladilar. G‘arbda qadriyatlar bilan shug‘ullanadigan falsafiy soha - aksiologiya (aksio - qadriyat, logos - ta’limot) fanining shakllangani ham ularning bunday qarashlari uchun muayyan asos bo‘ladi.[138, 19-b]

R.M.Nikolayeva qadriyatlarga quyidagicha ta’rif beradi: «Qadriyatlar, deb yozadi u, ko‘pchilik kishilar tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadigan ezgulik, adolat, vatanparvarlik, romantik sevgi, do‘stlik kabi hodisalar haqidagi tasavvurlardir»[109]. «Qadriyatlar shubha ostiga olinmaydi, ular barcha kishilar uchun etalon, ideal bo‘lib xizmat qiladi» [81].

Qadriyatlar - moddiy va ma’naviy boyliklarning ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan, o‘zida narsalar, voqea-hodisalar, inson hayoti, borliq va jamiyat to‘g‘risidagi fikrlarni mujassamlashtirgan tushuncha. [138, 47-b]

B.G.Ananyev [46] ning fikricha, har bir rivojlanish bosqichi uchun ma’lum bir qadriyatlarni hayotiy maqsad qilib olish xosdir. Uning fikricha, yoshlar uchun ta’lim va ilm olish, muloqot asosiy qadriyatlar sifatida e’tirof etilib, aynan u orqali ular

o‘zlarining hayotiy maqsadini belgilab olishga harakat qiladi.

D.A.Leontev qadriyat tushunchasini uch xil hodisalar guruhlari bilan bog‘laydi va uch xil qadriyatlar mavjudligini ta’kidlaydi: jamiyat ideallarida; muayyan odamlarning harakatlarida yoki asarlarida; shaxsning motivatsion tuzilmalarida. [85]

Tadqiqotchi B.S.Bratus esa o‘z tadqiqotlarida qadriyatlarni 2 turga bo‘ladi: shaxsiy qadriyatlar hayotning ongli ma'nosi sifatida; semantik sohaga bevosita aloqasi bo‘lmagan shaxsga nisbatan e’lon qilingan, «chaqiriqlar», tashqi qadriyatlar. [138, 49-b]

Sh.Z.Taylanovaning fikricha, xalqimizga xos bo‘lgan milliy qadriyatlar, an’analar, uning eng yaxshi xislatlari jamiyatdagi ma’naviy birlikni mustahkamlashga xizmat qiladi va birinchidan, biron-bir jamiyat o‘zining madaniy merosini, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini odamlar ongida rivojlantirmay, hamda mustahkamlamay turib o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Ikkinchidan, mamlakatimiz yoshlarida yangi siyosiy dunyoqarash shakllanayotgan bir paytda, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib o‘tgan bebaho go‘zal madaniy durdonalardan unumli foydalanish va ular asosida yangicha mazmun kasb etadigan dunyoqarashni, ma'naviyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. [128,13-b]

Sh. Z. Taylanova oliy ta’lim muassasalari talabalarida qadriyat tizimlarini shakllantirish borasida o‘z tadqiqotlarini olib borib, qadriyat tushunchasining kelib chiqishida uch asosiy belgi birlashishini tahlil etgan: narsa va hodisalarni baholashga doir insonning amaliy va emosional munosabatini ta’riflash; insonning psixologik tavsifini aniqlovchi axloqiy kategoriyalarni tavsif etish; odamlar orasidagi ta’riflash. munosabatlarni xarakterlovchi ijtimoiy hodisalarni “Qadriyat” tushunchasining rivoji shartli ravishda qadriyatlarning turli ko‘rinish (iqtisodiy, psixologik, axloqiy, estetik, bilishga oid, ijtimoiy) larini ajratib ko‘rsatish, inson tabiati, uning bilishga intilish mexanizmlarini anglab yetish, bilish faoliyatining harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlashga imkon beradi. [128, 15-b.]

X.B.Nurbayevaning fikricha, qadriyatlar muayyan ijtimoiy mohiyatga ega bo‘lib, jamiyat taraqqiyotiga va shaxs psixik taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadi. Qadriyatlar ikki katta qismga -moddiy va ma’naviy qadriyatlarga bo‘ysunadi.

Bularning birinchi qismiga moddiy boyliklar, tarixiy obidalar, arxeologik topilmalar, turli shiorlar, osori-atiqa yodgorliklari va hokazolar kiradi. Ularning ikkinchi qismiga ilm-fan, san’at, axloq, ma’naviyat-madaniyat, adabiyot asarlari, ozodlik, erkinlik, tenglik, adolat, tinchlik, do‘stlik, xalqaro hamkorlik, dindagi real qadriyatlar va hokazolar kiradi.[105, 13-b.]. Qadriyatlar orasida ana shu umuminsoniy qadriyatlar asosiy, belgilovchi, yetakchi, umrboqiy, universal rol o‘ynaydi. Bular uzoq va yaqin moziydagi, hozirgi davrdagi g‘oyat qimmatli, hamisha barhayot, o‘chmas iz qoldiradigan, jahon xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy manfaati ehtiyoji, e’zozligiga ilmiy, badiiy, axloqiy xizmat qiladigan boyliklardir. [105, 14-b.].

N. Ortiqovning fikricha, umuminsoniy qadriyatlar bu millatni, elatni tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyatini, merosini, qadriyatlarini, urf-odatlarini, an’analarini o‘zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo‘lib, u milliy ong va milliy o‘zlikni anglashning subyektidir. Umuminsoniy qadriyatlar asosida shaxsni axloqiy shakllantirishda millatparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, yuksak insoniylik, mehr-oqibat, iymon-e’tiqod, or-nomus, insof-diyonat kabi fazilatlardan foydalanish, shuningdek “ota-ona, qarindosh-urug‘larning hurmatini joyiga qo‘yish, oilaning muqaddasligi tuyg‘ularining barkamol bo‘lishiga erishish, o‘zaro munosabatlarda yonma-yon yashayotganlar manfaatlarini hisobga olish” muhim ahamiyatga ega [106].

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga baho berishda biz oltita tamoyilga asoslandik: qonun ustuvorligi; inson haq-huquqlari va hurfikrlik; turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat; diniy bag‘rikenglik; dunyoviy bilimlarga intilish; ma’rifatparvarlik; o‘zga xalqlaming ilg‘or tajribalari va mazmunini o‘rganish kabilar. [105, 18-b.].

O‘zbek milliy qadriyati deganimizda shu millat tashkil topa boshlagan davrdan buyon hozirgacha bunyod etilgan, shakllantirilgan, taraqqiy ettirib, qaror toptirgan, endi hozirgi avlod hududi shu ishlami qilayotganligi oqibatida bunyod etilayotgan qadriyatlarni tushunamiz. Ular bilan milliy-ijtimoiy, umuminsoniy qadriyatlar orasida mutlaq chegara yo‘q, balki ular bilan mushtarak vorislik va

prinsipial tafovutlar bor xolos. O‘zbek milliy qonuniyatlari bularga sodiqlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan. Buni didaktikaning vorislik qonuniyati izohlab, tavsiflab beradi.

Yuqoridagi tahlillar va mulohazalardan anglashiladiki, shaxsda yuksak irodaviy sifatlarni shakllantirish, uning harakterida o‘z-o‘zini anglash va boshqarish, har bir xatti-harakatida o‘zining go‘zal xulqi va odobini namoyon etishiga erishish uchun sog‘lom ma’naviy qadriyatlar muhim va alohida ahamiyatga ega. Umuminsoniy qadriyatlar bu ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, o‘z davrida qanchalik ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, bugun ham shu darajada dolzarblik kasb etuvchi noyob durdonalardir. Ushbu durdonalarni yoshlar, ayniqsa, akademik litsey o‘quvchilari ongiga singdirish orqali ularni turli xil yot va buzg‘unchi g‘oyalar ta’siriga tushishdan asrab qolish mumkin. Zero, salbiy illatlarning dahshatli oqibatlarini anglab yetgan odamgina ularga qarshi ko‘rasha oladi va ma’naviy barkamollikka erishadi. Bu esa o‘ziga xos dolzarb masala bo‘lib, unga ijtimoiy-psixologik muammo nuqtayi nazaridan yondashishni talab etadi va mazkur muammoni atroflicha tahlil qilish uchun ilmiy asoslangan empirik ma’lumotlarni qo‘lga kiritishni taqozo etmoqda.

T. Abdullayev turmushdagi milliy va baynalmilallik munosabatlarini, ular bilan bog‘liq qadriyatlarni tahlil qilgan. I. Saifnazarov, F. Saifnazarovalarning fikricha, «Milliy-ma’naviy qadriyatlar -murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo‘lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi,udumlari, jamiki ma’naviy boyliklarini qamrab oladi» [120].

Q. Nazarov fikriga ko‘ra, qadriyat deyilganda, inson, millat jamiyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, ayrim shaxs, millat, elat yoki ijtimoiy guruhlarning ma’naviy-madaniy ehtiyojlari evolyutsiyasi davomida vujudga kelgan, o‘z manfaatlari va maqsadlari uchun xizmat qiladigan barcha moddiy va ma’naviy boyliklar majmui tushuniladi [102].

Shu bilan birga, qadriyatlar sermazmun va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, u tabiiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, moddiy, ma’naviy, diniy, axloqiy, badiiy-estetik kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Q. Nazarov o‘zining bir qator ishlarida, ushbu muammoning o‘ta dolzarbligini ta’kidlash bilan birga, uning mazmuni, tuzilishi,

asosiy shakllari, namoyon bo‘lish xususiyatlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimidagi o‘rni, ahamiyatini ilmiy tahlil qilish bilan bir qatorda mazkur masalalar kam tadqiq etilganligini aytib o‘tadi. Shuningdek, qadriyatlarning asosiy shakllarini aniqlash borasida olimlar orasida bir xil va hamma e’tirof etgan yagona pozitsiya yo‘qligi ta’kidlangan. Xususan, bu boradagi nuqtayi nazarlarni diqqat bilan tahlil qilish hamda qadriyat shakllarini bir-biridan farqlanuvchi ikki katta guruhga bo‘lish yo‘lidan borish, moddiy va ma’naviy yoki umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlar iboralarini qo‘llash imkonini beradi [102].

T. Mahmudov o‘quvchilarni o‘qitish hamda tarbiyalash qonuniyatlari, shuningdek, siyosiy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda talabalar ongiga samarali ta’sir etish yo‘llari, ma’naviy-axloqiy tamoyillar va me’yorlar, buyuk ajdodlarimizning xulq-odob me’yorlari hamda muomala madaniyati haqida o‘z ilmiy qarashlarida ifodalab o‘tadi [89].

Yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, allomalarning o‘giti, dono so‘zlari, fikrlarini qadrlash, o‘rganish, hayotda qo‘llash yoshlarni fikr va dunyoqarashini kengaytiradi. Bugungi yoshlar - kelajak poydevori. Shunday ekan, ularni har tomonlama yetuk, komil, vatanparvar, yurt tinchligi va ravnaqi yo‘lida fidokor bo‘ladigan farzandlar qilib tarbiyalash zarur. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning «Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin deya ta’kidlaydi. Zero, inson bugungi va o‘tmishini unutmaslik kerak va vatanni asrab- avaylab, bugungi kun har bir oniga shukronalik keltirish darkor.

Bizning fikrimizcha, milliy o‘zlikni anglash jarayonida millat kelajagi bo‘lgan yoshlarning o‘rni alohida ahamiyatga egadir. Chunki yoshlarimizning milliy o‘zlikni anglashi ajdodlarimiz qoldirgan moddiy va ma’naviy merosni, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlarni o‘zlashtirish bilan birga, ulardan milliy manfaatlarni, Vatan taqdiri va millat taraqqiyoti uchun mustaqillik tuyg‘ularining

mustahkamlanishini ham ta’minlaydi. Shuning uchun ham Prezidentimiz bugungi kunda ma’naviy sohadagi vazifalarni belgilab berar ekan, komil inson tarbiyalab yetkazishni bu yo‘nalishdagi asosiy faoliyatimiz bo‘lishi zarurligini ko‘rsatib beradi. U shunday deb yozadi: «Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi - imon-e’tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirishdir, ya’ni mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iborat».

M.M. Xayrullayevning ta’kidlashicha, «axloq, odob, muomalani inson tarbiyasining asosiy maqsadlaridan deb bilish, insonning adolat, yuksalish, ma’naviyatga intilishiga yo‘l ochish, imkoniyat yaratish, aqlda, axloqda, ma’naviyatda yetuk bo‘lish, komil insonni yaratish - insonparvarlik, vatanga, odamlarga xizmat qilish, insonlar orasidagi do‘stlik, o‘zaro yordam, ko‘maklashuvga chaqirish» o‘lkamiz xalqlari madaniyatining yetakchi jihatlaridandir [139].

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning falsafiy va psixologik negizlari, antologiyasi, eng avvalo, ijtimoiy tafakkuming mumtoz namunalarida, xalqimizning dunyoviy, diniy qarashlarida, yon atrofga, olamga munosabatlarida aks etadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar aslida ushbu madaniy merosning sintezi, mahsuli sifatida shakllanib keladi. Insoniyatning ilk o‘tmishi, birinchi moddiy va ma’naviyat, madaniyat maskanlari Sharqda shakllangan va insoniyatning keyingi taraqqiyoti uchun zamin tayyorlab bergan [99].

Bizning xulosamizcha, bu jarayon mazkur masalaga pedagogik-psixologik muammo sifatida qarashni va uning bugungi kundagi dolzarbligidan kelib chiqib, muammoni yanada kengroq, aniqroq va mukammalroq tahlil qilish uchun o‘ziga xos ilmiy asoslangan empirik ma’lumotlarni qo‘lga kiritishni taqozo etmoqda.

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o‘quvchilarda ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish ularning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy jihatdan yetuklikka erishishida g‘oyat muhim hisoblanib, o‘quvchilar o‘z mutaxassisliklarida muvaffaqiyatga erishishlari va jamiyatga ijobiy hissa qo‘sha olishlari uchun ularning ma’naviy yetukligi ham muhim omil hisoblanadi. Umuminsoniy qadriyatlar shaxsning axloqiy

tamoyillarini mustahkamlaydi, bu esa o‘quvchilarni kelajakda mas’uliyatli va e’tiborli mutaxassis sifatida rivojlanishiga yordam beradi.

O‘quvchilarning o‘z tarixini, madaniyatini, urf-odatlarini anglab yetishiga, boshqa xalqlar madaniyatiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash orqali erishish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim muassasalarida ma’naviy qadriyatlari o‘rgatishga xizmat qiladigan maxsus kurslarni tashkil etish, ma’naviyat soatlarini o‘tkazishni taqozo etadi. Zero, yoshlarga kasbiy bilimlarni o‘rgatish bilan birga jamiyatning axloqiy qadriyatlariga mos dunyoqarashni rivojlantirish bugunning dolzarb vazifalaridan biridir. Xalqimizning milliy bayramlariga bag‘ishlangan tadbirlar, ilmiy va adabiy uchrashuvlar, buyuk siymolarimiz ijodiga bag‘ishlangan madaniy ko‘rgazmalami tashkil etish ma’naviy dunyoqarashni rivojlantirishga turtki beradi.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning shaxsiy namuna ko‘rsatishi ham talabalar ongida ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar o‘zining axloqiy fazilatlari, shaxsiy tarbiyasi va mas’uliyatli munosabati orqali o‘quvchilarga namuna bo‘lib, ularga insoniy qadriyatlarni singdirishga hissa qo‘shadilar. Bu jarayonda o‘qituvchilar va o‘quvchilarning o‘zaro hurmat, ishonch va samimiyat asosida muloqot qilishi ta’limning samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarda o‘zlariga nisbatan yuqori talablarga ega bo‘lish hissini uyg‘otadi. Umuminsoniy qadriyatlarga ega bo‘lgan mutaxassislar o‘z bilim va ko‘nikmalarini insonlar manfaati yo‘lida samarali qo‘llashadi, bu esa ularning kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishishiga yordam beradi. [138, 17-b]

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, akademik litsey o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy, umuminsoniy qadriyatlar tizimini boy pedagogik merosni o‘rganish asosida rivojlantirish, badiiy-ma'rifiy asarlarni innovatsion texnologiyalar orqali ta’sirchanligini oshirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim dolzarblik kasb etadi. Ma’lumki, umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati, mazmuni, namoyon bo‘lish shakllari bilan borliq muammolarining tahlili uzoq tarixga ega. Kishilar qadim zamonlardanoq o‘zlarini o‘rab turgan olam, undagi narsa va hodisalar, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarga baho berganlar, ularning qadri va

qimmati to‘g‘risida fikr yuritganlar. Zamonlar o‘tishi, jamiyat rivoji davomida bu boradagi muammolar ko‘paygan, ularni hal qilishning ahamiyati ortavergan. Qadriyatlar mavzusi ko‘pgina teologik (ilohiy), ilmiy va siyosiy dunyoqarashlarning asosida yotgan, ularning o‘zagi, markaziy qismini tashkil qilgan, falsafiy oqimlar va buyuk mutafakkirlar ham bu mavzuni chetlab o‘tmaganlar.

Milliy falsafa, psixologiya va pedagogikada ma’naviyat muammosining chuqur va keng ochib berilganligini e’tirof etgan holda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH,) mamlakatlari olimlarining bu borada o‘ziga xos yondashuvlari mavjudligini ta’kidlab o‘tish mumkin.

V.A. Belyayevaning fikricha: “Ma’naviyat jamiyat va inson intiladigan ideal g‘oya, umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida ifoda etadi. Madaniyatni ma’naviyatga tenglashtirish yoki uni faqat madaniyatning in’ikosi sifatida tasavvur etish mutlaqo adolatsizlikdir. Ma’naviyat jamiyat va inson madaniyati asosidir” [49, 15-b.]. Ma’naviyat inson hayotiy faoliyatining asosi bo‘lib, shaxslararo munosabatlar tizimi, borliqni haqqoniy anglash usullarini o‘zida ifoda etadi.

V.I. Slobadchikov va Ye.I. Isayevlar “Inson ma’naviyati uning olam, o‘z-o‘zini, dunyodagi o‘z o‘rnini anglash ehtiyoji va qobiliyati, odam tabiati qonunlarini anglash bilan bog‘liqlikda ijtimoiy hayotning yangi shakllarini yaratishga intilishda namoyon bo‘ladi” [123], degan fikrni olg‘a surishgan. Mazkur ta’rif shaxs ma’naviyatini insonparvarlik g‘oyalari bilan bog‘liqlikda tahlil etish, shaxsiy nuqtayi nazarlarni umummadaniy faoliyat bilan uyg‘unlikda talqin qilish imkonini beradi.

Valeri Lesnyak ma’naviy shakllanishning integrativ modelini tahlil etish asosida “Ma’naviyat haqiqatni anglash, turfa xil madaniyatli istiqbollar va mustahkam e’tiqod kabi jarayonlar bilan bog‘liq hodisa”[34], ekanligi haqidagi xulosaga kelgan.

K.R.Anderson[166], R.D.Riz [166], M.J.Entoni [167], N.Olt [168], P.Howard [177]kabi xorijlik olimlar ham ma’naviy shakllanish bilan bog‘liqlikda mentorlik, “butun hayot davomida ma’naviy yuksalish”, e’tiqodning mustahkamligi va vijdon uyg‘oqligi masalalarini “ma’naviyat” tushunchasi doirasida tahlil qilishga alohida e'tibor qaratishgan.

Mamlakatimiz va xorijlik olimlarning ma’naviyat bilan bog‘liq nuqtayi nazarlarni tahlil qilish natijasida mazkur fenomenning negizini insonning ruhan poklanishi va qalban ulg‘ayishi masalasi tashkil etadi, degan bir xulosaga kelish mumkin. Chunki hayotda ikkita qarama-qarshi holatning mavjudligi ayni haqiqatdir: oliyjanob fazilat egalari bu o‘tkinchi dunyoda halol va pok yashashni o‘zlari uchun oliy maqsad deb bilishsa, nafsning quli va hoyu havasga berilgan ayrim odamlar bunday buyuk ne'matni hatto anglab ham yetishmaydi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirish asosida: “Ma’naviyat inson ruhiyati va intellektining yuksak ko‘rinishi bo‘lib, u o‘z tug‘ilib o‘sgan ona zaminiga cheksiz hurmat, milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy-axloqiy, umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirish hamda insonning istiqbolli rivojlanishining “madaniy dasturi” sifatida xizmat qiladigan yaxlit tizimdir”, degan xulosaga kelindi.

Umuminsoniy qadriyatlar ilmiy, intellektual, ta’lim-tarbiya, milliy, tarixiy-madaniy meros, madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at kabilarni o‘z ichiga olib, shaxsni axloqiy kamol toptirishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Umuminsoniy qadriyatlar shaxs ma’naviy kamoloti va dunyoqarashi, ma’naviy hayot bilan bevosita aloqador bo‘lib, uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish, tayanch ma’naviy kompetensiyalarni shakllantirish, yaxlitlikda insoniyatni ezgulik va bunyodkorlikka undashga xizmat qiladigan qadriyat shakllari majmuini o‘zida ifoda etadi. Ana shu sababli umuminsoniy qadriyatlar tizimini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik hamda integrativlikka alohida e'tibor qaratish zarur. Chunki umuminsoniy qadriyatlarni din, mafko‘ra, adabiyot, san'atdan ayro tasavvur qilish mumkin emas. Inson kundalik ehtiyojlarining qondirilishi uchun moddiylikning o‘zi yetarli bo‘lmay, u axloqiy-estetik ideallar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ana shu sababli umuminsoniy qadriyatlar insonlarning olam va odamga munosabati, ichki ehtiyojlarning tashqi namoyon bo‘lishi (interiorizatsiya va eksteriorizatsiya) bilan uyg‘un tarzda namoyon bo‘ladi. Shaxsda munosabatlar barqaror ahamiyat kasb etishi uchun maqsad va intilishlarning birligini ta'minlashga xizmat qiladigan “qadriyatli yo‘nalish(orientasiya)”ning belgilab olinishi alohida ustuvorlik kasb etadi.


B.Xodjayev qadriyatlar tizimi g‘oyat murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy

munosabatlar, aloqalar, jarayonlarni o‘zida umumlashtirgan yaxlit tabiiy organizm - jamiyat va shaxs faoliyati bilan uzviy bog‘liq [142, 149-6.], degan xulosaga kelgan.

Sh.Taylanova “Qadriyatlar tizimi asrlar davomida shakllangan tabiat, jamiyat va madaniyatda aks etgan voqelikka ongli munosabat natijasida yuzaga keluvchi qarashlar yig‘indisidir” [129.], deya ta’rif bergan.

D.N.Adilovaning fikricha, umuminsoniy qadriyatlar tizimi ma’naviy-axloqiy me’yorlarga doir bilim, axloqiy tanlovni asoslay olish ko‘nikmasi hamda ularni amalga oshirish qobiliyati yotadigan shaxsning qadriyatli yo‘nalganligi hamda qadriyat va me’yorlarning turli tizimlari ichki birligini anglash uchun insonning o‘z ma’naviy olamini rivojlantirishi va namoyon qilishi kabi o‘ziga xos belgilarga ega qadriyatli-dunyoqarashga doir subkompetentlikdir. [42, 22-b]. Bizning fikrimizcha, mazmunan umuminsoniy qadriyatlar tizimi madaniy hodisa sifatida integrativ tavsifga ega bo‘lib, umuminsoniy qadriyatlar va zamonaviy sharoitda muhim hisoblangan axloqiy me’yorlarni o‘zlashtirishning muayyan darajasini o‘zida aks ettiradi (1-rasmga qarang).Umuminsoniy qadriyatlar tizimi shaxs integrativ xususiyati sifatida o‘zida ma’naviy bilimdonlik, ma’naviy qadriyatlar tizimida o‘z o‘rnini aniqlash imkoniyati va hayotiy vaziyatlarning keng ko‘lamida ma’naviy yetuklikni namoyon qilish qobiliyatini birlashtiradi.

. 1-6 rasm. Umuminsoniy qadriyatlar tizimi



. 1-6 rasm.

Umuminsoniy qadriyatlar tizimini rivojlantirish jarayoni tanishuv-analitik, qadriyatli yo‘nalganlik, refleksiv-faoliyatga doir tarkibiy asoslarning o‘zaro aloqadorligi va birligini o‘zida aks ettiradi. Mazkur tarkibiy asoslar o‘z navbatida, umuminsoniy qadriyatlar qadriyatlar tizimining namoyon bo‘lish darajalarini ham o‘zida aks

ettiradi: ma’naviy mazmunga ega axborotlarni umuminsoniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan tahlil etish, shaxsiy-ma’naviy qadriyatlar bilan ijodiy faoliyatni uyg‘unlashtirish, umuminsoniy qadriyatlarning turli shakllarda namoyon bo‘lishi va ifodalanishi, axloqiy refleksiya va keng hayotiy vaziyatlar doirasida o‘z xulq-atvorini adekvat baholay olish. O‘z navbatida, mazkur tarkibiy asoslar talabalarda umuminsnoiy qadriyatlar tizimining rivojlanganligini baholashning mezonli ko‘rsatkichlari sifatida ham xizmat qiladi. Shuningdek, umuminsoniy qadriyatlar tizimi kasbiy kompetentlikning kasbiy faoliyatga qadriyatli munosabat, mazkur faoliyatning shaxsiy ma’naviy mohiyatining anglanganligi, kasbiy muloqotning insonparvar yo‘nalganligi jihatlarini ham o‘zida aks ettiradi. Bizning fikrimizcha, akademik litsey o‘quvchilarida umuminsoniy qadriyatlar tizimini rivojlantirish jarayonini samarali amalga oshirishda ma’naviy sohaga doir bilimlarni kengaytirish; ma’naviy qadriyatlarga yo‘nalganlik; shaxsiy ma’naviy qadriyatlar asosida faoliyatni tashkil etish va boshqarish kabi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bosqichlarga qat’iy rioya qilish lozim. Akademik litsey o‘quvchilarida umuminsoniy qadriyatlar tizimini shakllantirish, o‘rganilgan pedagogik-psixologik tahlil natijalari o‘quvchilarda umuminsoniy qadriyatlar asosida tarixiy tahlilni rivojlantirish mazmuni, shakl va metodlarini tanlash, metodologik yondashuvlar, pedagogik shart-sharoitlar tizimini ishlab chiqish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratadi.

Shuningdek, oliy ta’lim tizimida ham tarbiyaviy jarayonni qadriyatlar asosida tashkil etishga alohida e’tibor qaratish zarur. Qadriyatlar jamiyatning bebaho boyligi va milliy faxrimiz hisoblanadi. Ularni asrab-avaylash va rivojlantirish har birimizning burchimizdir. Qadriyatlar deganda faqat o‘tmishga oid meros emas, balki bugungi va kelajak taraqqiyotiga xizmat qiladigan, inson ongida mustahkam o‘rin egallagan moddiy va ma’naviy boyliklar tushuniladi. Jamiyat taraqqiyoti va mustaqilligi uchun muhim bo‘lgan barcha ijtimoiy va ma’naviy hodisalar qadriyatlar tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

“Umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish” tushunchasi mohiyatan qadrlash, ya’ni qadr-qimmatni anglash mazmunini ifodalaydi. Umuminsoniy qadriyatlar jamiyatimizning boyligi,

poydevori. Uni avaylab-asrash har bir insonning muqaddas burchidir. Umuminsoniy qadriyatlar o‘tmish bilan bugungi kun va kelajakni bog‘laydigan vosita. Umuminsoniy qadriyatlar ma’naviy yetuk, barkamol insonni tarbiyalaydigan qudratli kuch. “Umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish” jamiyatimizni jahon hamjamiyatiga qo‘shuvchi ishonchli vosita. Qadriyatlarga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashib, ularni mazmunan boyitib, ijodiy rivojlantirish - davr taqozasidir. Qadriyatlar moddiy va ma’naviy qadriyatlarga ham bo‘linadi. Moddiy qadriyatlarga kishilarning moddiy ehtiyojlarini bevosita qondiruvchi narsa (ishlab chiqarish vositalari, mehnat predmetlari, moddiy ne’matlar) lar kirsa, ma’naviy qadriyatlar siyosiy, huquqiy, badiiy, diniy,estetik, falsafiy, axloqiy qadriyatlardlan iboratdir. Yashash va rivojlanish uchun moddiy ne’matlar qanchalik zarur bo‘lsa, ma’naviy qadriyatlar ham muhimdir. Odob-axloq, urf-odat va marosimlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan qadriyatlar xalqimizning eng bebaho boyliklaridan biri hisoblanadi. Yaxshilik, halollik, poklik, mehr-oqibat, hamkorlik va sadoqat kabi fazilatlar asosida shakllangan munosabatlar ham muhim qadriyatlarimiz sirasiga kiradi. Estetik qadriyatlar esa, avvalo, tabiat va jamiyatdagi go‘zalliklarni o‘z ichiga oladi. Har qanday jamiyatda inson eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etiladi. Bizning jamiyatimizda ham inson manfaatlari ustuvor bo‘lib, barcha faoliyat aynan uning farovonligi uchun xizmat qilishi lozim.Insoniyat taraqqiyotini aks ettiruvchi qadriyatlar umuminsoniy va milliy qadriyatlarga bo‘linadi. Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyatga tegishli bo‘lgan moddiy va ma’naviy meros, ilmiy, falsafiy, axloqiy, estetik, huquqiy, siyosiy hamda ekologik qarashlar majmuasidan iboratdir. Milliy qadriyatlar esa muayyan xalqning tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan urf-odatlari, an’analari, marosimlari, bayramlari va o‘ziga xos madaniy jihatlarini o‘z ichiga oladi. Xalq amaliy san’ati, milliy o‘yinlar va rasm-rusumlar ham milliy qadriyatlarning ajralmas qismidir. Shu bilan birga, diniy qadriyatlar ham milliy qadriyatlarning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar zamonaviy ma’naviy yutuqlar bilan uyg‘unlashib, jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi va ma’naviy poklanishga xizmat qiladi. Qadriyatlar

insonning erkin va farovon hayot kechirishi, ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol topishi uchun muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli ularni asrab-avaylash, rivojlantirish va yosh avlod ongiga singdirish muhim ahamiyatga ega.

Umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmlarini rivojlantirish, ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yanada jonlantirish, ularni amalga oshirishning maqbul tizimini yaratish, metodik majmualar, axborot-ko‘rgazmali materiallar yaratish; fanlar mazmuniga qadriyatlarni singdirish, tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy metod va usullarini izlab topish, bo‘lg‘usi mutaxassislarni yuksak g‘oyalar og‘ushida mehnat qilishlari, iste’dod va imkoniyatlarini ishga solishlari uchun sharoit yaratishimiz lozim.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

Tarixiy tahlil ko‘nikmalarini faqat kognitiv jarayon sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy, axloqiy va fuqarolik kompetensiyalari bilan bog‘liq kompleks pedagogik muammo sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Shu bilan birga, tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishni umuminsoniy qadriyatlar asosida tashkil etish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar inson huquqlari, adolat, bag‘rikenglik, tinchlik, erkinlik, hurmat va hamkorlik kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Tarix fanining o‘ziga xosligi shundaki, u aynan ana shu qadriyatlarning tarixiy shakllanishi, rivojlanishi va sinovdan o‘tgan shakllarini aks ettiradi. Shu sababli tarixiy tahlil jarayoni o‘quvchilarda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki aksiologik (qadriyatlarga oid) qarashlar tizimini ham shakllantiradi.

Akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning tanqidiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda ijtimoiy-axloqiy qarashlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy tahlil ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish metodologik jihatdan bir qator yondashuvlar uyg‘unligiga tayanadi. Tadqiqotlarimiz natijasida ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlar va pedagogik shart-sharoitlar tizimi akademik litsey

o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik asos sifatida baholanadi hamda uni ta’lim amaliyotiga joriy etish yuqori natijadorlikka erishish imkonini beradi.

Zamonaviy ta’lim tizimida tarix fanining asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarda nafaqat tarixiy bilimlarni shakllantirish, balki ularni mustaqil fikrlash, voqealarni tahlil qilish va xulosalar chiqarishga o‘rgatishdan iborat bo‘lib, umuminsoniy qadriyatlar asosida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sanaladi. Umuminsoniy qadriyatlar akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim pedagogik vositasi hisoblanib, ular orqali o‘quvchilarda tarixiy voqealarni chuqur anglash, obyektiv baholash va zamonaviy jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish imkoniyati kengayadi. Shu bois, tarix ta’limi jarayonida umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan metodikani takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

II. BOB. UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARIDA TARIXIY TAHLIL KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

2.1 §. Umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasi.

Xorijiy ta’lim tizimlarida tarix fanini o‘qitish faqat faktlarni yodlash emas, balki o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, tarixiy tafakkur, fuqarolik ongini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, kompetensiyaviy yondashuv, qadriyatga asoslangan ta’lim, interfaol metodlar asosida olib boriladi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, tarixiy tahlil ko‘nikmalari: dalillarni tahlil qilish, sabab-oqibatni aniqlash, tarixiy voqealarni talqin qilish, turli nuqtayi nazarlarni baholashdan iborat. Tarixiy bilim deganda insoniyat o‘tmishi bilan bog‘liq tassurotlar, tasavvurlar va tushunchalar tizimi tushuniladi. Tarixiy bilim tabiatiga ko‘ra eng qadimgi, dastlabki insonning paydo bo‘lishi, kishilik jamiyatining shakllanishi, odamlarning guruh-guruh, jamoa bo‘lib yashashga ehtiyojining paydo bo‘lishi, ana shu guruh, qabila, jamoani boshqarish usullarining vujudga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan va hamon davom etayotgan ulkan shajarani o‘rganishni taqozo etadi.

O‘tmish, hozirgi zamon va kelajak tushunchalarining nisbati hamda o‘zaro aloqasi masalasida biz Z.Orudjev va T.Kuznetsovalarning “o‘tmishni vayron qiluvchi har qanday harakat – sivilizatsiyaga qarshi jinoyat. O‘tmish, o‘tgan va eski – bir narsaning o‘zi emas. O‘tmish – hozirgi moddiy yoki ideal hodisani, predmetlar olamini yoki hodisalar olamini (biron-bir shaklda) belgilovchi (vaqt). O‘tgan – (hozirgi) vaqt tomonidan bosib o‘tilgan, boy berilgan o‘tmish. Eski (eskirgan) – vayron qiluvchi (hozirgiga to‘sqinlik qiluvchi) o‘tgan vaqt, bu – yo‘qolib borayotgan, hozirgini amalga oshirishga to‘sqinlik qiladigan hodisa” [108, 82-b] . So‘ng: “O‘tmish eskirgan, o‘tilgan vaqt borasida emas, balki o‘zining bunyodkorligi bilan boqiydir” [108, 83-b.] . Shu bois “sivilizatsiya o‘tmish bilan hozirning birligi, bu hozirni o‘tmish orqali idrok etishdir”[108, 85-b.]. Ma’lumki, tarix faqat o‘tmish

haqidagi ma’lumotlar, xotiralar ham emas. Uning buyuk qudrati, tarbiyaviy kuchi, murabbiylik mohiyati o‘tmishni o‘rganish, tadqiq etish orqali bugunni baholash, bugunni anglash, bugungi odamlarni tushunish va ularni yo‘naltirish borasidagi fikrlarni, g‘oyalarni o‘zida mujassam etganida! Agar biz tarixga ana shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, uning butun ko‘lamini, insoniyat va jamiyat taraqqiyotidagi rolini chuqurroq anglaymiz.

“Tarix ta’limi” tushunchasini qo‘llash amaliyotda keng uchraydi. Ko‘plab tadqiqotlarda mazkur tushunchadan foydalanilishiga guvoh bo‘lish mumkin[95, 70-b.]. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’kidlab o‘tganidek, “Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan oyrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir”[90].

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, tadqiqotda “tarixiy tarbiya” masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi. Zero, tarixiy tarbiya yordamida millat birinchidan, “Biz kimmiz?”, “Kimlarning avlodimiz?” degan savollarga javob izlash zamirida o‘zining tarixiy ildizlarini anglashi, ikkinchidan, o‘tmishda ro‘y bergan jarayonlarni tahlil etish orqali ulardan bugungi kun uchun zarur saboqlar chiqarishi, uchinchidan, real voqelik, uni keltirib chiqargan sabablar, omillarni chuqurroq anglab etishi va yo‘l qo‘yilgan xatolardan xulosa chiqargan holda ertangi kunining optimal yo‘llarini belgilashi mumkin bo‘ladi. Tarixiy tarbiyani tashkil etishda xalq og‘zaki ijodi, badiiy adabiyot namunalari, ixcham shakldagi pand-nasihatlar, matallar, rivoyatlar, tarixiy qo‘shiqlar, asrlar davomida sayqallashgan urf-odatlar mazmunida mujassamlashgan ajdodlar tajribasiga tayanib ish ko‘rish nihoyatda muhim.

Tarixiy tarbiyaning tarixiy tafakkur rivojidagi o‘rni haqida gap ketar ekan, masalaning quyidagi jihatiga ham e’tibor berish zarur. Ingliz olimi Ralf Emerson “tamaddunning haqiqiy darajasi boylik bilan emas, shaharlarning mahobati bilan ham emas, mamlakatda tarbiyalanayotgan insonlar qiyofasi bilan belgilanadi”, – deb yozgan edi [182]. Ana shu qiyofani shakllantirishga qaratilgan tarixiy tarbiya ikki xil – salbiy hamda ijobiy maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Shaxs, ijtimoiy guruh yoki millat tarixiy xotirasini bir yoqlama, noxolis, noadekvat shakllantirishga qaratilgan tarbiya mohiyatan salbiy mazmunga egadir. Chunki bunda o‘sib

kelayotgan yosh avlodga bilim berishda bir yoqlama tarixiy tarbiya amalga oshiriladi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, yoshlikda bola ongiga singdirilgan noto‘g‘ri axborotni o‘chirib tashlash oson kechmaydi. O‘sib kelayotgan yoshlarga tarixni noxolis singdirishni millat tarixiy xotirasidagi bir ustunning ildiziga bolta urish, uni emirishga qaratilgan siyosiy xatti-harakat sifatida baholash mumkin[37].

Tarixiy tarbiya ijobiy mazmunga ega bo‘lsa, barcha sa’y-harakatlar xolislik, obyektivlik, chuqur ilmiy tahlil asosida olib boriladi, tarixiy tafakkur rivoji o‘zgacha xarakter kasb etadi. Ya’ni, bu yo‘lda barcha harakatlar tarixiy, ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarga bog‘liq holda tarixiy haqiqatni bilish, uni muhrlash, yosh avlodga xolisona etkazishga yo‘nal-tirilgan holda olib boriladi. Bunda buyuk mutafakkirlar ta’limotiga, boy milliy va umuminsoniy, ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarga asoslaniladi. Milliy tiklanish jarayoni orqali milliy tarixiy tafakkurdagi kemtiklarni to‘ldirish jarayoni boshlanadi. Zero, xolis singdirilgan tarixiy tarbiya insonda xatolardan himoyalanish, to‘g‘ri yo‘lni belgilab olish qobiliyatini shakllantiradi.

B.Borries tarixiy bilimlarni rivojlantirish yuzasidan empirik tadqiqotlarini turli xil maqsadli guruhlarda olib bordi. Shundan kelib chiqqan holda quyidagi natijalarga erishdi: Tarix haqidagi tushunshalar, tarix haqidagi bilimlar va tarixiy bilimlar ko‘lamining har biri o‘ziga xos jihatlarga ega va bir-biridan farq qiladi. Shunga monand ravishda insonning tarixni o‘rganishida ham farqlar mavjud; Inson nima uchun va qanday tarix bilan shug‘ullanadi? Bu insonning shaxsiy, tarix bilan bo‘glangan ehtiyojlariga bog‘liq (tarixiy voqelikni haqiqat ekanligini “ichki tasdiqlash”, noaniqlikni aniqlash, san’at va ma’rifatdanzavqlanish kabi ehtiyojlar bo‘lishi lozim; Biografik elementlar, shaxsiy xususiyatlar, ma’lum shaxsiyat haqidagima’lumotlar, siyosiy qarashlar va kelajakka bo‘lgan umidlar odamlarning tarixni o‘rganishiga bo‘lgan munosabatida va ongida aniq namoyon bo‘ladi [179].

I.G.Pestalotstsi: “Tushunmaslik fanning qiyinligidan emas, tushuntirishning mavhumligidandir” deb ta’kidlab o‘tgan. Pedagog olimning fikridan kelib chiqqan holda, tarixiy dunyoqarash mavhumlik va murakkablik tug‘dirsada, zamonaviy didaktik ta’minot vositasida uning aynan mavhum va murakkab jihatlariga e’tibor qaratgan holda aniq, sodda tushuntirish imkoniyati mavjud. Zamonaviy sharoitda fan

va texnika rivoji ta’lim va uning natijalarigaqo‘yiladigan talablarning tubdan o‘zgarishini taqozo etmoqda. Shu ma’noda, davrning o‘zi pedagoglarning oldiga yangi asr standartlarini yaratishni muhim vazifa sifatida belgilamoqda. Hozirgi vaqtda yaratilgan Davlat ta’lim standartlari va malaka talablarini tizimli-faoliyatli yondashuvdan yangicha, kompetensiyaviy yondashuv asosida tuzilishiga erishish shart sanalmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida tarix fanlarini o‘qitish ta’lim maqsadlaridan biri sifatida zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o‘quv jarayonlarini loyihalashtirishda o‘qitishni individuallashtirish, intensivlashtirish va optimallashtirishga erishish malakalarini shakllantirish hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida tarix fanlarini o‘qitishning zamonaviy o‘quv-didaktik materiallar, multimedia va media vositalar hamda elektron resurslardan samarali foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirish dolzarb vazifalardan biridir. Zamonaviy didaktik ta’minotning o‘quv jarayonida qo‘llanilishi natijasida elektron o‘quv qo‘llanmalar, virtual stendlar orqali murakkab texnologiyalarni qisqa vaqtda mukammal o‘zlashtirib, masofadan turib o‘qitishga imkoniyat yaratiladi.

Bugungi kunda ta’lim sohasida fan va texnikaning so‘nggi yutuqlari asosida ishlab chiqilgan audio, video, telekommunikatsiya, informatsion texnika va texnologiyalarning qo‘llanilishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ularning didaktik imkoniyatlari bilan tanishib chiqish va mashg‘ulotlarda ularni qo‘llashni o‘rganish bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ularning kelajak faoliyatida katta yordam beradi. Tarixiy bilimlarni rivojlantirish jarayoni talabalar intellektual faoliyatining rivojlanishi bilan ham bog‘liq. Intellektual ko‘nikmalar o‘zida: xotiraning rivoji: idrok etishning rivoji; tasavvurning rivoji; diqqatning rivojini o‘zida aks ettiradi [55].

Tarix didaktikasi bo‘yicha mashhur olim H.J.Pandel tarixiy bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy didaktik ta’minotni shakllantirishda tafakkurning 7 ta kategoriyasini hisobga olish, mazmunga singdirish lozimligini ta’kidlab o‘tadi: vaqtga bog‘liq tarixiy tafakkur (o‘tmish, hozirgi zamon va kelajakni farqlay olish, tarixiy voqelikni ma’lum vaqtlarga ajrata olish (masalan, 1933-45));haqiqatda sodir bo‘lganligi bilan bog‘liq tarixiy tafakkur (voqealikni real yoki

to‘qima ekanligini baholash);tarixiylikni anglash tafakkuri (tarixiylikni anglash, jumladan uning statik yoki o‘zgaruvchan xarakterga ega ekanligini tushunish);shaxslarni anglash tafakkuri (ma’lum bir shaxs yoki shaxslarning guruhga mansublikni, uning motivlarini anglash va buni boshqalar uchun ham hisobga olish qobiliyati); siyosiy tafakkur (hukmdorlik va manfaatlar mutanosibligi bo‘yicha tushunshalar);iqtisodiy-ijtimoiy tafakkur (ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni tan olish); axloqiy tafakkur (to‘liq relyativizmga tushib qolmasdan va o‘z mulohazalaridan butunlay voz kechmasdan, davr qadriyatlari va me’yorlarini qayta qurish qobiliyati).[180]

Finlyandiya ta’lim tizimida umuminsoniy qadriyatlar asosida tarixiy tahlil ko‘nikmalaridan foydalanish tahlili. Finlandiya tarixiy tahlil ko‘nikmalari fenomen asosidagi ta’limga asoslangan bo‘lib, fanlar integratsiyasi, real hayot muammolari asosida o‘qitish va tarixni boshqa fanlar bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Bu yondashuv tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, ijtimoiy ongni rivojlantiradi. Finlyandiya ta’lim tizimida fenomen asosidagi ta’lim alohida bir fan o‘rnini bosuvchi model emas, balki fanlararo, mavzulararo va hayotiy muammolar asosida tashkil etiladigan o‘quv yondashuvi sifatida qaraladi. Maktab va litsey darajasidagi milliy o‘quv dasturlarida o‘quvchilar bilimni tayyor ko‘rinishda qabul qiluvchi emas, balki ma’lumotni izohlovchi, tahlil qiluvchi va baholovchi faol subyekt sifatida ko‘riladi. Finlandiya Milliy ta’lim agentligi umumiy o‘rta ta’lim konsepsiyasini o‘quvchining “faol va maqsadga yo‘naltirilgan ishlashi”ga tayanadigan model sifatida belgilaydi; bunda o‘quvchi o‘quv jarayonida ma’lumot va bilimni talqin qiladi, tahlil qiladi va baholaydi. Fenomen asosidagi yondashuvning markazida alohida predmet emas, balki real hayotdagi murakkab hodisa turadi. Shu sababli “iqlim o‘zgarishi”, “migratsiya”, “urush va tinchlik”, “shaharlar taraqqiyoti”, “demokratiya”, “madaniy meros” kabi masalalar bir vaqtning o‘zida tarix, geografiya, adabiyot, fuqarolik ta’limi, iqtisod va hatto tabiiy fanlar nuqtai nazaridan o‘rganilishi mumkin. Finlyandiya ta’lim siyosatida bu yondashuv multidisciplinary learning modules va transversal competences orqali mustahkamlangan bo‘lib, fanlar o‘rtasidagi dialogni kuchaytirishi rasmiy hujjatlarda alohida qayd etiladi.[189] Mazkur yondashuv konstruktivistik

pedagogikaga yaqin turadi. Uning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, bilim bo‘laklarga ajratilgan mavzular yig‘indisi emas, balki o‘quvchi ongida mazmunli bog‘lanishlar orqali shakllanadigan yaxlit tizimdir. Finlyandiya o‘quv dasturlarida transversal kompetensiyalar “bilim, ko‘nikma, qadriyat, munosabat va iroda”ning birligi sifatida ko‘riladi. Demak, ta’lim faqat informatsiya berish bilan cheklanmaydi; u o‘quvchida fikrlash usuli, munosabat va amaliy xulqni ham rivojlantiradi.[190] Bu jihat ayniqsa tarix ta’limi uchun muhim. Chunki tarixni faqat sanalar va voqealar ketma-ketligi sifatida emas, balki insoniyat tajribasini tushuntiruvchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganish zarur. Fenomen asosidagi model aynan shu imkoniyatni yaratadi: tarix voqea sifatida emas, balki hozirgi zamon bilan bog‘langan ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin qilinadi. Bu esa tarixiy tafakkurning chuqurlashishiga xizmat qiladi. Finlyandiya yuqori bosqich o‘quv dasturida ham transversal kompetensiyalar barcha fanlar uchun umumiy maqsad ekani, ular orasida tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, ijodiy muammo yechish va uzluksiz o‘rganish ko‘nikmalari mavjudligi ko‘rsatilgan.[191] Fenomen asosidagi ta’limning eng muhim tomoni fanlar integratsiyasi hisoblanib, Finlyandiyada integratsiya shunchaki ikki mavzuni yonma-yon o‘qitish emas, balki bir muammoni turli fanlarning tushuncha, metod va dalillari yordamida ochib berish demakdir. Rasmiy hujjatlarda multidisiplinar modullar maktab darajasida rejalashtirilishi, ular turli fanlarga oid bilim va ko‘nikmalarni birlashtirishi, ayrim hollarda tarix, san’at, matematika, fizika va ona tilini bir loyiha doirasida tutashtirishi qayd etilgan.[192]

Finlyandiya tajribasidan kelib chiqib, akademik litseylarda tarix fanini quyidagi asoslarda boyitish mumkin:

Birinchidan, tarix darslarini alohida mavzular yig‘indisi emas, balki fenomenlar majmui sifatida qurish lozim. Masalan, “mustamlakachilik”, “modernizatsiya”, “urbanizatsiya”, “ma’naviy meros”, “davlatchilik va fuqarolik” kabi yirik fenomenlar asosida o‘qitish tarixiy tahlilni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, tarixni geografiya, huquq, adabiyot, iqtisod va madaniyatshunoslik bilan bog‘lash kerak. Finlyandiya tajribasi fanlararo bog‘lanish o‘quvchida bilimning yaxlit manzarasini shakllantirishini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, o‘quvchilarni tayyor ma’lumotni qayta aytishga emas, balki savol qo‘yish, dalil topish, talqin qilish va baholashga o‘rgatish zarur. Bu Finlandiya o‘quv dasturining asosiy ruhiga mos keladi.

To‘rtinchidan, tarix darsida umuminsoniy qadriyatlar inson qadr-qimmati, tinchlik, adolat, bag‘rikenglik, fuqarolik mas’uliyati tahlilning ichki mezoni sifatida ishlatilishi lozim. Finlyandiyaning transversal kompetensiya modeli aynan bilim, ko‘nikma, qadriyat va munosabat birligini ko‘zda tutadi.

Finlyandiyaning fenomen asosidagi ta’limi tarix fanini o‘qitishda nihoyatda muhim metodologik imkoniyat yaratadi. Uning mohiyati shundaki, tarix alohida predmet doirasida cheklanib qolmaydi; real hayot muammolari bilan bog‘lanadi; boshqa fanlar bilan integratsiyalashadi; tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiy ongni bir vaqtda rivojlantiradi. Shu bois fenomen asosidagi ta’limni tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali xorijiy modeli sifatida baholash mumkin. Bu model o‘quvchini tarixni yodlovchi emas, balki tarixiy hodisani ko‘p qirrali tahlil qiluvchi, qadriyatlarga tayangan holda baholovchi va bugungi jamiyat bilan bog‘lay oluvchi shaxs sifatida shakllantiradi.

Germaniya va Buyuk Britaniya ta’lim tizimlarida umuminsoniy qadriyatlar asosida tarixiy tahlil ko‘nikmalaridan foydalanish tahlili.

Germaniya va Buyuk Britaniya ta’lim tizimlarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va tarix didaktikasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davlatlar tajribasi tarix fanini o‘qitishda turli metodologik yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatadi, biroq ularni umumlashtiruvchi jihat tarixiy tafakkurni shakllantirishga yo‘naltirilganlikdir. Germaniya modelida tarixiy ta’lim “historisches Bewusstsein”, ya’ni tarixiy ong konsepsiyasiga asoslangan bo‘lsa, Buyuk Britaniya tajribasida “inquiry-based learning” modeli ustuvor hisoblanadi. Germaniya ta’lim tizimida tarixiy ong tushunchasi markaziy kategoriya sifatida qaraladi. Mazkur konsepsiya tarixni o‘rganishni oddiy fakt va voqealarni eslab qolish jarayoni emas, balki o‘tmish, hozirgi zamon va kelajak o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashga qaratilgan murakkab intellektual faoliyat sifatida talqin etadi. Tarixiy ong o‘quvchining tarixiy tajriba asosida ijtimoiy va axloqiy

xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantiradi. Shu nuqtayi nazardan, Germaniya tarix didaktikasida tarixiy bilim uch bosqichli tizim asosida ko‘rib chiqiladi: tarixiy bilimni egallash, tarixiy voqealarni anglash va ularni zamonaviy ijtimoiy hayotga tatbiq etish. Germaniya tarixiy ta’lim tizimi Yevropadagi eng chuqur aksiologik va refleksiv modellardan biri sifatida e’tirof etiladi. Uning markazida “historisches Bewusstsein” tarixiy ong tushunchasi turadi. Tarixiy ong quyidagicha talqin qilinadi: Tarixiy ong shaxsning o‘tmish, hozirgi zamon va kelajak o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni anglash, tarixiy tajriba asosida ijtimoiy va axloqiy xulosa chiqarish qobiliyatidir. Mazkur konsepsiya nemis tarix didaktikasining yetakchi nazariyotchilari (J. Rüsen va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, tarixiy bilimni quyidagi uchlikda talqin qiladi: tarixiy bilim → tarixiy anglash → tarixiy orientatsiya. Bu yondashuv tarixni shaxsning ijtimoiy hayotdagi pozitsiyasini belgilovchi vosita sifatida ko‘radi. Germaniya didaktikasida tarixiy ong quyidagi komponentlardan iborat: kognitiv komponent, interpretativ komponent, aksiologik komponent, orientatsion komponent.

Kognitiv komponent	• tarixiy faktlar va jarayonlarni bilish; • davriylik va xronologiyani tushunish.
Interpretativ komponent	• tarixiy voqealarni turli nuqtai nazardan talqin qilish; • tarixiy narrativlarni tahlil qilish.
Aksiologik komponent	• tarixiy voqealarni axloqiy baholash; • inson huquqlari, adolat, mas’uliyat mezonlari.
Orientatsion komponent	• tarixiy tajribani hozirgi ijtimoiy hayotga qo‘llash; • shaxsiy va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish.

2.1-rasm. Germaniya ta’lim tizimidagi tarixiy ong komponentlari

Bu model tarixiy tahlilni faqat analiz emas, balki hayotiy yo‘naltiruvchi mexanizm sifatida talqin qiladi. Germaniya tarix ta’limida tarixiy faktni o‘rganish emas, balki tarixiy mas’uliyatni shakllantirish asosiy maqsad qilib olingan. Natijada o‘quvchi tarixiy xatolardan saboq chiqaradi; stereotip va ideologiyalarni tanqid qiladi; demokratik qadriyatlarga sodiq bo‘ladi.Germaniya modeli tarixiy tahlil

ko‘nikmalarini aksiologik, refleksiv, ijtimoiy yo‘naltirilgan kompetensiya sifatida shakllantiradi. Germaniya modelida tarixiy tahlil ko‘nikmalari bir necha tarkibiy komponentlar orqali rivojlantiriladi. Avvalo, kognitiv komponent orqali o‘quvchilar tarixiy faktlar, voqealar va jarayonlar haqida bilimga ega bo‘ladi. Keyingi bosqichda interpretativ komponent ishga tushadi, bunda o‘quvchilar tarixiy voqealarni turli nuqtayi nazardan talqin qilishni o‘rganadi. Aksiologik komponent esa tarixiy hodisalarni axloqiy mezonlar asosida baholashni nazarda tutadi. Nihoyat, orientatsion komponent orqali o‘quvchi tarixiy tajribani hozirgi jamiyatdagi muammolar bilan bog‘lab, shaxsiy va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi.Mazkur tizim tarixiy tahlilni faqat bilish jarayoni emas, balki shaxsning ijtimoiy yo‘nalishini belgilovchi mexanizm sifatida qarash imkonini beradi. Ayniqsa, Germaniya ta’lim tizimida XX asr tarixini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilishi bu modelning o‘ziga xos jihatidir. Natsizm davri, Holokost, totalitarizm va inson huquqlarining buzilishi kabi mavzularni o‘qitishda asosiy e’tibor tarixiy faktlarni o‘rganishdan ko‘ra, tarixiy mas’uliyatni shakllantirishga qaratiladi. Bu esa o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, stereotiplardan voz kechish hamda demokratik qadriyatlarga sodiqlikni rivojlantiradi.

Buyuk Britaniya tarix ta’limi “inquiry-based learning” (tadqiqot asosida o‘qitish) modeliga tayanadi. Ushbu yondashuv konstruktivistik pedagogika va Bruner, Dewey g‘oyalariga asoslanadi. Inquiry-based learning o‘quvchilarning tarixiy bilimlarni savol qo‘yish, tadqiqot olib borish va dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish orqali egallash jarayonidir. Buyuk Britaniya ta’lim tizimida esa tarix fanini o‘qitishda inquiry-based learning, ya’ni tadqiqot asosida o‘qitish modeli keng qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv konstruktivistik pedagogika tamoyillariga asoslanib, o‘quvchini bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol tadqiqotchi sifatida shakllantirishga qaratilgan. Inquiry modeli doirasida tarixiy bilimlar savol qo‘yish, gipoteza ilgari surish, dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarish jarayonida egallanadi.Mazkur modelning asosiy bosqichlari muammo qo‘yishdan boshlanadi. O‘qituvchi ochiq va muammoli savollar orqali o‘quvchilarni fikrlashga undaydi. Keyingi bosqichda o‘quvchilar o‘z gipotezalarini ilgari suradi va ularni tekshirish uchun turli tarixiy manbalar bilan ishlaydi. Tadqiqot jarayonida dalillar yig‘iladi,

tahlil qilinadi va solishtiriladi. Yakunda esa o‘quvchilar dalillarga asoslangan xulosalar chiqaradi hamda o‘z fikrlarini qayta baholaydi. Inquiry-based learning modeli tarixiy tahlil ko‘nikmalarining bir qator muhim jihatlarini rivojlantiradi. Jumladan, o‘quvchilar manbalarni tanqidiy tahlil qilish, dalil va talqinni farqlash, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash hamda turli nuqtai nazarlarni solishtirish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Shuningdek, bu model argumentatsiya madaniyatini shakllantirib, o‘quvchilarda ilmiy asoslangan fikr yuritish qobiliyatini rivojlantiradi. Buyuk Britaniya tajribasida tarix darslarida turli metodik vositalardan foydalaniladi. Tarixiy hujjatlar, xaritalar, statistik ma’lumotlar, vizual materiallar va qarama-qarshi manbalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning mustaqil tahlil qilish qobiliyatini oshiradi. Bunda tarix tayyor bilim sifatida emas, balki o‘rganiladigan va tahlil qilinadigan ilmiy obyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Germaniya va Buyuk Britaniya tajribasini komparativ tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu ikki model tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishda turli yo‘llarni taklif etadi. Germaniya modeli ko‘proq aksiologik va refleksiv yo‘nalishga ega bo‘lib, tarixiy bilim orqali shaxsning fuqarolik va axloqiy pozitsiyasini shakllantirishga qaratilgan. Buyuk Britaniya modeli esa analitik va tadqiqotga asoslangan yondashuvni ustuvor qilib, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va ilmiy tafakkurni rivojlantiradi. Shu bilan birga, har ikkala modelning integratsiyasi tarixiy tahlil ko‘nikmalarini yanada samarali shakllantirish imkonini beradi. Germaniya tajribasidagi aksiologik-refleksiv yondashuv va Buyuk Britaniya modelidagi tadqiqotga asoslangan metodlarni uyg‘unlashtirish natijasida tarixiy ta’limning kompleks modeli yuzaga keladi. Bunday model o‘quvchilarda nafaqat tarixiy bilim va tahlil ko‘nikmalarini, balki ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik ong va umuminsoniy qadriyatlarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, Germaniya va Buyuk Britaniya tajribasi tarix fanini o‘qitishda asosiy maqsad bilim berishdan iborat emasligini, balki o‘quvchini mustaqil fikrlovchi, tarixiy jarayonlarni tahlil qila oladigan va ularga nisbatan ongli munosabat bildira oladigan shaxs sifatida shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bois mazkur tajribalar akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

AQSh va Kanada ta’lim tizimlarida umuminsoniy qadriyatlar asosida tarixiy tahlil ko‘nikmalaridan foydalanish tahlili.

AQSh va Kanada tarix ta’limida “Historical Thinking Skills” yondashuvi tarixni yodlanadigan faktlar majmui sifatida emas, balki izlanish, dalillash va talqin qilishga asoslangan intellektual faoliyat sifatida tushuntiradi. Kanadadagi Historical Thinking Project bu yondashuvni oltita o‘zaro bog‘liq tushuncha orqali ifodalaydi: tarixiy ahamiyatni aniqlash, birlamchi manba dalillaridan foydalanish, davomiylik va o‘zgarishni ko‘rish, sabab va oqibatni tahlil qilish, tarixiy perspektivani tushunish hamda tarixiy talqinning axloqiy o‘lchamini anglash. AQShda esa Stanford History Education Group’ning “Reading Like a Historian” yo‘nalishi manbani manba sifatida o‘qish, kontekstualizatsiya, dalillarni taqqoslash va tasdiqlash kabi usullarni markazga qo‘yadi; NCSS’ning C3 Framework hujjati ham tarix ta’limini savol qo‘yish, dalillar bilan ishlash va asoslangan xulosa chiqarish jarayoni sifatida belgilaydi. SHEG ma’lumotlariga ko‘ra, bu yondashuv bo‘yicha ishlab chiqilgan materiallar o‘quvchilarning tarixiy tafakkuri, bilimlari va o‘qib tushunish ko‘nikmalarida sezilarli o‘sish bergan. [194] Tarixiy vaqtni tushunish bu modelning boshlang‘ich, lekin juda muhim bo‘g‘inidir. O‘quvchi voqealarni ketma-ket sanab berish bilan cheklanmaydi; u vaqt ichida nimalar o‘zgarganini, nimalar saqlanib qolganini, qaysi o‘zgarish tez, qaysisi sekin kechganini tahlil qiladi. Kanada tarixiy tafakkur modelidagi “continuity and change” aynan shu ko‘nikmani chuqurlashtiradi. Bunday yondashuv o‘quvchiga, masalan, demokratiya, fuqarolik huquqlari yoki gender tengligi birdan paydo bo‘lmaganini, ular uzoq tarixiy kurashlar, qarama-qarshiliklar va islohotlar mahsuli ekanini anglashga yordam beradi. Bu esa tarixiy jarayonni chiziqli emas, murakkab va ko‘p qatlamli hodisa sifatida idrok etishga olib keladi. [194] Manbalarni tahlil qilish modelning eng markaziy qismidir. AQSh va Kanadadagi zamonaviy tarix didaktikasida darslikdagi tayyor xulosadan ko‘ra, birlamchi manbaga murojaat muhimroq deb qaraladi. O‘quvchi maktub, fotosurat, gazeta materiali, siyosiy nutq, statistik jadval yoki rasmiy hujjat bilan ishlaganda uning qachon, kim tomonidan va nima maqsadda yaratilganini aniqlashi kerak bo‘ladi. Stanford materiali aynan “evaluating historical sources”, “evaluating

photographs", "how to verify historical claims" kabi mashqlar orqali shu malakani shakllantiradi. Bu o‘quvchini manipulyativ yoki biryoqlama tarixiy narrativlarga tanqidiy munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi.[195] Interpretatsiy**a** tarixiy tafakkurning keyingi bosqichidir. Dalillar o‘z-o‘zidan gapirmaydi; ularni tarixchi ma'lum savollar asosida talqin qiladi. Shuning uchun bu model o‘quvchiga "bir voqeaga nega turlicha baho beriladi?", "nega turli tarixiy matnlarda bir xil hodisa turli ma'noda tushuntiriladi?" degan savollarni qo‘yadi. Kanada tarixiy tafakkur yondashuvida "historical perspective-taking" va "ethical dimension" aynan shuni rivojlantiradi: o‘tmishdagi odamlarni hozirgi mezonlar bilan soddalashtirib hukm qilmasdan, ularning tarixiy sharoitini tushunish, lekin shu bilan birga axloqiy masalalarni ham chetlab o‘tmaslik talab qilinadi.Tarixiy empatiya bu modelda hissiy hamdardlik emas, balki tarixiy sharoitni intellektual ravishda tushunishdir, ya'ni o‘quvchi o‘tmishdagi shaxslar bugungi bilim, bugungi qadriyat yoki bugungi siyosiy til bilan emas, o‘z zamonasining imkoniyatlari va cheklovlari bilan fikr yuritganini anglaydi. Bu ko‘nikma tarixiy perspektivani egallash bilan bevosita bog‘liq. Masalan, mustamlakachilik, qullik, mahalliy xalqlar taqdiri yoki fuqarolik huquqlari harakati mavzularida tarixiy empatiya o‘quvchiga turli guruhlarning tajribasini tushunishga yordam beradi. Natijada tarix darsi shunchaki "g‘oliblar tarixi" emas, balki turli ovozlar va turli xotiralarni tahlil qiladigan maydonga aylanadi. Dalillarga asoslangan xulosa chiqarish esa butun modelning yakuniy mahsulidir. O‘quvchi fikr bildirishi mumkin, lekin bu fikr shaxsiy taxmin emas, manba va dalil bilan asoslangan bo‘lishi kerak. Tarixni o‘rganish orqali o‘quvchi demokratiya, inson huquqlari, adolat, erkinlik, madaniyatlararo hurmat kabi qadriyatlarning shakllanish jarayonini tushunadi. Bunda tarixiy voqealar "kim g‘olib bo‘ldi?" degan savol bilan emas, "qanday huquqlar buzildi?", "qaysi guruhlar chetlatildi?", "qaysi kurashlar natijasida tenglik kengaydi?" kabi savollar orqali ham tahlil qilinadi. [196]

AQSh va Kanadadagi "Historical Thinking Skills" modeli tarixiy ta'limni uch yo‘nalishda birlashtiradi: birinchidan, u o‘quvchini tarixchi kabi fikrlashga o‘rgatadi; ikkinchidan, u dalil, talqin va refleksiyani markazga qo‘yadi; uchinchidan, u demokratiya, inson huquqlari, tolerantlik va madaniyatlararo hurmat kabi

umuminsoniy qadriyatlarni tarixiy o‘rganish jarayonining ichki qismiga aylantiradi. Shu sababli bu model akademik litsey o‘quvchilarida nafaqat tarixiy tahlil ko‘nikmalarini, balki ongli fuqarolik va axloqiy mas’uliyatni rivojlantirish uchun ham juda samarali nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Malayziya, Janubiy Koreya, Yaponiya ta’lim tizimlarida umuminsoniy qadriyatlar asosida tarixiy tahlil ko‘nikmalaridan foydalanish tahlili.

Malayziyada tarix ta’limi mustaqillikdan keyingi davrda faqat o‘tmishni bilish vositasi sifatida emas, balki milliy birlik, fuqarolik ong va qadriyatlar tarbiyasini shakllantiruvchi strategik fan sifatida rivojlantirildi. Mamlakat ta’lim siyosatida maktab ta’limi umumiy tarzda bilim, ko‘nikma, qadriyat va shaxsiy sifatlarni uyg‘un rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, Malaysia Education Blueprint 2013–2025 ham o‘quvchilarda bilim bilan bir qatorda fikrlash ko‘nikmalari, yetakchilik, ikki tillilik, axloqiy-ruhiy sifatlar va milliy identitetni shakllantirishni asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilaydi. Shu fon ichida tarix fani o‘quvchilarda vatanparvarlikni, ijtimoiy mas’uliyatni va ko‘p madaniyatli jamiyatga hurmatni rivojlantiruvchi fan sifatida qaraladi. [198]

Tarix darslari o‘quvchini shunchaki voqealarni eslab qolishga emas, balki ularni jamiyat, millat va insoniylik mezonlari asosida tushunishga yo‘naltiradi. Bu yondashuv Malayziya kabi ko‘p etnik va ko‘p konfessiyali jamiyatda ayniqsa muhim, chunki tarix fani milliy birlikni mustahkamlash bilan birga boshqalarning madaniy tajribasiga hurmatni ham shakllantiradi.[199] Ma’naviy tarbiyaning tarix bilan bog‘lanishi ham Malayziya tajribasining o‘ziga xos jihatidir. Bu yerda “ma’naviylik” diniy tushunchagagina tenglashtirilmaydi; u axloqiy fikrlash, mas’uliyat, jamiyat oldidagi burch, vatan oldidagi sadoqat va odob-axloqiy pozitsiyani ham qamrab oladi. Sharhlarda tarix fanining maqsadi o‘quvchilarni tarixiy tafakkurga o‘rgatish bilangina cheklanmay, ularni yanada ongli, qadriyatlarga tayangan fuqaroga aylantirish ekani ko‘rsatiladi. Bunda tarixiy hodisalarni tahlil qilish orqali “qanday bo‘lgan?” savolidan tashqari “buning ma’naviy sabog‘i nima?” degan savol ham muhimlashadi. Demak, tarixiy bilim axloqiy va fuqarolik refleksiyasi bilan bog‘lanadi.

Tarixiy tafakkur o‘quvchida ilmiy mantiqni, argumentatsiya madaniyatini va ishonchli tarixiy hukm chiqarish qobiliyatini shakllantiradi. Malayziya tajribasining ilmiy jihatdan eng qimmatli tomoni shundaki, bu elementlar bir-biridan uzilgan emas. Dalillarni izlash o‘quvchiga material beradi, tarixiy tasavvur shu materialni mazmunli tarixiy manzaraga aylantiradi, mantiqiy xulosa chiqarish esa uni asoslangan fikrga olib keladi. Shu sababli Malayziya modeli tarixiy tafakkurni ko‘p bosqichli jarayon sifatida ko‘radi: bilish, his etish, tasavvur qilish, talqin etish va xulosa chiqarish. Bu uni faqat akademik emas, balki ma’naviy-tarbiyaviy modelga aylantiradi. Yana bir muhim jihat Malayziyada tarixiy tafakkur umumiy ta’lim islohotlari bilan bog‘langan. Rasmiy baholash hujjatlarida tarix fanida case study va loyiha ishlari alohida qayd etilishi, tarixiy tafakkur faqat nazariy tushuncha emas, balki o‘quv natijasi sifatida ko‘rilayotganini anglatadi. Bu yondashuv o‘quvchini faol tadqiqotchi, izlovchi va asoslovchi subyektga aylantiradi.

Malayziya tajribasi tarix ta’limini uch yo‘nalishda uyg‘unlashtiradi: birinchidan, u milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan tarbiyaviy modelni shakllantiradi; ikkinchidan, u kognitiv–affektiv–psixomotor integratsiya orqali tarixni ko‘p o‘lchovli fan sifatida o‘qitadi; uchinchidan, u dalillarni izlash, tarixiy tasavvur va mantiqiy xulosa chiqarish kabi tarixiy tafakkur elementlarini sistemali rivojlantiradi. Shu sababli Malayziya modeli akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun, ayniqsa qadriyat, tafakkur va fuqarolik ongini birlashtirish nuqtayi nazaridan, juda muhim xorijiy tajriba hisoblanadi.

Yaponiya va Koreya ta’lim tajribasining umumiy xususiyati shundaki, bu mamlakatlarda tarix va ijtimoiy fanlar ta’limi faqat milliy o‘tmishni o‘rgatish bilan cheklanmaydi; u o‘quvchini bir vaqtning o‘zida o‘z milliy-madaniy ildizlarini anglaydigan va xalqaro hamjamiyatdagi o‘rnini tushunadigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda “milliy identitet” va “global qadriyatlar” qarama-qarshi tushunchalar emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi ikki yo‘nalish sifatida ko‘riladi. UNESCO ham global fuqarolik ta’limi milliy fuqarolikni inkor etmasligi, aksincha, uni kengroq insoniy hamjihatlik, huquq, adolat va tinchlik bilan bog‘lab kuchaytirishini ta’kidlaydi. [203] Yaponiya tajribasida bu uyg‘unlik juda yaqqol

ko‘rinadi. MEXTning o‘quv dasturi bo‘yicha rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, ijtimoiy fanlar ta’limining umumiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarda “o‘z milliy vatani va tarixini tushunish va sevish” tuyg‘usini shakllantirish bilan birga, ularni “xalqaro hamjamiyatning tinch va demokratik a’zosi” sifatida kamol toptirishdir. Bu formulada milliylik va xalqaro mas’uliyat bir-biridan ajralmagan holda berilgan: o‘quvchi avvalo o‘z tarixini anglaydi, keyin uni kengroq demokratik va xalqaro kontekstda tushunadi.[204] Yaponiyaning Basic Act on Education hujjatida ham ta’limning vazifasi shaxs qadr-qimmati, haqiqat va adolatga intilish, public spirit, ya’ni jamoat manfaatini anglash, an’analarni davom ettirish va yangi madaniyat yaratish bilan bog‘lanadi. Bu juda muhim nuqta Yaponiya ta’limida tarixiy xotira faqat “milliy faxr”ni emas, balki jamoa oldidagi burch, ijtimoiy birdamlik va mas’uliyatli fuqarolikni ham shakllantirishi kerak deb qaraladi. Shu sababli tarixiy materiallar o‘quvchida “men kimman?” degan savol bilan birga “jamiyat oldidagi vazifam nima?” degan savolni ham uyg‘otadi.[205] Yapon ta’lim siyosatining yana bir muhim tomoni shundaki, milliy identitetni shakllantirish “tashqi dunyodan uzilish” orqali emas, balki xalqaro ochiqlik va hamkorlikka tayyorlik bilan uyg‘unlashtiriladi. Yaponiya tajribasini bir yoqlama ideal model sifatida talqin qilish to‘liq to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ilmiy adabiyotlarda yapon ta’limida “internationalization” va milliy o‘zlikni mustahkamlash o‘rtasida ba’zan taranglik ham mavjudligi ko‘rsatiladi. Ayrim tadqiqotchilar global ochiqlik siyosati ba’zan yapon madaniy o‘ziga xosligini himoya qilish diskursi bilan yonma-yon yurishini qayd etadilar. Demak, Yaponiya tajribasining ilmiy ahamiyati shundaki, u bizga milliy identitet va globalizmning tayyor muvozanatini emas, balki ularni pedagogik jihatdan muvofiqlashtirishga bo‘lgan urinishni ko‘rsatadi. [208]

Koreya tajribasida ham shunga o‘xshash, ammo o‘ziga xos model mavjud. Koreya milliy o‘quv dasturida ta’limning umumiy maqsadi Hongik Ingan idealiga, ya’ni insoniylikni keng foyda keltirish ruhi bilan bog‘lanadi. 2015- yilgi milliy o‘quv dasturi matnida ta’lim har bir fuqaroga inson qadr-qimmatiga munosib hayot kechirish, demokratik davlat taraqqiyotiga hissa qo‘shish va shared human prosperity, ya’ni “umumiy insoniy farovonlik”ni ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish uchun

zarur sifatlarni shakllantirishi kerakligi aniq yozilgan. Bu yerdagi uchlik inson qadr-qimmati, demokratik fuqarolik va umumiy insoniy farovonlik Koreyada milliy va global qadriyatlar qanday bog‘lanishini juda ravshan ifodalaydi.[209] Koreya ta’lim modelida milliy identitet uzoq vaqt davomida kuchli etnik va madaniy birxillik g‘oyasi bilan bog‘lanib kelgan. Ilmiy manbalarda maktab ta’limi patriotizm va milliy g‘ururni mustahkamlashda muhim rol o‘ynagani, biroq keyingi davrlarda globalizatsiya, migratsiya va ijtimoiy xilma-xillikning ortishi bu modelni qayta ko‘rib chiqishga majbur etgani qayd etiladi. Ayniqsa, ijtimoiy fanlar va fuqarolik ta’limida demokratik fuqarolik, ko‘pmadaniyatlilik, inson huquqlari va global citizenship elementlari tobora kuchaygan. [210] Shu nuqtayi nazardan, Yaponiya va Koreya tajribasida tarix orqali ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish bir necha aniq mexanizm orqali tushuntiriladi. Birinchidan, tarix o‘quvchida jamoaga mansublik va milliy xotira hissini shakllantiradi. Ikkinchidan, tarixiy voqealar demokratik institutlar, huquq va erkinliklar, urush va tinchlik, kamsitish va birdamlik kabi masalalar bilan bog‘langani uchun o‘quvchi ijtimoiy hayotning axloqiy tomonini anglaydi. Uchinchidan, tarixiy bilim “o‘tmishni bilish” bilan tugamaydi; u hozirgi muammolar bo‘yicha fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga olib keladi. To‘rtinchidan, global qadriyatlar bilan integratsiya tufayli o‘quvchi o‘z millatiga sadoqatni boshqalarga hurmatsizlik bilan emas, balki o‘z tarixini anglagan holda boshqalarni tan olish madaniyati bilan uyg‘unlashtiradi.

Tarixiy tafakkur nafaqat o‘tmishni tushunish, balki hozirgi jamiyatda ongli va mas’uliyatli pozitsiya egallashga xizmat qiluvchi intellektual va aksiologik tizimdir. Xorij tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tarix fanini o‘qitishda asosiy maqsad o‘quvchini tarixni biluvchi emas, balki tarixni tahlil qiluvchi, baholovchi va undan xulosa chiqaruvchi shaxs sifatida shakllantirishdir. Ayniqsa, umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan tarixiy ta’lim ijtimoiy ongli, mas’uliyatli, global fikrlaydigan avlodni tarbiyalaydi.

2.2 §.Umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik asoslari

Ta’limni zamonaviy talablar asosida tashkil etish, uning mazmunini milliy an’analar, qadriyatlar asosida takomillashtirish orqali samaradorlikka erishish, yangi texnologik yondashuvlarni qo‘llash, tarixiy qadriyatlar, an’analarning didaktik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish ta’lim islohotlarining asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi. Shu yo‘nalishda tarix fanlarini o‘qitishda bugungi kundagi yangiliklar, o‘zgarishlar va qonunlar, zamonaviy manbalar, erishilayotgan natijalar, bo‘lib o‘tayotgan eng so‘nggi voqeliklar bilan bir qatorda tarixiy manbalardan foydalanish texnologiyalarini yaratish dolzarb pedagogik muammolar sirasiga kiradi. Bu muammolar dunyo miqyosida tadqiq etilib, tarixchi va pedagoglar tomonidan ularning yechimiga oid yangi ilmiy xulosalar taqdim etib borilmoqda. Xususan, real tarixiy voqeliklarning tarixiy ta’minoti namunalaridan amaliyotda foydalanish borasida AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiyada olib borilgan tadqiqotlar natijalari mazkur tadqiqot uchun o‘ziga xos metodologik asos vazifasini o‘taydi. Jamiyatimizning yangi rivojlanish bosqichida tarixni o‘qitishning me’yoriy asoslari Davlat ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturini bosqichma-bosqich modernizatsiyalashtirish, optimallashtirish, uzviylashtirish prinsiplari asosida takomillashtirib borilmoqda. Bu jarayonda tarix fanlarining obyektivligi, dalillarga asoslanganligini ta’minlash oliy ta’limda o‘qitiladigan tarix fanlarining haqqoniyligini kafolatlaydi. Shu ma’noda tarix ta’limida tarixiy tahlil ko‘nikmalaridan foydalanishning mazmuni va metodikasini ishlab chiqish, uning didaktik imkoniyatlarini aniqlash zaruriyati yuzaga kelmoqda.

M.Boltayevaning fikricha, tarix fanlarini o‘qitish metodlari tizimini tashkil etgan ko‘rgazmali va og‘zaki matnlar vositasida ta’lim berish hamda amaliy metodlar bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘langan. Ular o‘rtasidagi bog‘lanish o‘qitish usullari va ularga muvofiq fikrlash faoliyat turlarining o‘zaro aloqasi va bir-biriga ko‘rsatgan ta’siriga asoslanadi. Bu borada raqamli tarixiy didaktik ta’minotdan tarix fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirishning qo‘shimcha va ishonchli didaktik

imkoniyati sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. [51]

Akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta’minot manbalari xilma-xil bo‘ladi. Tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta’minotini o‘rganishning qiyinligi va osonligi uning to‘g‘ridan to‘g‘ri mazmuniga, qanday xilda ekanligiga bog‘liq. Tarixiy kitoblarga chizilgan raqamli tarixiy suratlar ustida ishlash muayyan darajada murakkabligi bilan ajralib turadi. Adabiy xarakterdagi tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning tarixiy didaktik ta’minotni boshqalarga nisbatan anglash osonroq bo‘ladi. Shuning uchun ham tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta’minotidan foydalanishni zarur deb hisoblash bilan birga qaysi xildagi tarixiy manbalarni, nima uchun va qay yo‘sinda ishlatish ham pedagogik muammo hisoblanadi.

A. Minavvarovning fikricha, “...berilayotgan bilimlar ko‘rish va eshitish orqali yetkazib berilsa-da, ammo aynan amaliy metod orqali ma’lumotlarni to‘liq egallash va mukammal eslab qolish imkonini beradi” [97]. Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda ta’kidlash mumkinki, tarix darslarining samaradorligiga o‘qituvchining ko‘rgazmali, og‘zaki va raqamli metodlardan yuqori darajada va mahorat bilan foydalanish imkoniyatlariga tayanilgandagina erishiladi. Akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish didaktik ta’minot asosida ularda tarixga oid bilimlarni rivojlantirishda faqat ta’lim-tarbiyaviy vazifalar va mazmunni bilish yoki tarix o‘qitishning ilmiy asoslarini egallashning o‘zi kifoya qilmaydi. Tarix fanlarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning tarixga oid materiallarni o‘zlashtirishi faqat darsda emas, balki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham davom etadi. Shu ma’noda, raqamli ta’lim platformalari orqali tarixiy voqeliklarni mustaqil o‘rganish va o‘zlashtirish tarix fanlarini o‘qitishda muhim didaktik imkoniyat sifatida xizmat qiladi. Tarix darslari tizimida, ayniqsa, dars turini tanlashda tarix dasturi materiallarining g‘oyaviy mazmuni, uning ta’limiy va tarbiyaviy vazifalari hamda akademik litsey o‘quvchilarining umumiy tayyorgarligi asos qilib olinadi. Shu bois, tarix darslarida modulli o‘qitish tizimidan foydalanish o‘quvchilarning bilimni bosqichma-bosqich o‘zlashtirishini ta’minlab, ularda mustaqil izlanish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Dars jarayonida

o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun virtual trenajyorlardan foydalanish ularning tarixiy voqealarni yanada chuqurroq anglashi va tahlil qilishiga yordam beradi. Shu bilan birga, mobil ilovalar orqali talabalarga dars materiallariga istalgan vaqtda va joyda kirish imkoniyati yaratiladi, bu esa ta’lim jarayonidagi davomiylikni ta’minlaydi. Tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta’minoti tarix darslarida foydalanish uchun tayyor manba sifatida xizmat qilib, akademik litsey o‘quvchilarida mustaqil izlanish, tahlil qilish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali vositaga aylanadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi o‘quvchilarning tarixiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi va ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini kengaytiradi.

Tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta’minoti asosida tarix fanlarini o‘qitishning didaktik asoslarini rivojlantirishda tarixiy voqealarning jonli tasviriga, tarixiy shaxslar, davlat va jamoat arboblari va xalqning turmush sharoitini ko‘rsatishga, muhim tarixiy voqealar bo‘lib o‘tgan joylarni va u yerlarning aniq sharoitini tasvirlashga qaratilgan materiallarning samaradorligi yuqori bo‘ladi. Muayyan didaktik talablar asosida tanlab olingan tarixiy mavzudagi tarixiy asarlarning didaktik imkoniyatlari quyidagilarda o‘z ifodasini topadi: tarixiy bilimlarning asosiy manbalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi; o‘quv materiallarining ta’lim-tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda yordam beradi; o‘qituvchi o‘quv materialini aniq, obrazli va emotsional bayon qilishiga yordam beradi; akademik litsey o‘quvchilarining o‘quv materialini o‘rganishga qiziqishini oshiradi va ularning bilish faoliyatini faollashtiradi; o‘qituvchi bayonini va darsda qo‘llagan boshqa o‘quv usullarini o‘quvchilar tomonidan tushunib olishini yengilashtiradi; o‘quvchilarning informatsion-analitik kompetentligini, fikrlash faoliyati va ijodiy qobiliyatini o‘stiradi; o‘quvchilarning tarixiy bilimlarini aniq, chuqurroq va mustahkamroq bo‘lishini ta’minlaydi.

Tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta’minoti o‘zining mazmuni, ularning tayyorlanish texnikasi va foydalanish usullariga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi: tarixiy yodgorliklar, esdalik joylar, xo‘jalikka oid va

boshqa qurilishlar, mehnat qurollarining rasmlari; o‘qishda foydalanish uchun ishlangan tarixiy rasmlar va albomlar, boshqa turdagi san’at asarlari, shartli ko‘rsatmali qurollar, tarixiy kartalar. Tajribalar, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tarix ta’limida bu didaktik ta’minotdan kam foydalaniladi. Aslida tarix darslarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan manbalar, adabiyotlar va tasvirlar juda ko‘p. Jumladan: real tarixiy voqeliklarga oid hujjatlar asosida,tarixiy jarayonlar davrida yaratilgan tarixiy asarlar, shuningdek, “Zafarnoma” va “Boburnoma”ga ishlangan miniatyuralar; ilmiy jihatdan asoslab, rekonstruksiya qilingan arxitektura va boshqa yodgorliklarning rasmlari, rassomlar tomonidan yaratilgan tarixiy mavzudagi raqamli tarixiy asarlar, masalan, akademik G. Pugachenkovaning qadimiy tarixiy me’moriy obidalar haqidagi fundamental ilmiy asarlari, shuningdek, A. Aliqulov, Z. Faxriddinov, M. Nabiyev asarlari. Ulardan foydalanish didaktik imkoniyat sifatida tarix darslari samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta’minoti asosida tarix fanlarini o‘qitishning didaktik asoslarini rivojlantirish tarixiy bilimlarni tez va oson shakllantirish imkonini beradi. M.Boltayevaning fikricha, bu didaktik ta’minot tarixiy fakt va hodisalarni faqat tashqi ko‘rinishinigina emas, balki ularning ichki mohiyatini ham ochib beradi va tarix fanlarini o‘qitishning didaktik asoslarini rivojlantirishda ko‘z bilan ko‘rib, idrok etish ehtiyojining yuqoriligi tarix darslarida tarixiy mavzudagi raqamli tarixiy ta’minotdan foydalanishning muhim ta’limiy samarasining pedagogik kafolati ekanligidan dalolat beradi. [51] Shuning uchun dars o‘tishda matn va barcha illyustratsiyalardan ko‘rgazmali vosita sifatida foydalanish metodlari bilan bilim olishni tashkil etish asosiy usul sanaladi. Masalan, bayon etilayotgan mavzu matnni akademik litsey o‘quvchisi ko‘z o‘ngida namoyon bo‘lishi uchun o‘sha davr muhitidan kelib chiqqan holda ishlangan tarixiy material asosida boyitiladi. Bu esa o‘quvchida ham bilim olish, ham qiziqish tuyg‘ularini kuchaytiradi.

Tarixiy asarlar akademik litsey o‘quvchilarida tarixga oid bilimlarni rivojlantirishga, tarixiy jarayonlarga nisbatan nazariy xulosalar chiqarish va umumlashtirilgan yakunlar orqali ijtimoiy rivojlanishning obyektiv qonuniyatlarini

yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi. Bunday asarlar orqali o‘quvchilarning ko‘rish organlari ishtirokida mushohada qilish imkoniyati bilan cheklanib qolmay, balki ularda tarixiy voqeliklarni tahlil qilish va anglash qobiliyati rivojlanadi. M.Boltayevaning fikricha, mediakontent orqali yaratilgan tarixiy materiallar vizual tafakkurni shakllantirib, o‘quv jarayonini qiziqarli va mazmunli qiladi. [51]

Murakkab tarixiy hodisalarning obyektiv qonuniyatlarini to‘g‘ri anglashda raqamli ta’minotning illyustrativ namunalari tarixiy manbalarga asoslangan holda tuzilishi zarur. Bu jarayonda ta’lim resurslarini personallashtirish orqali har bir talabaning individual ehtiyojlariga muvofiq tarixiy asarlar tanlanadi va taqdim etiladi. Shu bilan birga, raqamli tasvirlarda aks etgan lavhalar o‘quvchilarga o‘sha davr muhitini his etish imkonini berib, matnni o‘rganish jarayonida bilimlarni tez va samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Ushbu jarayonda kreativmuloqot muhitini shakllantirish orqali o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasida samarali aloqa yo‘lga qo‘yiladi, ularning mustaqil fikr yuritishi va bahs-munozaralarda ishtirok etishi ta’minlanadi. O‘quvchilarning bilimni mustahkamlash jarayonida reproduktivlik tamoyiliga asoslangan topshiriqlardan foydalanish ularning nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi.

M. Boltayevaning fikricha, tarix ta’limini didaktik ta’minotini modernizatsiyalashda tarixiy asarlarni tanlashda quyidagi talablarga rioya qilinadi: o‘rganiladigan asarlar tarixiy jarayon qonuniyatlarini yaxshiroq tushunish va o‘zlashtirib olishda talabalarga yordam berishi va tarixning asosiy bosqichlarini aks ettirgan bo‘lishi zarur; bu raqamli tarixiy asarlar hajm hamda mazmun jihatidan katta va murakkab bo‘lmasligi, ularga ta’rif berilgan parchalar tanlab olinishi lozim; tanlangan raqamli tarixiy asarlar va ulardan olingan qismlar o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi kerak. [51]

Tarixiy tahlil ko‘nikmlarini rivojlantirishning didaktik ta’minoti o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasining eng muhim vositasi sifatida ularning hissiyoti, ongiga ta’sir etishi bilan keng pedagogik imkoniyatga ega. “Tarixiy rasmlarning vazifasi fikrga dalil bo‘lish, uni yorqin tasavvur etishga yordamlashish, unga eng ko‘p darajada aniqlik va ravshanlik kiritishdan iborat. Tarixiy voqea-hodisalarni tahlil etish va ulardan tegishli

xulosalar chiqarishda tarixiy rasmlarning g‘oyat muhim pedagogik ahamiyati va imkoniyati ham mana shunda”[122], – deb ta’kidlaydi S. Sa’diyev.

XIII- XIV asr boshlarida Chingizxonning O‘rta Osiyoga qilgan istilosi, xalqlarimizning mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashi mavzusiga bag‘ishlangan darsda bosqinchi Chingizxonning O‘rta Osiyoni bosib olishi va uning sabablari, jang tasvirini to‘liq ochib berishda qo‘shimcha raqamli manbalardan foydalanish va ularni sun’iy intellekt imkoniyatlari asosida yaratish yaxshi samara beradi. Bu mavzuni o‘rganayotganda Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asaridan foydalanish, mavzuni o‘zlashtirishni yanada osonroq kechishini ta’minlaydi. Xuddi shunday fikrlarni Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari hamda u asosida ishlab chiqish mumkin bo‘lgan materiallarga nisbatan ham bildirish mumkin. “Boburnoma”ning 2008-yilgi nashriga so‘z boshi yozgan taniqli boburshunos olim Vahob Rahmonov “Boburnoma”ning kotibi Boburning ulug‘ podshohlarga xos sakkiz shaxsiy fazilatini qayd etganligini yozadi[169] . U qudratli podshohning yaxshiliklarini aytgan bilan va yozgan bilan tugatish maholdir. Lekin qisqasi buni, sakkiz asl sifat uning zotiga xos edi: biri bu kim – iqboli baland edi; ikkinchisi – himmatli inson edi; uchunchisi – viloyat olmoq edi; to‘rtinchisi – viloyat saqlamoq edi; beshinchisi – ma’murlik; oltinchisi – Alloh bandalariga farovonlik niyatli; yettinchisi – lashkar ko‘nglini qo‘lga olmoq; sakkizinchisi – adolat qilmoq. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning memuar, o‘lmas asari xalqimizning yorqin va ishonchli tarixining zarvaraqlaridan bo‘lib, “Boburnoma” asari to‘g‘risida bir qator tadqiqotchi va olimlar fikr bildirishgan.

V.V. Bartold “Boburnoma – o‘zbek prozasining XVI asrdagi nodir yodgorligidir”, – deb yozgan bo‘lsa, akademik V. Zohidov “Boburnoma”ning 1960-yil nashriga yozgan kirish so‘zini bunday yakunlagan edi.”Hech shubha yo‘qki, biz Bobur va boshqa tarixiy buyuk shaxslarning boy va ko‘p qirrali merosidan davrimizning muhim vazifalarini bajarishda bizga yordam beradigan hamma yaxshi narsalarni olishimiz va foydalanishimiz lozim, buni qilmoqdamiz ham”,– deb yozadi[169]. Shu bilan birga “Boburnoma” arab alifbosida, ya’ni eski o‘zbek tilida yozilgani, asarda taxminan 36 yillik voqealar qalamga olinganligi, asarda 1494-1524

yilgacha bo‘lgan voqealar tasvirlanganligi, voqealar silsilasi Bobur vafotidan 16 oy oldin (1529 yil avgustda) uzilganligi, bundan tashqari, turli yillardagi voqealar uzilishlari 16-17 yilni tashkil etishi va shunday qilib hozirgi “Boburnoma” 20 yilga yetar-yetmas voqealar bayonidan iborat ekanligini aytadi.

“Boburnoma” asariga oid maxsus asar yozgan Ansoriddin Ibrohimovning “Boburnoma” buyuk asar risolasi “Boburnoma” to‘g‘risidagi asarlar orasida o‘z ilmiyligi bilan ajralib turadi[61]. Ushbu risolada muallif “Boburnoma”ni Fransiya, Germaniya, Angliya, Amerika, Rossiya, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Yaponiya va O‘zbekistonda o‘rganilishi va uning qo‘lyozma nashrlari, tarjimalari va tanqidiy matnlari haqida ilmiy fikrlarni bayon etgan. Saidbek Hasanovning “Boburnoma”ni 2002-yilgi nashriga yozgan so‘z boshisida “Boburnoma”da [50]1605 nafar kishi, 1151 joy, 277 qavmi-qabila, nasab, 414 hayvon va o‘simliklar, 40 ta kitob risola, 18 ta maqol va hikmat, 94 ta she’riy hikmat berilganligini qayd etib o‘tgan.

Shuningdek, shoh asar “Boburnoma”da ilmiy ma’lumotlarning behad ko‘pligi va ular hozirgi tarmoqlashgan fanlarning ellikka yaqin sohalariga mansubligini inobatga olsak, “Vaqoe Boburnoma”ni qomusiy ensiklopedik asar deyish mumkin. “Boburnoma”da yuqorida keltirib o‘tilgan yo‘nalishlarni qamrab olgan tarixiy suratlarni ishlab chiqish, raqamli tarixga doir yondashuv va metodlar imkoniyatlaridan foydalangan holda foydalanish ham o‘quvchilarga kompleks ta’sir etish imkoniyatlarini oshiradi.

Tarixiy tahlil ko‘nikmlarini rivojlantirishning didaktik ta’minoti asosida tarix fanlarini o‘qitishning didaktik asoslarini rivojlantirishda Kamoliddin Behzod va Shoh Muzaffar to‘g‘risida “Boburnoma”da berilgan ma’lumotlar ahamiyatlidir. Bir o‘rinda “Boburnoma”da: “Ustoz Behzod va Shoh Muzaffar tasvirida bekning sayi va ehtimomi bila shundoq mashhur va ma’ruf bo‘ldilar”, – deyilsa, boshqa o‘rinda: Musavvirlardin Behzod edi, Musavvirlik ishini bisyor nozuk qildi. Vale soqolsiz elning chehrasini yomon ochadir. G‘arg‘abini ko‘p ulug‘ tortadir. Soqollik kishini yaxshi chehrali, kushoylik qiladur [50]. Yana Shoh Muzaffar edi, tasvirni ko‘p nozuk qilur edi, ta’shirni xudguzaro nozik qilur edi [50] . Yuqoridagi ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, “Boburnoma” nafaqat tarixiy voqeliklar, balki shu voqeliklarni yuksak

mahorat bilan tasvirlagan rassomlar haqida ham muhim ma’lumotlar beradi. Qolaversa, bunday ta’rif ular yaratgan miniatyuralarning haqqoniyligi bilan ham izohlanadi. Shularga asosan e’tirof etish o‘rinliki, tarixiy didaktik ta’minot zamonaviy sharoitdagi tarix ta’limi uchun mukammal o‘quv-illyustrativ material vazifasini o‘taydi. Demak, “Boburnoma” asariga ishlangan illyustrativ rasmlar, suni’iy intellekt imkoniyat asosida yaratilgan tarixiy hodisalarga doir video va audio materiallar ham alohida ahamiyatga ega. Natijada tarix darslaridada tarixiy mavzudagi raqamli tarixiy didaktik materiallardan foydalanish imkoniyati sezilarli darajada ortadi.

“Zafarnoma” asariga ishlangan “Sohibqironning yurishi”, “Temur Malik”, “Jaloliddin Manguberdi” [160] kabi qahramonlar siymosini ifodalovchi tarixiy rasm va video materiallar ijodkor pedagogning ish usulini boyitadi va darsdan ko‘zlangan maqsadlarga erishishni ta’minlaydi.

Tarix darslarida asosiy mavzudan chetlanmagan holda yuqorida keltirilgan ma’lumotlar o‘quvchilarga ikki yo‘nalishda ijobiy ta’sir etadi. Birinchidan, yuqoridagi ma’lumotlar tarixiy mavzudagi raqamli tarixiy materiallar naqadar yuqori darajadagi imkoniyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Ikkinchidan, mazkur manbalar real tarixiy voqelikning tasviriy ekvivalenti sifatida akademik litsey o‘quvchilarining tarixiy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta’minotida aks ettirilgan ifodalar o‘quvchilarning tarix haqidagi yangicha tasavvurlari, bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi, ya’ni tasvir qanchalik mukammal bo‘lmasin, ulardan foydalanishda muayyan pedagogik talablarga amal qilish lozim.

Tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta’minotidan foydalanib, darsning “didaktik qurilishi”ni quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiq: o‘qituvchi ushbu asarning tasviriga oid ma’lumotni asosli, ta’sirchan tarzda bayon qilganidagina o‘quvchilar ongida tarixiy voqea tasavvur sifatida hosil bo‘ladi. Pedagog bunga ma’lum vaqt ajratishi lozim; mavzuda o‘rganilishi nazarda tutilgan tarixiy davrga oid voqea sodir bo‘lgan joy va vaqtni to‘g‘ri belgilash va unga mos illyustrativ material, raqamli tasvir namunasini tanlash; tasvir to‘g‘risida ikkinchi

darajali ma’lumotlarni berar ekan, asosiy fikrga ustuvor tarzda ahamiyat berish; yaxlit tarixiy voqealarni induktiv va deduktiv metodlardan foydalangan holda tushuntirish, ya’ni darsning yakunida umumlashtirib xulosa chiqarish va bunga dalillar keltirish. Akademik litsey ta’limida tarix fanini o‘qitish bugungi kunda faqat tarixiy faktlar, sanalar va voqealarni o‘zlashtirish bilan chegaralanib qolmasligi lozim. Zamonaviy didaktik yondashuv tarix ta’limining markaziga o‘quvchining tarixiy tafakkuri, tahliliy fikrlashi, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish qobiliyati va ijtimoiy-axloqiy pozitsiyasini qo‘yadi. Ayniqsa, tarixiy tahlil ko‘nikmalarini umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish masalasi ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari, baholash tizimi va pedagogik sharoitlarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Shu sababli mazkur yo‘nalishdagi didaktik asoslarni takomillashtirish bir qator o‘zaro bog‘liq vazifalarni ilmiy asosda belgilashni zarur etadi. Avvalo, tarixiy tahlil ko‘nikmalarining didaktik mohiyatini qayta aniqlash zarur. An’anaviy amaliyotda tarixiy bilim ko‘pincha tayyor ma’lumotni eslab qolish va qayta hikoya qilish darajasida qolib ketadi. Vaholanki, tarixiy tahlil ko‘nikmasi o‘quvchining tarixiy hodisani turli manbalar asosida o‘rganishi, sabab-oqibat aloqalarini aniqlashi, voqealarni turli nuqtai nazardan talqin qilishi, tarixiy vaziyatlarni qiyosiy tahlil qilishi, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishi va ularni axloqiy-ijtimoiy mezonlar asosida baholay olishini nazarda tutadi. Shu ma’noda birinchi vazifa tarixiy tahlil ko‘nikmalarining tarkibiy tuzilmasini ilmiy jihatdan aniqlashtirishdan iboratdir. Bu tuzilma kamida kognitiv, analitik, aksiologik va refleksiv komponentlarni qamrab olishi kerak. Kognitiv komponent tarixiy bilim va tushunchalarni, analitik komponent tahlil, taqqoslash, interpretatsiya va umumlashtirishni, aksiologik komponent tarixiy voqealarni umuminsoniy qadriyatlar asosida baholashni, refleksiv komponent esa o‘z pozitsiyasini anglash va qayta ko‘rib chiqishni ifodalaydi.

Ikkinchi muhim vazifa tarix ta’limining maqsad va natijalarini kompetensiyaviy hamda qadriyaviy yo‘nalishda qayta belgilashdan iborat. Tarix fanini o‘qitishda maqsad faqat “biladi” yoki “eslab qoladi” shaklidagi natijalar bilan cheklanmasligi kerak. O‘quvchi tarixiy voqeani tahlil qila olishi, uning mazmunini hozirgi ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘lay olishi, tarixiy adolatsizliklarni anglay olishi,

inson huquqlari, adolat, tolerantlik, tinchlik, madaniyatlararo hurmat kabi qadriyatlar asosida mustaqil pozitsiya shakllantira olishi zarur.

Uchinchi vazifa tarix ta’limi mazmunini modernizatsiya qilish va uni aksiologik jihatdan boyitish bilan bog‘liq. Tarix darsliklari va o‘quv materiallarida voqealar ko‘pincha siyosiy jarayonlar, hukmdorlar faoliyati yoki urushlar tarixi doirasida yoritiladi. Biroq bugungi didaktik talab tarixiy mazmunga ijtimoiy hayot, madaniy munosabatlar, inson taqdiri, erkinlik uchun kurash, huquq va adolat muammolari, madaniyatlararo muloqot, tinchlik va totuvlik g‘oyalarini chuqur singdirishni talab etadi. Shu bois didaktik asoslarni takomillashtirish vazifasi sifatida tarix ta’limi mazmuniga umuminsoniy qadriyatlar bilan uzviy bog‘langan mavzularni tizimli kiritish zarur. Masalan, inson huquqlari tarixi, qullik va mustamlakachilik oqibatlari, urush va tinchlik saboqlari, diniy va etnik bag‘rikenglik, ayollar huquqlari, madaniy merosni asrash, totalitarizmning salbiy oqibatlari kabi masalalar tarixiy tahlil obyektiga aylantirilishi kerak.

To‘rtinchi vazifa o‘qitish metodlarini yangilash va interfaol, muammoli, tadqiqotga yo‘naltirilgan yondashuvlarni tizimli joriy etishdir. Tarixiy tahlil ko‘nikmasi faqat ma’ruza tinglash yoki matnni o‘qish orqali shakllanmaydi. U faol bilish, mustaqil izlanish va muammoli vaziyatlarda fikrlash natijasida rivojlanadi. Shu sababli tarix darslarida muammoli ta’lim, tadqiqot asosida o‘qitish, manbalarni qiyosiy tahlil qilish, debat va munozaralar, tarixiy sud, rolli o‘yinlar, case study, loyiha metodi kabi metodlarni qo‘llash didaktik takomillashtirishning muhim vazifasi hisoblanadi. Bu metodlar o‘quvchilarni tayyor xulosani qabul qilish emas, balki tarixiy haqiqatga dalil va fikrlar orqali yaqinlashishga o‘rgatadi. Natijada o‘quvchi tarixni yodlaydigan emas, balki uni tushunadigan va tahlil qiladigan subyektga aylanadi.

Beshinchi vazifa tarixiy manbalar bilan ishlashning didaktik tizimini takomillashtirishdir. Tarixiy tahlil ko‘nikmasining markazida manba bilan ishlash qobiliyati turadi. O‘quvchilar rasmiy hujjatlar, memuarlar, statistik ma’lumotlar, xaritalar, suratlar, arxiv materiallari, gazeta matnlari, og‘zaki tarix namunalarini tahlil qila olishi lozim. Shu jarayonda ular manbaning muallifi, yaratilgan davri, maqsadi,

ishonchlilik darajasi, subyektivligi va tarixiy qiymatini baholashga o‘rganadi. Demak, didaktik takomillashtirish vazifalaridan biri tarix darslarini manba markazli o‘qitish modeliga bosqichma-bosqich o‘tkazishdan iboratdir. Bu yondashuv tarixiy tafakkurning ilmiyligini kuchaytiradi va o‘quvchilarda dalillarga tayangan xulosa chiqarish madaniyatini shakllantiradi.

Oltinchi vazifa tarixiy interpretatsiya va tarixiy empatiyani rivojlantirishga qaratilgan didaktik mexanizmlarni ishlab chiqishdir. Tarixiy voqealar odatda yagona, o‘zgarmas talqinga ega emas. Bir voqea turli guruhlar, tabaqalar yoki xalqlar tomonidan turlicha ko‘rilgan bo‘lishi mumkin. Shu bois o‘quvchini tarixiy manzarani ko‘p nuqtai nazardan ko‘rishga o‘rgatish muhim. Tarixiy empatiya esa o‘tmishdagi shaxslarning xatti-harakatlarini bugungi mezon bilan soddalashtirib hukm qilmasdan, o‘sha davr sharoiti, qadriyatlari va imkoniyatlari doirasida tushunishga yordam beradi.

Yettinchi vazifa ta’lim jarayoniga qadriyatlarga asoslangan baholash tizimini joriy etishdir. Mavjud baholash amaliyotida ko‘pincha tarixiy bilimlarning reproduktiv darajasi, ya’ni sanalarni bilish, tushunchalarni aytib berish, matnni qayta hikoya qilishga urg‘u beriladi. Ammo tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun baholash mezonlari ham yangicha bo‘lishi kerak. O‘quvchining dalillarni tanlashi, sabab-oqibatni asoslay olishi, tarixiy voqeani bir nechta nuqtai nazardan ko‘ra olishi, umuminsoniy qadriyatlar asosida baholay olishi va xulosasini mantiqan himoya qila olishi ham baholanishi lozim. Shuning uchun didaktik asoslarni takomillashtirish vazifalaridan biri tarix fanida kognitiv natijalar bilan bir qatorda analitik, aksiologik va refleksiv natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqishdan iborat.

Sakkizinchi vazifa o‘qituvchining metodik kompetensiyasini kuchaytirishdir. Tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi darsni tashkil eta olish uchun o‘qituvchi nafaqat tarixiy materialni yaxshi bilishi, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, manbashunoslik asoslarini, interfaol metodlarni, baholashning mezonli usullarini ham puxta egallagan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi bilim beruvchi emas, balki fikrlashni tashkil etuvchi, savol qo‘yuvchi, o‘quvchining izlanishiga yo‘l ko‘rsatuvchi fasilitator

vazifasini bajarishi lozim. Shu bois mazkur yo‘nalishdagi didaktik takomillashtirish vazifasi sifatida o‘qituvchilar uchun maxsus metodik tavsiyalar, treninglar, amaliy seminarlar, tarixiy manbalar banki va namunaviy dars ishlanmalarini ishlab chiqish zarur.

To‘qqizinchi vazifa milliy va xorijiy tajribalarni integratsiya qilish asosida didaktik model yaratishdan iborat. Akademik litseylarda tarix ta’limini takomillashtirish jarayonida faqat xorijiy tajribani ko‘chirib olish yoki faqat mahalliy an’analar bilan cheklanib qolish to‘g‘ri emas. Aksincha, milliy tarixiy meros, o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlari va tarixiy tajribasini AQSh va Kanada tarixiy tafakkur modeli, Buyuk Britaniyaning inquiry-based learning tajribasi, Germaniyaning tarixiy ong yondashuvi, Finlyandiyaning fenomen asosidagi ta’limi, Malayziya, Yaponiya va Koreyaning qadriyaviy integratsiya tajribalari bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Demak, didaktik asoslarni takomillashtirish vazifalaridan biri akademik litsey sharoitiga mos, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni birlashtirgan mualliflik didaktik modelini yaratish hisoblanadi.

O‘ninchi vazifa ta’lim jarayonida refleksiya va metakognitiv faoliyatni rivojlantirishdir. Tarixiy tahlil o‘quvchi tomonidan faqat tashqi ma’lumotni qayta ishlash emas, balki o‘z fikrini kuzatish, savollariga javob izlash, xulosalarini qayta ko‘rib chiqish, dalillar asosida o‘z pozitsiyasini boyitish jarayonini ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli dars yakunida refleksiv savollar, tahliliy yozuvlar, o‘z-o‘zini baholash topshiriqlari, “nima bildim?”, “nima tushundim?”, “qanday xulosa chiqardim?” kabi metakognitiv mashqlarni joriy etish muhim vazifa sanaladi. Bu o‘quvchida mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantiradi va tarixiy tafakkurning chuqurligini oshiradi.

O‘n birinchi vazifa ta’lim vositalari va didaktik resurslarni yangilash bilan bog‘liq. Tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun faqat darslik yetarli emas. O‘quvchilarga hujjatlar to‘plami, tematik manbalar, vizual materiallar, raqamli platformalar, tarixiy xaritalar, statistik ma’lumotlar, taqqoslash jadval va sxemalari, tahliliy topshiriqlar banki kerak bo‘ladi. Shu bois tarix ta’limining didaktik asoslarini takomillashtirish vazifasi sifatida manba markazli va tahlilga yo‘naltirilgan o‘quv-

metodik majmualarni ishlab chiqish zarur. Bu resurslar o‘quvchining tarixiy haqiqatni mustaqil izlash va anglashiga imkon yaratadi.

O‘n ikkinchi vazifa tarix ta’limini hayot bilan bog‘lash va ijtimoiy amaliyotga yo‘naltirishdir. Agar tarix darsi faqat o‘tmishdagi hodisalarni o‘rganish bilan tugasa, uning tarbiyaviy va fuqarolik salohiyati to‘liq namoyon bo‘lmaydi. O‘quvchi tarixiy jarayonlardan bugungi hayot uchun saboq chiqarishi, zamonaviy ijtimoiy muammolarni tarixiy tajriba bilan bog‘lay olishi, huquq, adolat, tinchlik, bag‘rikenglik kabi qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini tushunishi kerak. Demak, didaktik takomillashtirish vazifalaridan yana biri tarixni hozirgi hayot muammolari bilan bog‘laydigan topshiriqlar, loyiha ishlari va muammoli mavzularni ishlab chiqishdan iborat.

Shunday qilib, umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik asoslarini takomillashtirish vazifalari mazmun, maqsad, metod, vosita, baholash, pedagogik sharoit va subyektlar faoliyatini qamrab oluvchi kompleks tizimni tashkil etadi. Ushbu vazifalar tarix ta’limini reproduktiv modeldan kompetensiyaviy-aksiologik modelga o‘tkazishga xizmat qiladi. Natijada o‘quvchi tarixiy voqealarni shunchaki biluvchi emas, balki ularni tahlil qiluvchi, baholovchi, ulardan axloqiy va fuqarolik xulosalari chiqaruvchi, umuminsoniy qadriyatlarga tayangan shaxs sifatida shakllanadi. Mazkur yo‘nalishdagi didaktik asoslarni takomillashtirishning bosh maqsadi tarix darsining mohiyatini o‘zgartirishdan iborat, Ya’ni tarixni o‘qitish “faktlarni yetkazish” emas, balki “tarixiy tafakkurni shakllantirish”ga xizmat qilishi lozim. Bu esa o‘quv maqsadlarini yangilash, mazmunni qadriyaviy jihatdan boyitish, interfaol va tadqiqot metodlarini joriy etish, manba bilan ishlashni kuchaytirish, yangicha baholash tizimini yaratish va o‘qituvchining metodik rolini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu ma’noda, tarixiy tahlil ko‘nikmalarini umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlantirishning didaktik asoslarini takomillashtirish zamonaviy tarix ta’limining eng muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

2.3 §. Umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari

O‘zbekiston bugungi kunga kelib dunyoga reformatsion, integratsion va innovatsion loyihalarni amalga oshirish va rivojlantirish xususiyatlariga ega bo‘lgan davlat sifatida o‘zini namoyon etmoqda. Tabiiyki, bu jarayonlarga ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlarga mos rivojlanish, sohalarni zarur kadrlar bilan ta’minlash ta’lim tizimi samaradorligiga uzviy bog‘liqdir. Ta’lim sohasida bo‘layotgan o‘zgarishlar mamlakat yoshlarining intellektual salohiyatini oshirishga, jahon ta’limi standartlariga javob bera oladigan, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” [9]gi Farmoni hamda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta’limni ta’minlash bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar va vazifalarni belgilab berdi. Xususan, pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish hamda sohaga ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [16]gi Qarorni imzoladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 8-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” mavzusidagi nutqida bu haqida atroflicha to‘xtalib o‘tdi va o‘zlikni anglash, millat tarixini haqqoniy yoritish, tarixiy qahramonlarga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, davlatchilik muammolari o‘rganish kabi ijtimoiy sohada ustuvor vazifalarni belgilab berdilar. [7] Bugun jahonda yuz berayotgan voqea va hodisalar, mafkuraviy qarama-qarshiliklarning mazmun- mohiyatini tahlil etish, turli xil yot

g‘oyalardan yoshlarni himoya qilish uchun tarixiy tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ta’lim tizimida tarix fanini o‘qitilishi ayniqsa, O‘zbekiston tarixini chuqur o‘rganish yosh mutaxassislarning bugungi davr siyosatining jahon hamjamiyatidagi o‘rnini, davr qahramonlarini, jarayon ishtirokchisi ekanligini anglashi jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqida prezident SH.Mirziyoyev “Men barchangizni tarixni o‘rganishda yanada uyg‘oq, yanada faol bo‘lishga chaqirmoqchiman. Tarixga sergak qaragan odamgina doimo hushyor va ogoh yashaydi. Bugungi vaziyatga ham kelgusi jarayonlarga ham xolis va haqqoniy baho bera oladi. Bu esa hozirgi murakkab va shiddatli zamonda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, yuksak taraqqiyotga erishishning eng muhim shartidir” [6] deya alohida takidlab o‘tadi.

Tarix, tarixiy haqiqat va uni ilmiy jihatdan xolislik asosida o‘rganish, ayniqsa uni yosh avlodga yetkazib berish bugungi tarix fani oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlab o‘tganidek, «Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat yurtimizning fidoyi, o‘z yo‘lidan, maslagidan, so‘zidan qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo‘lgan sahifalarni qunt bilan varaqlash hammamiz uchun ham qarz, ham farz» [6] . Tarix va tarixiy jarayonlar siyosiy-tarixiy vaziyat ularning ro‘y berishidagi asosiy sabab va xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishda har tomonlama tahlil qilish tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishida katta omil sanaladi. Ayniqsa, turli davrlarda yaratilgan tarixiy ilmiy asarlarda mualliflarning tadqiqot masalalariga turlicha yondashuvlari va fikrlari, ularni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish va tarixiylik, ilmiylik hamda xolislikka asoslanilgan eng to‘g‘ri xulosalarni chiqarish bugungi kun tarixchi mutaxassislari oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi. Ko‘p ming yillik taraqqiyot yo‘lini siljishlar bilan birga tanazzullar va inqirozlarga guvoh bo‘lgan o‘zbek xalqi hayotida XX asrning oxiri va XXI asr boshlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu davrda xalqimiz yaratgan buyuk bunyodkorliklar, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va ma’naviy sohalarda beqiyos yutuqlar O‘zbekistonning uzoq kelajakka mo‘ljallangan taraqqiyotiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayonni samarali tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Umuminsoniy qadriyatlarga inson huquqlari, erkinlik, adolat, bag‘rikenglik, tinchliksevarlik va madaniyatlararo hurmat kabi tamoyillar kiradi. Mazkur qadriyatlar asosida tarixni o‘rganish o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki ongli fuqarolik pozitsiyasini ham shakllantiradi. Tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, avvalo, o‘quvchilarga tarixiy voqealarni faqat yod olish emas, balki ularni chuqur anglash, sabab va oqibatlarini aniqlash, turli manbalarni taqqoslash va mustaqil xulosa chiqarishni o‘rgatishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda umuminsoniy qadriyatlarga tayanish o‘quvchilarga tarixiy hodisalarga xolisona va tanqidiy yondashish imkonini beradi.Shuningdek, tarix darslarida turli xalqlar va madaniyatlar tarixini o‘rganish orqali o‘quvchilarda bag‘rikenglik va hurmat tuyg‘ulari rivojlanadi. Bu esa global dunyoda yashayotgan yoshlar uchun muhim kompetensiyalardan biridir. O‘quvchilar tarixiy voqealarni o‘rganar ekan, insoniyat taraqqiyotida tinchlik, hamkorlik va adolatning ahamiyatini chuqurroq anglay boshlaydilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistoning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni [10] bo‘yicha qabul qilingan “2022-2026-yillarga m o‘ljallangan Yangi O‘zbekistoning taraqqiyot strategiyasi”ning 70-maqsadida: “...Oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash” vazifasi qo‘yilgan. Haqiqatan, vatanimiz va xalqimizning ertangi kunini, jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tiborini belgilovchi barkamol avlodni voyaga yetkazishdek ulug‘ vazifani “oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorligisiz hal etib bo‘lmaydi.

Mamlakatimizda o‘quvchi-yoshlarni, boshqa millat va din vakillarini ham yuksak ma’naviyatli, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda yuqori samara bera oladigan tarixiy materiallar, manbalar mavjud, bular- qadimiy yozuvlarimiz, muqaddas qadamjolarimiz, tarixiy obidalarimiz, asori- atiqalar saqlanayotgan muzeylarimizdir.

Tarixiy manbalar, ularning umumiy xususiyatlari va o‘tmishni aks ettirish

shakliga qarab, quyidagi asosiy guruhlarga ajratiladi: moddiy (ashyoviy) manbalar yoki tarixiy obidalar, etnografik manbalar, lingvistik manbalar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, yozma manbalar hamda rasm va miniatyuralar. [164,8].

Agar “tarixiy material” tushunchasiga izoh beradigan bo‘lsak, u insoniyat jamiyatining qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo‘lgan faoliyati bilan bog‘liq voqealarni aks ettiruvchi moddiy-madaniy yodgorliklar hamda yozma manbalar majmuasini anglatadi. Ta’lim jarayonida tarixiy materiallardan foydalanish esa o‘quvchilarda fanlarga nisbatan qiziqishni oshirish, shuningdek, ularning dunyoqarashini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Islom hamkorlik tashkiloti tashqi ishlar vazirlar Kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqlarida shunday ta ’kidlagan edilar: “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlaming qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o ‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Yangi tahdidlar, jumladan, «ommaviy madaniyat» xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo‘layotgan, odob-axloq, qadriyatlaming yo‘qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda”[3, 4-b.]. Yoshlarimizni mana shunday ma’rifiy maskanlar, muqaddas qadamjolar, tarixiy obidalarga tashrifini uyushtirish ularda o‘z ajdodlariga hurmat, o ‘zligini anglash, nasl-nasabini bilish, o‘ziga nisbatan ishonch, milliy g‘urur, tug‘ilib o‘sgan joyiga hurmat, vataniga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishda oila muhim tarbiyaviy muhit sifatida alohida o‘rin egallaydi. Oila-shaxsning ilk ijtimoiylashuv maskani bo‘lib, unda shakllangan qadriyatlar, qarashlar va munosabatlar o‘quvchining keyingi ta’lim jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, oila farzandda tarixga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otishda muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalar tomonidan ajdodlar tarixi, milliy an’analar, urf-odatlar va tarixiy voqealar haqida beriladigan ma’lumotlar

o‘quvchining tarixiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda umuminsoniy qadriyatlar-hurmat, adolat, vatanparvarlik va bag‘rikenglik kabi tushunchalar tabiiy ravishda singdiriladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar yoshlarni har tomonlama yetuk mutaxassis, huquqiy va madaniy savodli shaxs sifatida tarbiyalashni dolzarb vazifa sifatida ilgari surmoqda. Shu munosabat bilan akademik litsey o‘quvchilarida umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, xususan, madaniyat tushunchalarini o‘zaro bog‘liq kontekstda tahlil qilish zarurati ortib bormoqda. Akademik litsey o‘quvchilarida umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni o‘quvchilarda axloqiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni shakllantirishni samarali tashkil etishga qaratilgan bo‘lib, bir qator pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlarni o‘z ichiga oladi.

Shu tariqa, umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘quvchilarda axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatni oshirish, ularni bilimli va qadriyatli fuqarolar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. o‘z o‘rinlarini topish imkonini yaratadi. Bu metodik yondashuvlar o‘quvchilarni dunyoqarashini kengaytiradi va ularda mustahkam axloqiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni shakllantiradi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchilar tomonidan ham turli o‘quv loyihalarning tayyorlanishiga e’tibor qaratilmoqda. Xo‘sh, o‘quv loyihasining o‘zi nima? O‘quv loyihalarini tayyorlash jarayoni qanday kechadi?

O‘quv loyihasi –1) o‘quvchilarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (yechim)ni mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usuli; 2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o‘quv harakati vositasi; 3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta’lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik vosita hisoblanadi.

Shu o‘rinda umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishda oilaga davlat darajasida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PF-81-sonli “Oila va

xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida oila instituti va xotin-qizlami qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilanib, jumladan, “oilaning tarbiyaviy-ta’lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlami saqlash, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va ulaming farovonlik darajasini oshirish” topshirig‘i berildi. [23]

“Vatan ostonadan boshlanadi” degan chuqur ma’noli ibora mavjud. Bundan Vatan tuyg‘usini oiladan shakllanishi kelib chiqadi. Buyuk jadidchi, mutafakkir Abdurauf Fitrat o ‘zining “Oila” asarida: ’Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog‘liqdir.... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi”, deb yozgan. [41,8] Darhaqiqat, vatanparvarlik umuminsoniy qadriyatlarning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, u avvalo inson tug‘ilib o‘sgan, kindik qoni to‘kilgan maskandan boshlanadi. Shu bois Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish eng avvalo oilada yo‘lga qo‘yilishi zarur. Barkamol avlodni voyaga yetkazishda oilaning o‘rni nihoyatda katta, chunki inson dastlab aynan oila bag‘rida ulg‘ayadi va shaxs sifatida shakllanadi. Oilada berilgan ta’lim-tarbiya, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar keyinchalik jamiyatda - mahalla, ta’lim muassasalari va boshqa ijtimoiy muhitlarda yanada takomillashadi. Shu ma’noda, oilani inson uchun qulay yashash sharoitini ta’minlaydigan kichik Vatan deb atash to‘g‘ri bo‘ladi. Farzandlarni ma’nan va jismonan yetuk, ota-onasiga, mahallasiga, yurtiga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, avvalo, ota-onalarning o‘zlari yuksak ma’naviyat egasi bo‘lishlari zarur. Ular doimiy ravishda bilimlarini oshirib borishlari, milliy tarix, adabiyot, qadriyatlar, san’at va me’morchilik haqida chuqur tushunchaga ega bo‘lishlari lozim. Ana shundagina xalq og‘zaki ijodi hamda zamonaviy tarbiya usullaridan samarali foydalanish imkoniyati yuzaga keladi. Vatanparvarlik asosida o‘z tug‘ilgan yurti, o‘z kindik qoni to‘kilgan yerga hurmat tuyg‘usi asosida avlodlar vorisligi masalasi yotadi. Vatan va ota-ona tanlanmaydi, u Yaratgan tomonidan berilgan katta in’om ekanligini o ‘quvchilarga doimo eslatishimiz kerak. Ota-onani hurmat qilish, bobo-buvilami izzat qilish va “yetti pusht”ni bilish xalqimizning o ‘lmas qadriyatiga aylanganini hayotiy misollar

vositasida yosh avlod qalbiga singdirishimiz zarur, chunki, qadriyatlar insonning o ‘z-o‘zini baholashda katta mezondir. Har bir oilada o‘ziga xos an’analar mavjud. Bu an’analar bolaning ongiga, xulq-atvoriga juda kuchli ta’sir o‘tkazadi. Masalan, oila a ’zolarining tug‘ilgan kunlarini o ‘tkazish, qarindosh-urug‘lar holidan xabar olish va hokazo. Eng muhimi ota-onalaming hurmatini farzand doimo sezib turishi kerak.

Umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishda qahramonlik eposlarida turkiy xalqlarga xos qahramonlik, vatanparvarlikni aks ettirgan “Alpomish”, “Ravshan”, “ Shiroq”, “To‘maris” kabi asarlar, qadimdan xalqlarimizning kundalik turmushida rioya qiladigan odob- axloqni ko‘rsatuvchi pandnoma ruhidagi “ Saddi Iskandariy”, “Qutadg‘u bilik” kabi asarlar o ‘quvchiga millatimizning buyuk o ‘tmishi, merosi, turmush tarzi, o‘z vatani uchun jonini ham ayamagan ajdodlarimiz to ‘g ‘risida ta’sirli m a’lumot bera oladi. 0‘quvchilarga yoshlikdan aytilgan ertak va dostonlardagi obrazlar har bir bolaning jismonan baquvvat, botir, qo‘rqmas, shijoatli va eng muhimi o‘z Vatani va yurti uchun jon fido qilishga tayyor bo‘lib ulg‘ayishida juda muhim omil hisoblanadi. Tarixiy asarlarni o‘qigan, yoki bu haqda ota-onasidan, ustozidan eshitgan o‘quvchi milliy qahramonlarimiz jasoratlarini bilib oladilar, o‘sha qahramonga o‘xshashni, ulardan ibrat olishni orzu qiladilar. Tarixiy-badiiy adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati ham ana shundadir.

Demak, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash bugungi kundagi pedagogika fani oldida turgan o‘ta muhim masaladir. Shu ma’noda O.Musurmonovaning ilmiy ishlari diqqatga sazovor, uning ta’kidlashicha shaxsning ichki ma’naviy dunyosi- ma’naviy ehtiyoj, ma’naviy qiziqish, ma’naviy faoliyat va ma’naviy qadriyat kabi asosiy belgilar tizimidan iborat”[100]

Hozirgi davrdagi ma’naviy-ijtimoiy makon talablarini inobatga olib, alohida qayd etish lozimki, farzandlarimizda vatanparvarlik ruhini qat’iy tarkib toptirish uchun noan’anaviy yo‘llami qo‘llashimiz dolzarb bo‘lib turibdi. Yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish uchun shunday ta’sirchan usullardan foydalanish zarurki, ular bu tuyg‘uni ichki ehtiyoj, qalb amri sifatida his qilsin. Afsuski, ko‘pincha oilalarda bu masalaga yetarli e’tibor qaratilmaydi yoki

vatanparvarlik haqida oddiy gapirishning o‘zi tarbiya uchun yetarli deb qaraladi. Albatta, rivoyat va hikoyatlar orqali bu tushunchaning mazmunini ochib berish muhim, ammo bu yondashuv vatanparvarlik tarbiyasini to‘liq ifodalay olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g ‘risida”gi PQ-5640-sonli qarorida qayd etilishicha: ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa yoshlami ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo‘lga qo‘yilmagan” [21].

Bugungi kunda jamiyat yoshlami vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosidan tashvishlanmoqda, bu muammoning mavjudligi uni hal etishga olib keldi. Oila, mahalla va boshqa tashkilotlarda olib boriladigan vatanparvarlik tarbiyasida umumta’lim maktablari va barcha ta’lim-tarbiya muassasalari metodik-amaliy yordam markaziga aylanishi lozim. Hamkorlikda tarixiy xotirani, vatanparvarlik g‘ururini ro‘yobga chiqarish uchun turli vositalar va usullar qo‘llaniladi. O‘rganilgan o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayoni shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchi o‘quvchilami vatanparvarlik ta’limiga, odatda, butun o‘quv-yili uchun jalb qilish usullarini ishlab chiqishgan, tavsiflashda umumlashtirish shuni ko‘rsatdiki: madaniy-vatanparvarlik; sport-vatanparvarlik; harbiy-vatanparvarlik; Mashhur mutafakkirlar va allomalar-Abu Mansur Moturudiy, “Hidoya” asari muallifi Burhoniddin Marg‘inoniy, buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy, Xojagon tariqatining yirik vakili Abdulholiq G‘ijduvoniy hamda naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband kabi ulug‘ zotlar maqbaralari va muqaddas qadamjolarining ta’mirlanishi, qayta tiklanishi va obod etilishi aynan yurtimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng amalga oshirildi.Shuningdek, tariximizning buyuk siymolari - Vatan ozodligi uchun kurashgan Jaloliddin Manguberdi, Sharqda kuchli va adolatli davlat barpo etgan Amir Temur hamda shoir va davlat arbobi sifatida nom qozongan Zahiriddin Muhammad Bobur haykallarining qad rostlashi ham istiqlolning muhim

natijalaridan biridir. Bu kabi ulug‘ shaxslarning yubileylari xalqaro miqyosda keng nishonlanib, O‘zbekistonning buyuk allomalar yurti ekanligi jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etildi. Yurtimizdagi tarixiy manbalar orasida ayniqsa qadimiy yozma manbalar alohida o‘rin tutadi. Ularni chuqur o‘rganish milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va avlodlar davomiyligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 10-fevraldagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga[22] muvofiq Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qadimiy yozma manbalarni markazlashgan holda saqlash, tadqiq etish, ulaming holatini doimiy monitoring qilish bo‘yicha mas’ul davlat muassasalari etib belgilandi.

Umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishda tarixiy materiallar muhim o‘rin tutadi. Bunday manbalar orqali yoshlarni ma’naviy va madaniy qadriyatlarga, milliy an’analarga jalb etish, ularda yurtimiz tarixi va madaniyatiga nisbatan qiziqish va mehr uyg‘otish mumkin. Shu bilan birga, tarbiya jarayonida faqat O‘zbekiston madaniyati bilan cheklanib qolmay, uning jahon madaniyatidagi o‘rni va ahamiyatini ham ko‘rsatish zarur. Vatanparvarlik tarbiyasining eng samarali yo‘nalishlaridan biri sport orqali amalga oshiriladi. Chunki jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilarda sabr-toqat, jasorat, intizom kabi muhim sifatlar shakllanadi. Bu esa ularni Vatanga xizmat qilish va uni himoya qilishga tayyorlashga xizmat qiladi. “Umid nihollari” va “Yoshlik” sport musobaqalari esa jamoaviy mas’uliyat hissini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ham alohida ahamiyatga ega. Bu yo‘nalish yoshlar ongida Vatanga sadoqat, uni himoya qilishga tayyorgarlik, buyuk sarkardalar tarixini o‘rganish va harbiy an’analarga hurmatni shakllantirishga qaratilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda turli jamoat va nodavlat tashkilotlar ham faol ishtirok etmoqda. Xususan, Qurolli Kuchlar

faxriylari ishtirokida umumta’lim maktablarida “Jasorat”, “Yangi avlod”, “Askar”, “Vatanparvar”, “Yosh chegarachi”, “Yosh posbon”, “Burgutlar” kabi to‘garaklarning tashkil etilishi yoshlarni har tomonlama yetuk, vatanparvar shaxs etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o‘rinda darsdan tashqari vatanparvarlik ta’limi shakllariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: tarixiy sanalar va buyuk ajdodlarimiz tavallud kunlariga bag‘ishlab dyevoriy gazetalar chiqarish, insholar yozish;-“Vatan tayanchi” harbiy-sport o‘yinlarini uyushtirish: harbiy qismlarga, ko‘rgazmalar, muzeylar va teatrga tashrif;-badiiy, dekorativ-amaliy ijod to‘garaklarini ochish;badiiy-havaskorlik tanlovlari va musobaqalari; harbiylar, faxriy harbiylar, mahalliy ziyolilar bilan uchrashuvlar; tematik sinf soatlari;

Agar jamoaviy bahslar tashkil etilib, har bir jamoaning nomi, shiori, ko‘krak belgisi, madhiyasi kabi ramziy belgilari joriy qilinsa jamoaning jipsligi yanada ortadi. Zamonaviy o‘quvchilar uchun vatanparvarlik, xalq va davlat hududining birligi, Vatanni himoya qilish, do‘stlik, mehnat, millatlararo munosabatlar, mahalla, ota uyi, oilasi- mavhum narsa emas. Ushbu tushunchalar aniq, haqiqiy ma’noga ega va ulaming qarashlari va e’tiqodlarini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi kunda ta’lim tizimida chuqur iz qoldirmoqda, xususan, “O‘zbekiston tarixi” fanini yangi paradigma asosida qayta ko‘rib chiqish zarurati paydo bo‘ldi. Zero, an’anaviy dars shakllari o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga qisman xizmat qilishi mumkin bo‘lsa-da, tarixiy tahlil imkoniyatlarini to‘liq ishga solish orqali innovatsion yondashuvni keng joriy qilish, shu jumladan, mediakontent orqali ta’lim resurslarini shaxsiylashtirish, o‘quvchilar o‘rtasida kreativ muloqot muhitini yaratish zamon talabiga aylandi. Bu o‘zgarishlar jarayonida funksional didaktika qoidalarining tizimli implementatsiyasi yuqori o‘quv yurtlaridan boshlab maktab darajasiga qadar bo‘lgan butun ta’lim zanjirida tub islohotlar o‘tkazish imkonini beradi. Jumladan, “O‘zbekiston tarixi” darslarini tarixiy tahlil ko‘nikmalari bilan uyg‘unlashtirish orqali pedagogik jarayonni yangicha sifat bosqichiga olib chiqish, nafaqat o‘quvchilarning tarixiy bilimlarni kengaytirish va

chuqurlashtirishga xizmat qiladi, balki ularda tanqidiy fikrlash, ijodiy izlanish, muammolarni yechish, kognitiv malakalarni rivojlantirishga ham asos yaratadi. Shu bois, umuminsoniy qadriyatlar asosida akademik litsey o‘quvchilarida tarixiy tahlil ko‘nikmlarini shakllantirish uchun ta’lim tizimini izchil metodologik prinsiplar bilan boyitish lozim. “O‘zbekiston tarixi” faniga tarixiy tahlil ko‘nikmlarini izchil singdirish, har bir dars jarayonining aniq metodik maqsadini belgilash, o‘qitish bosqichlarini bosqichma-bosqich tahlil qilish, axborot texnologiyalariga tayangan holda ko‘nikmalarni shakllantirishni maqsad qiladigan tizimni yaratish, ilmiy yangilik sifatida alohida o‘rin tutadi. Kreativ muloqot muhitini yaratish ham yuqoridagi jarayonlarning muhim tarkibiy qismidir. Qadimdan ma’lumki, tarix bu faktlar va sanalar majmui bo‘lib qolmasdan, turli nuqtayi nazarlar, xulosalar, bahslar, muhokamalarni ham o‘z ichiga oladi. An’anaviy darslarda bu munozaralar cheklangan doirada, asosan og‘zaki shaklda o‘tgan bo‘lsa, innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan bahs-munozaralarni onlayn forumlar, ijtimoiy platformalar, maxsus chat botlar, videokonferensiyalar shaklida ham o‘tkazish imkoniyati tug‘ildi. O‘quvchilar ma’lum tarixiy davr yoki voqea yuzasidan turli ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy pozitsiyalarga ega bo‘lgan manbalarni o‘rganish, so‘ngra bu haqda virtual guruh bo‘lib munozara qilish, o‘z qarashlarini “jonli efir”da himoya qilish, argumentlar keltirish orqali mustaqil pozitsiyasini shakllantiradi. Aynan mana shunday interaktiv uslub o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatni sifat jihatidan yangilaydi, o‘quvchilarni dadillikka, fikrni to‘g‘ri ifoda etishga, tarixiy haqiqatni teranroq anglashga undaydi. Bunda funksional didaktika qoidalari har bir bosqichni maqsadga muvofiq rejalashtirish, muhokama jarayonlari uchun mos metodlarni tanlash, qayta aloqa mexanizmlarini ishlab chiqish va baholash me’zonlarini aniq belgilashni nazarda tutadi. Shuning uchun ham tarixni o‘qitish, tarix darslarini turli usul va vositalar yordamida tashkil qilish, o‘quvchilar tomonidan tarixiy bilimlarni o‘zlashtirish asnosida fanning mazmuni, maqsadini va vazifalarni qamrab oladi. Bu borada bir necha olimlar tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar, jumladan: M. A. Zinoviyev [154], A. A.Vagin [136], P.V.Gora[58], E. Vyazemskiy[137], o‘zbek olimlaridan Y.Gafforov [159], A.Sa’diyev [122],

U.Mansurov [91], S. Mahkamov [88], va G. Fuzailovalar[56] tarixni o‘qitish nazariyasi va metodikasi masalalarini to‘liq yoritib berganlar.

Tarix o‘qitish metodikasi bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini shakllantirish, ta’limning an’anaviy va noan’anaviy metod va usullari, shakl va vositalari, ta’lim jarayonini tashkil etishning metodik asoslari bilan qurollantiradi. Bundan tashqari, tarix ta’limi samaradorligini oshirishga, sifatli o‘qitishga xizmat qiladigan mutaxassislar tayyorlashni va kasbiy faoliyatni tashkil etishda kopetensiyaviy yondashuvni shakllantirishni talab etadi.[91] Tarix – murakkab va ko‘pqirrali hodisadir. Tarix fani ko‘p tarmoqli fan hisoblanib, sohaga aloqador bo‘lgan iqtisodiy tarix, siyosiy tarix, ijtimoiy, fuqarolik, harbiy, davlatchilik va huquq tarixi va shu kabi bir qator mustaqil fan tarmoqlarini umumlashtiradi va shu sohalarga aloqador bo‘lgan holda keng ko‘lamdagi ilmiy tadqiqotlarni kompleks tarzda amalga oshiradi. Tarix fanidan dars berish metodikasi jarayonining tarkibiy qismlari bo‘lmish maqsadi, mazmuni, o‘qitishning metod va usullari, natijalari o‘rtasidagi qonuniyatli aloqalar mavjud. Ularni taniqli olim, professor A.Sa’diyev quyidagicha ko‘rsatib o‘tadi: “Maktab tarix kursining maqsadi, ta’lim-tarbiya vazifalarini muvafaqqiyatli amalga oshirilishi o‘qitishning mazmuniga, uning g‘oyaviy-siyosiy va nazariy jihatdan pishiq bo‘lishiga bog‘liq bo‘lganidek, o‘quvchilarning tarix kursini o‘zlashtirish darajasi ham o‘z vaqtida o‘qitishni ilmiy asosda, maqsadga muvofiq tashkil qilinishiga, o‘qituvchining o‘rganiladigan mavzuning maqsadi, ta’lim-tarbiya vazifalari va mazmuniga mos keladigan o‘qitish metod va usullaridan qay darajadan foydalana bilishga bog‘liqdir. Tarix o‘qitish jarayonining tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bu o‘zaro dialektik bog‘lanish natijasida ular bir-biriga uzluksiz ta’sir ko‘rsatib boradi. Tarix o‘qitishda ana shu qonuniyatlarga suyanmasdan, ularni e’tiborga olmasdan turib yaxshi natijaga erishib bo‘lmaydi.” Tarix o‘qitish deganda, tarixiy ma’lumotlar asosida metodlar vositasida o‘quvchilarga bilim berish tushuniladi. Tarix faning mazmuni deganda, birinchi galda tarix fani dasturida belgilab berilgan tarixiy bilimlar ko‘lami, o‘quv materiali uning asl mazmunini, tarixiy faktlarni milliy mafkuramiz nuqtai-nazaridan tahlil qila olish va xulosa chiqara olish, shu jumladan ularni ilmiy tadqiq qilish ishlarining eng oddiy shakllarini

egallash ko‘zda tutiladi.

Tarix o‘qitishni tashkil qilish deganda**,** tarixni o‘qitish va o‘quvchilarning uni o‘rganishini tashkil etishi, ularning o‘rganish jarayonida o‘qituvchining darsni boshqarishiga yordam beradigan metod va usullari, o‘quvchilardagi mavjud bilimlarni ishga solishi va ularni ijobiy bilishga yo‘naltiradigan topshiriqlar sistemasi hamda ta’limning turli xil formalari (dars, seminar, interfaol mashg‘ulotlar va boshqalar) tushuniladi. O‘qitishning natijalari deganda esa, maktabda tarix o‘qitishning maqsad va vazifalarini, mazmunini muvafaqiyatli ravishda amalga oshirilishi, o‘quvchilarning tarix fani asoslarini, tarixiy materialga mos samarali usullarini bilishi va tarixiy bilimlardan foydalanish malakalarini puxta o‘zlashtirishlari, o‘quvchilarning tarixiy tafakkurini, tasavvuri va nutqini o‘stirish ko‘zda tutiladi. Shunday qilib, o‘rta umumta’limda tarix ta’limi jarayonining umumiy qonuniyatlari quyidagi obyektiv va qat’iy takrorlanadigan aloqalarda namoyon bo‘ladi: o‘qitishning maqsadi uning mazmuni bilan beligilanadi; maqsad va mazmunga mos keladigan o‘qitish metodi va usullari tanlanadi; o‘qitishning samarasi esa o‘qitishda erishilgan qat’iy ijobiy natijalar bilan tekshiriladi, ya’ni tarixiy bilimning sifati bilan o‘lchanadi.


Tarixdan dars berish metodikasi bo‘lajak pedogoglarni umumta’limda tarix o‘qitishning ilmiy asoslari bilan tanishtiradi. Shuningdek, jarayonni tekshirish metodlari bilan ham qurollantiradi. Aslida, **tarix** – (arabcha: التاريخ, o‘tmish; davr, vaqt, era; sana) o‘tmish voqealar haqida axborot ochish, yig‘ish, tartiblashtirish va namoyish etish bilan shug‘ullanadi. Tarix insonlar haqidagi, ularning uzoq o‘tmishdan bizgacha etib kelgan hayotiy tajribasi haqidagi fandir.

"Metodika" so‘zi esa qadimgi yunoncha “metodos” so‘zidan kelib chiqqan, “tadqiqot yo‘li”, “bilish usuli” degan ma’nolarni anglatadi. Uning ahamiyati metodologiyaning rivojlanishi bilan, uning ilmiy asoslarini shakllantirish bilan o‘zgardi va amaliy qo‘llanilishini o‘z ichiga oladi. Metodika o‘qitishning mazmuni tashkil etilishi va usullarini ishlab chiqishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq ma’lumotlar inobatga oladi. Maktabda tarixni o‘qitish murakkab, ko‘p qirrali, har doim ham aniq bo‘lmagan jarayon bo‘lib, uning qonunlari o‘quvchilarning

ta’limi, rivojlanishi va tarbiyasi o‘rtasidagi obyektiv aloqalar asosida ochib beriladi. Tarix o‘qitish metodikasining obyekti tarixni o‘qitishning butun sohasi bo‘lib, fanning predmeti o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida tarix fanining o‘qitilishi va o‘zlashtirish jarayonining o‘rganilishi, tarix o‘qitish nazariyasi va metodikasi hisoblanadi. O‘qitish jarayonining obyektiv qonuniyatlari mavjud bo‘lib, ularni bilib olish va ta’lim-tarbiya jarayonida bu qonuniyatlarga amal qilish, ulardan oqilona foydalanish o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tizimida tarix o‘qitishni ilmiy asosda olib borishning muhim shartidir. Uning vazifalari: o‘qitish usullarini aniqlash; ularning tahlili, tavsifi, idrok etish va qo‘llash mumkin bo‘lgan tuzilishi; ushbu usullarni mavjudlik, samaradorlik va mezonlar bo‘yicha baholash. tajribadan foydalangan holda o‘qitishning yangi usullarini ishlab chiqish va tarix ta’limning obyektiv ehtiyojlarini qamrab olishdir.[57]

Tarix o‘qitish metodikasini asosiy fan sifatida oliy o‘quv yurtlaridagi tarix fakultetlarining o‘quv rejasiga kiritigan bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida tarix o‘qitishning ilmiy asoslarini o‘rgatishdan lozim. Tarixni o‘qitish metodikasi, asosan, o‘qitish maqsadlari, tarixiy materiallarni tanlash va uni o‘rgatish usullari to‘g‘risida amaliy usullar, tarixni o‘qitish jarayoni, uni takomillashtirishning vazifalari va vositalari to‘g‘risida bilimlar beradi.Tarixiy bilimlarning haqiqatan ham zarur va maqsadga muvofiq tarkibi va hajmini ilmiy jihatdan qanday aniqlash mumkin? Faqat ta’lim mazmunini takomillashtirish bilan cheklanib qolmasdan, uning ichki qonunlariga asoslanib, bilim jarayonini takomillashtirishga intilish kerak. Tarix o‘qitish metodika quyidagi dolzarb savollarga ilmiy asoslangan javoblar berishni talab etadi: Nima uchun o‘rgatish kerak (o‘quv maqsadlari-rejalashtirilgan natijalar)? Nimani o‘rgatish kerak (o‘quv mazmuni-material tanlash)? Qanday o‘qitish kerak, (o‘qituvchining faoliyati va o‘quv mashg‘ulotlarining uslubiy qurilishi)?

P.V.Gora tarix o‘qitish usuli dasturi va ma’ruza kursining ilmiy asoslariga bag‘ishlangan ma’ruzasida maktabda tarix ta’limi jarayonnining umumiy qonuniyatlarini quyidagi chizmada ifodalab, ularning har biriga izoh beradi: [58]



.2-2 rasm.

Tarixdan dars berish metodikasi bo‘lajak pedogoglarni umumta’limda tarix o‘qitishning ilmiy asoslari bilan tanishtiradi va jarayonni amalga oshirish va natijalarnini tekshirish metodlari bilan ham qurollantiradi.

Tarixdan dars berish metodikasi jarayoni asosan kuzatish va eksperiment yo‘l bilan o‘rgatadi. [38] Kuzatish metodi-bu metoddan foydalanilganda turli xildagi o‘quv- uslubiy adabiyotlar, o‘qituvchilarning malaka ishlari, darslar o‘qitishga baho beriladi va chiqarilgan xulosalar bilan tanishib chiqiladi, darslar kuzatiladi, o‘qituvchilarning bilim-malakalari o‘rganiladi. Kuzatish metodidan foydalanilganda tarixdan dars berish metodikasini mavjud tajribasi doirasidan chetga chiqilmaydi, tabiiy ravishda ushbu tajriba o‘rganiladi. Eksperiment metodida o‘qituvchi o‘qitish jarayonini o‘zi ixtiyoriy tarzda va holatda uyushtiradi. Bu katta mas’uliyat talab etadigan, tajribali pedagoglarga xos bo‘lgan metoddir. Pedagog mustaqil fikr yuritadi, ijodiy ish qiladi va uning bu ishi ilmiy eksperimentga qiyoslanadi. Biroq, o‘qituvchi qilgan ijodiy izlanishning ilmiy eksperimentdan farqi, avvalo shundaki, o‘qituvchi darsda amaliy vazifani hal qiladi, uning xulosalari esa, o‘z faoliyatining natijasi bo‘ladi.

O‘qituvchi o‘qitish jarayonini o‘zi tajribasidan kelib chiqib tashkil qiladi hamda ijodiy ishlar shakliga ba’zi o‘zgarishlar kiritishi, natijasini tekshirib ko‘rishi

